



UZBEKISTAN



**“TURISTIK HUDUDLARNING
ZAMONAVIY KONTENTI:
muammolar va innovatsion yechimlar”**
xalqaro ilmiy-amaliy anjumani

International scientific and practical conference

**“MODERN CONTENT OF TOURIST
DESTINATIONS:
problems and innovative solutions”**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TURISTIK HUDUDLARNING ZAMONAVIY KONTENTI:
MUAMMOLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR”**

**mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani
TEZISLAR TO‘PLAMI
Buxoro shahri 2023-yil 16-iyun**

**СБОРНИК ТЕЗИСОВ
международной научно-практической конференции на тему
«СОВРЕМЕННЫЙ КОНТЕНТ ТУРИСТИЧЕСКИХ ТЕРРИТОРИЙ:
ПРОБЛЕМЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ»**

г. Бухара, 16 июня 2023 года

**International scientific and practical conference on the topic
"MODERN CONTENT OF TOURIST DESTIANTIONS: PROBLEMS AND
INNOVATIVE SOLUTIONS"
JUNE 16, 2023**

3. Илҳомова Г.З. Жаҳон ва Ўзбекистонда тиббий туризмнинг ривожланиш тенденциялари.

4. Исаджонов А., Илёс Г. Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш: ҳозирги тенденциялар ва миллий устуворликлар // Ислом нури. Т., 2020. № 1. С. 192-202.

5. Қодирова Д.С. Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш стратегияси. «Ижтимоий ва иқтисодий география» 2019.

6. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг 2019 йил 9 январдаги 5-сон буйруғи // [Электрон ресурс]. УРЛ: https://cssv.uz/ru/medisal_tourism/ 2019/ (кириш санаси: 22.03.2021).

7. Рузиева М. Т. МЕТОДОЛОГИЯ ГАСТРОНОМИЧЕСКОГО КАРТОГРАФИРОВАНИЯ СТРАН // Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 28. – №. 1. – С. 121-125.

8. Sayfullayeva, M. S. (2022). Directions for the Practice of Sustainable Tourism for Ecotourism Destinations in Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 5(12), 98-109.

9. Omonova, N. R. K., & Djurayeva, N. B. (2021). AN OVERVIEW OF HEALTH TOURISM WITHIN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S TOURISM STRATEGY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 754-759.

10. Farmanov, E. A., Kadirova, S. H., & Djurayeva, N. B. (2020). CENTRAL FEATURES OF HALAL TOURISM AND HALAL FOOD. Academy, (3), 43-45.

11. Raximova, D. S., & Djurayeva, N. B. (2023). TURISTLARNI OVQATLANTIRISHDA “LE PETIT CHEF” ANIMATSION DASTURINING AFZALLIKLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 207-212.

12. Bakhodirovna D. N. (2023). EATING ACCORDING TO RELIGIOUS PRACTICES. Journal of new century innovations, 28(1), 126-130.

13. Ruziyeva, M. (2023). GASTRONOMIK TURIZMDA INNOVATSIYALAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 35(35).

O`roqova Dilfuza Bahriddinovna
PhD “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti
Rustamov Jobir Nodirjonovich
1-bosqich magistrant
Buxoro davlat universiteti

BARQAROR IQTISODIY O`SISH SUR`ATLARINI TA`MINLASH, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING FAOLLIGINI OSHIRISH YO`LLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirish. Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlanishini ta`minlashga, ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida alohida ahamiyat kasb etgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoit yaratish va har tomonlama qo`llab-quvvatlashga asosiy e`tibor qaratilgan.

Kalit so`zlar: biznes, YaIM, iqtisodiyot, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, barqaror, innovatsiya.

Keyingi o`n yillikda jahondagi yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotidagi kichik biznesning roli sezilarli darajada o`zgardi. Mazkur sohada YaIMning salmoqli qismi tobora ko`proq ishlab chiqarilmoqda, ishchi kuchi aksariyat qismining ish bilan bandligi ta`minlanmoqda, barcha innovatsiyalarning yarmidan ko`proq qismi yaratilmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) ma`lumotlariga ko`ra, rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi keyingi 30 yilichida deyarli 70 foizga yetgan. Jumladan, bu ko`rsatkich AQShda 38 foizdan 52 foizga, Yaponiyada 47 foizdan 55 foizga, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida umumiy holda 58 foizdan 67 foizga yetgan, kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ushbu mamlakatlardagi

korxonalar umumiy sonidagi ulushi esa 92,5 foizdan past emas. XX asrning so'nggi 20 yili ichida kichikbiznesdagi bandlik AQShdagi ishbilarmonlik bilan bandlar umumiy sonining 47 foizidan 54 foiziga, Yaponiyada 73,8 foizdan 78 foiziga, Evropa Ittifoqi mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 48 foizdan 72 foizga qadar o'sgan. Bu mamlakatlarda kichik tadbirkorlik mavqeining mustahkamlanishi davlatning shuboradagi siyosati bilan belgilab berilgan.

Mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlarning faolligini oshirish va mavjud salohiyatdan unumli foydalanish ko'p jihatdan ishbilarmonlik muhitiga bog'liq.

Ishbilarmonlik muhiti umumiy holda xo'jalik sub'ektlarining samarali faoliyat yuritishi uchun mavjud malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan tadbirkorlar, malakali xodim va mutaxassislarining mavjudligi, ta'minotchilarga, xaridor va yangi bozorlarga ega bo'lish, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sog'lom raqobat mavjudligi, davlatning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosati, qo'llab-quvvatlovchi va maslahat xizmatlar ta'minoti, rivojlangan infratuzilma sohasi, jamiyatda tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabat, bu boradagi ko'nikma, tajriba, motivatsiya va boshqa shu kabi jihatlar orqali ifodalanadi.

Jahon tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirishdan qator mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning o'ziga xos dastagi sifatida foydalanib kelinmoqda. Jumladan:

- 1) ishchi kuchi bandligini ta'minlashning asosiy sohasi;
- 2) iqtisodiyot innovatsiya salohiyatini rivojlantirish manbai;
- 3) ishlab chiqarish faoliyati yangi shakllarini izlash va joriy etish manbai;
- 4) davlat byudjetini soliq bilan to'ldirish (masalan, Germaniyada soliqlarning deyarli yarmini kichik biznes ta'minlaydi);
- 5) ishlab chiqarish pasayishining oldini olish (Vengriya, Chexiya, Polsha);
- 6) yirik biznes bilan uzviy bog'liq holda, mamlakat barqaror rivojlanishi hamda uning iqtisodiyoti raqobatdoshligini oshirishning asosi. Ushbu yo'nalishlarni quyidagi jadval orqali yaqqol tasavvur etish mumkin (1.1.1-jadval).

Kichik biznesning iqtisodiyot rivojidadagi muhim o'rni shu bilan ham belgilanadiki, u aholining ish bilarmonlik faolligini oshirishning, bozor iqtisodiyoti sharoitida hal qiluvchi bunyodkor kuch bo'lgan tadbirkorlikni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

1.1-jadval

Jahonning ayrim mamlakatlarida kichik biznesdan foydalanish yo'nalishlari¹

Kichik biznesdan foydalanish yo'nalishlari	Mamlakatlar
Ishsizlik va qashshoqlik kabi ijtimoiy muammolarning keskinligini pasaytiruvchi omil	Hindiston, Albaniya, Braziliya
Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlashuv, o'rta sinfnining tarkib topishi	Franziya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Germaniya, Kanada, Ispaniya
Restessiyani bartaraf etish	Isroil, AQSh
Yangi bozorlarni barpo etish	Meksika, Kanada, Singapur, Yaponiya
Islohotlarni izchil amalga oshirish	Xitoy, Polsha, Chexiya, Vengriya, Slovakiya

Aynanshu soha tufayli markazlashgan tarzda foydalanishning iloji bo'lmagan ichki zaxiralar – aholining bo'sh pul mablag'lari, moddiy va mehnat resurslarini harakatga tushirish imkoni vujudga keladi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochish orqali xalqning ma'naviy qadriyatlarini milliy hunarmandchilikni yanada rivojlantirishga, unutilgan sohalarni qayta tiklashga imkon yaratiladi. Ma'lumki, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri atrof-muhitni muhofaza qilish muammosidir. Chunki insoniyat tomonidan

¹Xodiyev B.Y., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2010 – 245 b.

ekstensiv xo'jalik yuritish orqali tabiatga o'tkazilgan tazyiq, yerosti va yerusti boyliklaridan ayovsiz foydalanish hozirda o'z oqibatini ko'rsatmoqda. Endilikda atrof-muhitni ifloslantiruvchi, o'zidan zararli chiqindilarni chiqaruvchi, barcha tirik organizmlarni zaharlovchi yirik korxonalarining faoliyatiga mutlaq erk berish –insoniyat uchun jiddiy xatardir. Bu muammo esa ko'proq mahalliy xomashyolarni, yirik sanoat korxonalarining chiqindilarini qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ishlab chiqarishda chiqitsiz texnologiyalardan samarali foydalanuvchi hamda eng muhimi, atrof-muhitga deyarli ta'sir ko'rsatmaydigan zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan kichik korxonalarining ko'proq tashkil etilishi orqali hal etilishi mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatli tomonlaridan yana biri shundaki, u yirik kompaniyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni bilvosita rag'batlantiradi. Ko'pincha kichik korxonalarining yirik yakka hukmron ishlab chiqarishga bog'liqligi ta'kidlanadi. Biroq bu bog'liqlik bir tomonlama bo'lmay, aslida yirik korxonalar faoliyatini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yordamisiz tasavvur etish mumkin emas. Ko'plab mayda va o'rta kompaniyalar yirik korxonalar uchun turli ishlarni bajarib, butlovchi detal va qismlarni yetkazib berib, ularning ichki pudratchisiga aylanadi. Ichki pudrat tizimi yakka hukmron ishlabchiqaruvchilar uchun o'ta foydalidir. U boshqaruv xarajatlarini qisqartirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va sifatini oshirish, unchalik foyda bermaydigan turli ishlarning katta qismini mayda tadbirkorlarga yuklash orqali yakka hukmron korxonalarining kapital tejashlariga imkon yaratadi.

Bundan ko'rinadiki, hozirgi paytda mamlakatimizda kichik biznes korxonalarining yanada rivojlanishi yirik korxonalar rivojlanishi va ular o'rtasidagi kooperatsion aloqalarning chuqurlashuviga bog'liq. Buborada, ayniqsa, yetakchi korxonalarni modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Buning uchun yangi zamonaviy korxonalarni barpo etish bilan birqatorda, mavjud yirik korxonalarni tarkibiy qayta tuzish orqali kichik zamonaviy korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

Iqtisodiyotning turli soha va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash muammosi unda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yuritish shakllarining oqilona nisbatlariga ham bog'liqdir. Xususan, iqtisodiyotdagi korporativ tuzilmalar, trans milliy korporatsiyalar va boshqa turdagi yirik korxonalar bilan kichik biznes va xususiy korxonalar o'rtasidagi dialektik bog'liqlik aynanshunday mutanosiblikni taqozo etadi. Kichik biznes sektori iqtisodiyotdagi yirik korxonalar sektorining zaif jihatlarining ta'sirini kamaytiradi, ular uchun samarasiz bo'lgan jarayonlarni bajarib, yaxlit iqtisodiyotdagi "bo'shliqlarni to'ldirib" turadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aksettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekani shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib boraolmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida va uncha katta bo'lmagan mahalliy resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekani kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu bilan birqatorda, kichik korxonalardan foydalanish miqyoslarining kengayishi ko'p miqdordagi kapital qo'yilmalarining amalga oshirilishini talab etmaydi, ularni tashkil etish xarajatlari tez qoplanadi. Mahsulot birligi qiymatiga to'g'ri keladigan ustama xarajatlar (boshqaruv xarajatlari) yirik korxonalarga qaraganda ancha past. Bularning barchasi xalq xo'jaligi miqyosida sezilarli tejamkorlikka olib kelishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining nisbatan tejamli bo'lishi, tabiiyki, daromadning ham yuqori bo'lishiga olib keladi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlari nuqtai nazaridan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashqi savdo va tashqi iqtisodiy aloqalarning boshqa shakllaridagi faoli shtiroki va lyutatushumlariniko'paytirishning, turli tashqi iqtisodiy vazifalarni hal etishning muhim

manbaiga aylanishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes mazkur mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirishda katta rolni o'ynaydi.

Kichik biznes tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar turli mamlakatlar qonunchiligi tomonidan turlicha belgilanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida kichik tadbirkorlik sub'ektlari quyidagicha belgilangan:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2) ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoqlardagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

–yengil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoati, qurilishmateriallari sanoati, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlabchiqarish sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtachayillik soni ko'pi bilan yuzkishi;

–mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlabchiqarish sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ellikkishi;

–fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmatko'rsatish sohaları (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sohalaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan kichik korxonalar¹.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash quyidagi chora-tadbirlar hisobidan amalga oshirilmoqda:

- mazkur tarmoqlardagi ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada o'sishini ta'minlash;

- korxonalarni rekonstruktsiya qilish;

- zamonaviy, ilg'or va yuksak texnologik uskunalar bilan jihozlangan korxonalar tashkil etish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni muntazam yangilab borish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosan tarmoq vazirlik va idoralari, ulardagi yetakchi korxona va birlashmalar hamda mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi va samaradorligini ta'minlashga mutasaddi davlat, nodavlat va boshqa tashkilotlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari taqozo etiladi. Shu bilan birga, fikrimizcha, ushbu jarayonlarni amalga oshirishda kichik biznes korxonalari imkoniyatlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2014.

2. "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni // Xalq so'zi, 25-sentabr 2012-yil.

3. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil, 26-apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik haqida"gi 327-sonli Qonuni

4. Xodiyev B.Y., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2011.

5. Самадов А.Н., Останагулова Г.Н. Кичик бизнес ва тadbirkorlik. T.: Молия-иqtisod, 2008.

6. Березин И. С. Маркетинговый анализ. Рынок. Фирма. Товар. Продвижение. –М.: Вершина, 2008. – 480 с.

7. Предпринимательство: учебник / под. ред. М.Г.Лапусты. – 4-е издательство, доп.

¹O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. 2012 yil 2 may.

– М.: ИНФРА-М, 2008. - 667 с.

8. Носова Н.С. Конкурентная стратегия компании, или Маркетинговые методы конкурентной борьбы / Н.С. Носова.- 2-е изд. - М.: Издательско – торговая корпорация «Дашков и К⁰»; Саратов: ООО «Ангейс», 2010.- 256 с.

9. Соловьев Б.А., Мешков А.А., Мусатов Б.В. Маркетинг: Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 336 с.

10. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjaeva Sh.J. Marketing. Darslik. T.: TDIU, 2010.-263 b.

Қодиров Азизжон Анварович
Бухгалтерия ҳисоби ва статистика
кафедраси доценти
Бухоро давлат университети

ХУДУДЛАРДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМ САЛОҲИЯТИНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Мамлакатимизда бугунги кунда туризм соҳасини, жумладан, давлат муҳофазасидаги миллий боғлар, қўриқхоналар, табиат ёдгорликлари, давлат буюртма масканлари ва туристик салоҳиятга эга табиий ҳудудларни замонавий талаблар асосида ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. “Туризм соҳасини жадал ривожлантириш, туристик хизматларни диверсификация қилиш ва сифатини яхшилаш, туризм инфратузилмасини кенгайтириш орқали туризм соҳасини иқтисодийнинг етакчи стратегик секторига айлантириш”¹ устувор вазифалардан бири сифатида белгилаб берилган.

Халқаро табиатни муҳофаза қилиш иттифоқи (IUCN) томонидан “экологик туризм”га қўйидаги таъриф берилган: “Экологик туризм – бу атроф-муҳит олдида жавобгар бўлган, табиатнинг инсон қўли тегмаган ҳудудларига саёҳатлардир. Бундан мақсад табиатдан ва маданий обидалардан завқ олиш, табиатни муҳофаза қилишга ва атроф-муҳитга сезиларли зарар етказмаслик учун уни ўрганиш, маҳаллий аҳолининг ижтимоий-иқтисодий иштирокини таъминлаш ва ушбу фаолиятдан маҳаллий аҳолининг манфаатдор бўлиши”²дир.

Экотуризм халқаро жамияти экотуризм деганда табиат ҳудудларига маъсулиятли саёҳатни тушунади, у табиат муҳофазасига ва маҳаллий аҳолининг турмуш тарзини яхшилашга қўмаклашади.

Республикаимизнинг яна бир географ олимаси Н.Шамуратова “Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жиҳатлари” мавзусидаги тадқиқотида “Экотуризм – шахсларнинг дам олиш, спорт билан шуғулланиш, соғломлашиш, маърифий-маънавий (умумтарбиявий) ишларни амалга ошириш каби мақсадда ҳамда экологик вазифаларни бажариш учун доимий яшаш жойларидан чиқиб, атроф табиатга қиладиган саёҳатлари” дея таъриф беради. Шунга қўра, у экотуризмнинг мақсади туризм орқали ҳозирги ва келажак авлодларнинг экологик хавфсизлиги ва барқарор ривожланишни таъминлаш³эканлигини алоҳида таъкидлайди. Профессор Ф.Эгамбердиевнинг фикрича, “экотуризм - уни экотуризм муҳофазаси мақомига эга бўлмаган бир қатор муҳофаза қилинадиган ҳудудларни яратиш учун иқтисодий жиҳатдан имконият мавжуд бўлган туризм йўналишидир”⁴.

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони.


²Экологический туризм vs рейтинг губернаторов // Межрегиональная общественная экологическая организация «Зеленый Фронт», [Электронный ресурс]. URL: <http://greenfront.su/post/2526>, 2015.

³Шамуратова Н. Т. Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жиҳатлари мавзусидаги диссертация автореферати. Тошкент 2011 й.

⁴Эгамбердиев Ф.Т., Ёкубжоновна Х. Экотуризмнинг иқтисодий моҳияти ва уни такомиллаштириш масалалари.- “Иқтисодий ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018.Б.4.

Шу боис экологик туризмнинг ўзига хос хусусиятлари сифатида қуйидагиларни кўрсатиш мумкин:

- инсон фаолияти томонидан ўзгартирилмаган чекка ҳудудларга туристлар боришини рағбатлантириш. Ушбу ҳудудларга одатда миллий парклар, қўриқхоналар, резерватлар киради;
- атроф-муҳит асраш маданияти туроператорлар ва саёҳатчиларни табиатни муҳофаза қилишга ва ижтимоий-иқтисодий ривожланишга кўмаклашишга ундайди;
- саёҳатчилар учун дам олиш, ҳордиқ чиқариш ва таълимни уйғунлаштиради, бу эса ташриф буюрувчилар учун қаттиқ талаблар мавжудлигини тахмин қилади, уларга риоя қилиш туризм ушбу шаклининг муваффақиятли ривожланишининг асосий шартидир;
- экотуризм ривожланишидан маҳаллий аҳоли учун манфаатлар мавжудлиги ва унинг манфаатлари ва ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ўртасида қарама - қаршиликларнинг йўқлиги¹.



1.1-расм. Экологик туризмни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари²

Туристлик маҳсулотни ишлаб чиқариш ва сотиш билан шуғулланиб турган, туризм индустриясининг бир қисми бўла туриб, тадбиркорлик субъектлари томонидан даромад олинади.

Маълумки, ҳозирги вақтда Ўзбекистонда 17 та қўриқхона мавжуд, улар орасида Бадай-Тўқай, Қизилқум, Нурота, Зарафшон, Орол Пайғамбар, Ҳисор, Зомин ва Чотқол каби қўриқхоналардан асосан йўқолиб кетиш хавфи остида турган турлар ва ўсимликларни муҳофаза қилиш жойи сифатида фойдаланилади³. Булардан ташқари, Ўзбекистон фаунасида 97 турдаги ўтхўр ҳайвонлар, 424 турдаги кушлар, 58 турдаги вермиграцион ҳайвонлар, 83 турдаги балиқлар мавжуд бўлиб, Ўзбекистон флораси 4100 дан ортиқ ўсимлик турлари билан ифодаланади. Ўзбекистонда ўсадиган ўсимликларнинг 9% га яқини эндемик, яъни. бу ўсимликлар фақат шу жойларда ўсади. Текисликлар, чўллар, тоғлар, баландликдаги зоналар, текис ўрмонлар сайёҳлар учун жуда қизиқ ва жозибали бўлиб, ландшафт ва биологик хилма-хиллиги билан ажралиб туради. Фаунага 97 турдаги сут эмизувчилар, 424 турдаги кушлар, 58 турдаги судралиб юрувчилар ва 83 турдаги балиқлар киради, уларнинг 8,8 фоизи эндемикдир. "Қизил китоб" да ҳайвонларнинг 184 тури,

¹ Виноградов Е.С. Организационно-экономические аспекты развития экологического туризма. Автореф. дисс. канд. эконом. наук. СПб. 2017. <https://www.dissercat.com/content/organizatsionno-ekonomicheskie-aspekty-razvitiya-ekologicheskogo-turizma>

² Муаллиф ишланмаси

³ Hoshimov M. 2009. Ecological tourism of Uzbekistan. "Zarafshon" publishing house. Samarkand, Uzbekistan. pp. 220. (in Uzbek)

ўсимликларнинг 305 тури мавжуд¹. Шундан келиб чиқиб, ташриф буюрувчилар учун Ўзбекистоннинг ноёб ўсимлик ва ҳайвонот дунёси билан таништирадиган махсус турларни ишлаб чиқиш мумкин ва бу саёҳатлар туризмнинг янада барқарор ривожланишига асос бўлади. Бу эса мамлакатимизда экологик туризмни ривожлантириш бугунги кунда ўта долзарб масалага айланганлигидан далолат беради.

Шу билан бирга, экотуризмни “альтернатив” туризмнинг шакли сифатида изоҳлайдилар, у атроф-муҳитга нисбатан кучсиз таъсир қилиши билан тавсифланади, шунинг учун мутахассислар уни “юмшоқ туризм” деб атайдилар. Айнан шу махсус қўриқланадиган табиий ҳудудларда табиий захиралардан фойдаланишнинг асосий тури сифатида ташкил топишига сабаб бўлди, чунки экологик туризм атроф-муҳитни муҳофаза қилишни иқтисодий самарадорли соҳага айлантиришга қодир.

Юқоридаги самарадорлик кўрсаткичларини ҳисоблаб чиққандан сўнг уларнинг ўртача арифметик қиймати орқали экологик ҳудуднинг умумий самарадорлигини аниқлаш мумкин бўлади. Иқтисодий самарадорликни капитал қайтиши ҳамда рентабеллик кўрсаткичлари асосида ҳисоблаш қабул қилинган.

Мазкур фактни инобатга олган ҳолда, шунингдек, юқорида тақдим этилган маълумотлардан келиб чиқиб, экологик туризм юқори даражадаги табиатни муҳофаза қилиш ва ижтимоий аҳамиятга эга эканлиги яққол кўзга ташланмоқда. Кейинчалик ундан оқилона фойдаланишга ижтимоий ва иқтисодий омилларнинг таъсир қилиш даражасини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Ушбу маълумот, маҳаллий ва ҳудудий ҳукумат учун экотуризм ривожланиши бўйича икки ва ундан ортиқ лойиҳалар орасидан танлаш имконини асослашга кўмаклашиши мумкин. Ушбу лойиҳалардан бирида иқтисодий, иккинчисида эса ижтимоий омиллар устуворлик қилиши мумкин. Бироқ ушбу масалани кўриб чиқиш учун экологик туризм соҳасини ривожлантириш ва бошқаришнинг хориж тажрибасини ўрганиш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида экотуризм ривожланиши учун имкониятларни ва муаммоларни баҳолаш ҳамда экотуризмнинг ривожланишидан ижтимоий-иқтисодий таъсирларни чуқурроқ ўрганиш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йуналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони.
2. Экологический туризм vs рейтинг губернаторов // Межрегиональная общественная экологическая организация «Зеленый Фронт», [Электронный ресурс].URL: <http://greenfront.su/post/2526>, 2015.
3. Шамуратова Н. Т. Ўзбекистонда экологик туризм ва унинг табиий географик жihatлари мавзусидаги диссертация автореферати. Тошкент 2011 й.
4. Эгамбердиев Ф.Т., Ёқубжонова Ҳ. Экотуризмнинг иқтисодий моҳияти ва уни такомиллаштириш масалалари.- “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2018.Б.4.
5. Виноградов Е.С. Организационно-экономические аспекты развития экологического туризма. Автореф. дисс. канд. эконом. наук.СПб. 2017. <https://www.dissercat.com/content/organizatsionno-ekonomicheskie-aspekty-razvitiya-ekologicheskogo-turizma>
6. Hoshimov M. 2009. Ecological tourism of Uzbekistan. “Zarafshon” publishing house. Samarkand, Uzbekistan. pp. 220. (in Uzbek)
7. Хамидов О. Совершенствование механизма управления развитием экотуризма в Узбекистане: автореф. дисс. д-ра. экон. наук. Самарканд, 2017.

¹ Хамидов О. Совершенствование механизма управления развитием экотуризма в Узбекистане: автореф. дисс. д-ра. экон. наук. Самарканд, 2017.

TURIZM SOHASIDA TADBIRKORLIKNI SHAKLLANISHI

Annotasiya: ushbu maqolada turizm tadbirkorlik va biznesni shakllanishi va ularning mohiyati aks ettirilgan. Shu bilan birga, turistik klasterga, turizm industriyasini rivojlantirishga qaratilgan kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari yig'indisi sifatida ta'rif berilgan. Maxsus ko'p komponentli mexanizm orqali shakllangan turizm sanoati tadbirkorlik faoliyatining turli sohalarini o'z ichiga olganligi sababli u turli klasterlarni tashkil qilishi mumkinligi ifodalangan.

Tayanch iboralar: turizm, tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, sarmoya, jozibadorlik

Tadbirkorlik va biznes tushunchalari ko'p asrlar davomida adabiyotlarda ifodalanmoqda. Ularning mohiyati, uni o'rganishning obyektiv zaruriyati va ahamiyati haqida bir qator adabiyotlar mavjud. Hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkor, ishbilarmon, sohibkor, vositachi, biznes kabi iboralar ko'p qollaniladi va bunday holatlar xususiy sektorda turli shakldagi sub'ektlar faoliyat ko'satayotganligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib ta'kidlaganda, tadbirkorlik - bu innovatsion jarayon bo'lib, uning yakuniy maqsadi talabning ortishi va shaxs yoki ijtimoiy guruhning, shuningdek, butun jamiyatning o'zgaruvchan, doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq takror ishlab chiqarishning uzluksizligidir. Bundan tashqari, tadbirkorlik - bu oxirgi iste'molchining ehtiyojlarini doimiy ravishda o'zgartirishni izlashga asoslangan bozor iqtisodiyotining ma'lum bir uslubi hisoblanadi.

Tadbirkorlik haqidagi zamonaviy tushunchaning asoslari J. Shumpeter tomonidan shakllantirilgan. U tadbirkorning funksional mohiyati ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyasini aniqlash va ulardan foydalanish - innovatsiyalarni amalga oshirishdan iborat deb hisoblagan[1].

Tadbirkorlarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan iqtisodiy faoliyatning juda mashhur shakli - bu bir xil mahsulot yoki xizmatlarni yaratish uchun bir qator tarmoqlarning birlashmasi sifatida shakllantirilgan klaster. Klaster tushunchasi birinchi marta M.Porter [2] tomonidan shakllantirildi, bunda muallif kichik korxonalar guruhlarini geografik xususiyati bo'yicha bog'lashni taklif qildi. Klasterlash tajribasini tahlil qilish ularni ikkita asosiy turga bo'lish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Bu tarmoq va ma'lum bir hudud tegishliligi klasterlar. Birinchi turistik kompaniyalarning sanoat bog'liqligi bilan, ikkinchi esa geografik xususiyatlar bilan tavsiflanadi [3].

Bundan tashqari, ingliz olimi Alan Xosking shunday ta'kidlaydi: "Yakka tartibdagi tadbirkor o'z mablag'lari hisobidan tadbirkorlik faoliyatini olib boradigan, biznesni shaxsan boshqaradigan va zarur mablag'lar bilan ta'minlash uchun shaxsan javobgar bo'lgan, mustaqil ravishda qaror qabul qiladigan shaxsdir. Uning ish haqi - bu tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan foyda bo'lishi mumkin va o'z korxonasi bankrot bo'lgan taqdirda yo'qotish xavfini o'z zimmasiga oladi.

Tadbirkorlik - bu shaxsiy manfaatni, jamoat manfaati bilan uyg'unlashtirish asosida tijorat va boshqa muvaffaqiyatlarga erishish uchun mulk, pul hamda boshqa resurslardan foydalanish bilan bog'liq tadbirkorlik sub'ektlarining tashabbuskor faoliyati.

Turizm sohasida tadbirkorlik ko'proq xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (tadbirkorlar) ham o'z nomidan va o'z mulkiy javobgarligi ostida ish yurituvchi jismoniy shaxslar, ham yuridik shaxs sifatida bo'lishi mumkin. Hozirgi davrda har bir tadbirkor quyidagi vazifalarni bajarishi shart:

- amaldagi qonunchilik doirasida tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq har qanday masala bo'yicha qarorlar qabul qilishda mustaqillikka ega bo'lish;
- o'z faoliyati natijalaridan iqtisodiy va boshqa manfaatdorlikka ega bo'lish, ya'ni mumkin bo'lgan foyda olish darajasini ko'zlash;

- tavakkal qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.

Turizmda tadbirkorlik xatari yoki riski deganda rejalarini amalga oshirish jarayonida yo'qotishlarga olib keladigan noqulay sharoitlarning vujudga kelish mumkinligi tushuniladi. Sanoat, tijorat, moliyaviy, investitsion va bozor risklari mavjud. Xavfni kamaytirish va xavf-xatar hodisalarining yuzaga kelishidan yo'qotishlarni kamaytirish usullari, bu bozor rivojlanishini bashorat qilish, sheriklar o'rtasida risk taqsimoti, sug'urta, kutilmagan xarajatlarni qoplash uchun mablag'larni zaxiralash va boshqalar.

Faoliyatga doimo innovatsion yondashuvga ega bo'lish uchun doimiy ravishda tovarlar, xizmatlar ishlab chiqarishning mavjud omillaridan foydalanish, xizmatlarning yangi iste'molchilarini, ishlab chiqarish omillarini, yangi bozorlarni va faoliyatning noan'anaviy tashkiliy shakllarini izlash lozim. Tadbirkor uchun innovatsiyalarni izlash va amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuch kata miqdordagi foydani kutishdir.

Hozirgi sharoitda foydali biznesni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun tadbirkor yaxshi kasbiy tayyorgarlikka, iqtisodiyot, siyosat, psixologiya, huquqshunoslik, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni tashkil etish sohasida zarur bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, marketing bo'yicha mutaxassislar va kapital egalari hamda olimlar bilan hamkorlik qila olishi lozim. Tadbirkorlik faoliyatida quyidagi bosqichlar ajratiladi:

1. Tadbirkorning imkoniyatlarini bozor ehtiyojlari bilan uyg'unlashtira oladigan tadbirkorlik g'oyasini to'plash va tanlash.
2. Ishlab chiqarish va moliya-xo'jalik faoliyatini rejalashtirish, marketing.
3. Resurslarga, shu jumladan, pul mablag'lariga va etkazib beruvchilarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash.
4. Loyihani boshqarish, ya'ni mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga texnik, moliyaviy, tashkiliy tayyorgarlik, rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish.
5. Korxonani boshqarish - harakatlarni nazorat qilish, tahlil qilish va tajriba to'plash, yangi g'oyalarni izlash.

Ma'lumki, tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati, ishbilarmonlik) - mulkka egalik qilish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishdan muntazam ravishda foyda olishga qaratilgan, o'z tavakkalchiligida amalga oshiriladigan mustaqil faoliyat hisoblanadi. Hozirgi paytda, dunyoda 1 073 500 ta joylashtirish subektlari mavjud bo'lib, ulardan 402 933 tasi "yulduzcha"lari bilan tasniflangan mehmonxonalardir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik turli xil bandlik turlari, tarmoqqa mansubligi va iqtisodiy faoliyat usullari bilan tavsiflanadi. Turizm xizmatlarining rivojlanishi ko'p jihatdan biznesning turli yo'nalishlarining shakllanishini belgilaydi. Masalan, bir nechta kichik korxonalarni yagona turistik klasterga birlashtirilishi. Klasterlashtirish nazariyasiga amal qilgan holda shuni aytishimiz mumkinki, turistik klaster - bu faoliyati turizm industriyasini rivojlantirishga qaratilgan kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari yig'indisidir. Maxsus ko'p komponentli mexanizm orqali shakllangan turizm sanoati tadbirkorlik faoliyatining turli sohalarini o'z ichiga olganligi sababli u turli klasterlarni tashkil qilishi mumkin, masalan: turistik-rekreatsion klaster, loyiha-ta'lim turizmi klasteri va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirishni ta'minlash, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, RB-4848 kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga katta turki bo'ldi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sarmoyaviy jozibadorligini oshirish, moliya institutlarini rivojlantirish, xorijiy va mahalliy investisiyalar hajmini oshirish hamda kichik biznesga mablag'lar yo'naltirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Chunki bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotimizning asosiy tayanchlaridan biriga aylangan. Buni quyidagi raqamlardan ham ko'rish mumkin: 2016-yil yanvar-dekabr oylarining dastlabki natijalariga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 56,9 foizni (2015 yil yanvar-dekabrda - 56,5 foiz), sanoatda - 45,3 foizni tashkil etdi. %. (40,6%), xizmatlar - 60,5% (57,8%), eksport - 26,5% (27,0%) va bandlik - 78,2% (77,9%) tashkil etdi.

Iqtisodiyotimiz tuzilmasini chuqurlashtirish O'zbekistonda kichik va xususiy biznesni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Qayd etish joizki, qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar bu sohani rivojlantirish to'g'risida qarorlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amalga oshirilishi natijasida turizm sohasidagi xususiy tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli ham ijobiy bo'ldi. Ko'plab yoshlarning biznes g'oyalari davlatimiz tomonidan keng qo'llanilayotir. Xorijiy sarmoyalarni kiritish ularning biznes duyoqarashini shakllantirishga yordam berdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, turizmni yanada rag'batlantirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda turizm tashkilotlariga imtiyoz va preferensiyalar berish yaxshi natijalarga erishishda muhim o'rin tutadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan ishlab chiqilgan konseptual strategiyalar ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Shumpeter, Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya / Y. Shumpetr. M.: Progress, 1982. 455 s.
2. Porter M. E. From Competitive Advantage to Corporate Strategy // Harvard Business Review, May/June 1987, pp 43-59.
3. Navruz-Zoda B. et al. Perspectives on the improvement of Uzbekistan as a destination for multi-confessional self-organised pilgrims // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage, 2019. T. 7. № 4. C. 87-96.

Зиявитдинов Хабибулло Хамидович
таърих докторанти

Бухоро давлат университети

РЕСТОРАН ТАДБИРКОРЛИГИ СОҲАСИДА ХИЗМАТЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ

Аннотация: Ушбу илмий мақолада ресторан хизматлари самарадорлигини баҳолашнинг илмий-амалий жиҳатлари тадқиқ этилган. Жумладан, илмий- амалий жиҳатлари ва уларнинг аҳамияти ўрганилган. Тадқиқот натижасида мамлакатимизда ресторан хизматлари самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш бўйича таклифлар шакллантирилган.

Калит сўзлар: ресторан хизматлари, ресторан хизматлари самарадорлиги, хизмат кўрсатиш, Кей Перформанс Индикаторс, товар айланмаси.

Иқтисодий муносабатлар шаклланишининг юқори натижадорлиги ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эгадир. Бу уларни корхонанинг турли кўрсаткичларига: ишлаб чиқариш ҳажми, тижорат харажатлари даражаси, фондлар самарадорлиги, меҳнат унумдорлиги каби кўрсаткичлариларга таъсирига боғлиқдир.

Умуман олганда, тадбиркорлик тузилмаларининг иқтисодий муносабатлари самарадорлигини баҳолаш вазифаси товарларни етказиб берувчидан истеъмолчиларга ўтказишнинг барча босқичлари билан боғлиқ харажатларни (белгиланган сифат ва операцион рисклар даражасини сақлаб қолган ҳолда) минималлаштиришдан иборат. Тўғридан-тўғри иқтисодий алоқалар самарадорлиги айирбошлаш жараёнида иштирок этувчи воситачилар сонини камайтириш ва натижада савдо алоқалари қийматини пасайтириш орқали ишлаб чиқарувчилардан товарларни арзон нархларда сотиб олишда намоён бўлади.

Иқтисодий алоқаларни (етказиб берувчилар ва истеъмолчилар ўртасидаги) ташкил этиш масаласининг мураккаблиги шундаки, мамлакатда бир-бири билан турли хил иқтисодий алоқаларда бўлган, ўзаро маҳсулотлар етказиб бериш мажбуриятлари билан боғланган минглаб корхоналар ва ташкилотлар мавжуд. Ҳозирги шароитда иқтисодий алоқалар самарадорлигини баҳолаш долзарб вазифадир.

Иқтисодийёт соҳасидаги олимларнинг фикрича, ресторан саноати самарадорлигининг энг муҳим кўрсаткичи товар айланмаси ҳисобланади. Товар айланмаси деганда товар келиб

тушган кундан бошлаб, уларни сотиш кунигача, шунингдек, хом ашё ва харид қилинган товарлар айланмасининг тезлиги тушунилади. Бу муайян вақт давомида товар айланмаси сони ёки бир товар айланмаси учун зарур бўлган кунлар сони билан ифодаланиши мумкин. Бунда захираларга йўналтирилган пул маблағларининг қайтими тушунилади.

Республикада чакана товар айланмасининг ажралмас қисми бўлган умумий овқатланиш товар айланмаси ҳам худди шундай ривожланиш қонуниятлари билан тавсифланади: товар ҳажмининг узлуксиз ўсиши ва иқтисодий ўсишнинг юқори суръатлари, иқтисодий ҳудудларда жойлашувнинг ўзгариши, ўсиш суръатларининг тезлашиши, шаҳарларга нисбатан қишлоқ жойларида аҳоли жон бошига товар айланмаси ва бошқалар. Товарларни сотишдан олинган даромад – бу товар сотилган чакана нархи ва товарни сотиб олиш баҳоси (улгуржи нарх) ўртасидаги фарқ асосида ҳисобланади.

Савдо корхоналарининг ялпи даромади товарлар, тайёр маҳсулотлар, ишлар ва хизматларни сотишдан олинган даромадлар; қадоклаш билан боғлиқ операциялардан олинган даромадлар ва бошқа даромадлар ҳисобидан шаклланади. Ялпи даромаднинг асосий қисмини товарларни сотишдан олинган даромадлар ташкил қилади. У миқдорий ва даражавий кўрсаткичлар билан тавсифланади. Чакана савдодаги ушбу даромаднинг даражаси – даромад миқдорининг чакана савдо ҳажмига нисбатининг фоиздаги улуши сифатида ҳисоблабланади; умумий овқатланиш корхоналарида даромад даражасини аниқлашда улар сотиш баҳосидаги ялпи товар айланишидан келиб чиқади.

Иқтисодий муносабатларнинг самарадорлиги мижозларга хизмат кўрсатишнинг эришиш мумкин бўлган даражаси ва харажатлар миқдорининг оптимал нисбати билан белгиланади. Хизмат кўрсатиш даражаси деганда жавоб бериш тезлиги, маҳсулот ассортиментининг кенглиги, тақсимлаш жойларида товарларнинг мавжудлиги, буюртмани жойлаштириш ва қайтаришнинг қулайлиги, буюртманинг ахборот шаффофлиги ва бошқалар тушунилади. Бу эрда харажатлар деганда сақлаш ва омборга ишлов бериш, ташиш, инвентаризацияни бошқариш, тарқатишни бошқариш учун ахборот ва техник ёрдам кўрсатиш харажатлари тушунилади.

Умуман олганда, тақсимлаш занжиридаги бизнес тузилмаларининг иқтисодий муносабатлари самарадорлигини баҳолаш вазифаси товарларни этказиб берувчидан этказиб берувчига этказиб беришнинг барча жиҳатлари билан боғлиқ харажатларни (белгиланган сифат ва операцион рисклар даражасини сақлаб қолган ҳолда) минималлаштиришдан иборат. яқуний истёъмолчилар. Интеграциялашган тарқатиш тизимида иқтисодий муносабатларни «мижозларга хизмат кўрсатиш сифати» мезонига мувофиқ такомиллаштириш куйидаги асосий вазифалардан иборат:

- истёъмолчилар талабларига жавоб бериш тезлигини «харажатлар / жавоб тезлиги» мезонига мувофиқ такомиллаштириш;
- харажат/риск мезонига мувофиқ операцион рискларни оптималлаштириш;
- «товар-моддий захираларни сақлаш харажатлари / етишмовчиликдан йўқотишлар» мезонига мувофиқ товар-моддий захираларни оптималлаштириш – жалб қилинган воситаларнинг мақбул ҳажмини ва уларнинг айланиш тезлигини топиш билан боғлиқ вазифа;
- «юк ташиш харажатлари / ташиш ҳажми» ёки «юк харажатлари / ташиш тезлиги» мезонлари бўйича маҳсулотнинг консолидацияланган қисмини оптималлаштириш;
- «сифатга йўналтирилган харажатлар» / «етказиб бериш сифати» мезонига мувофиқ этказиб бериш сифатини такомиллаштириш. Сифатни яхшилашни сифатни таъминлаш бўйича тадбирларни амалга ошириш харажатларини аниқ кўрсатмасдан туриб, ўз-ўзидан мақсад сифатида кўриб бўлмайди;
- «хизмат харажатлари / хизматдан фойда» мезонига мувофиқ хизмат кўрсатишни такомиллаштириш. Бир қатор товарлар сотишдан кейинги хизмат кўрсатиш ҳисобига асосий фойдани келтиради.

Иқтисодий муносабатларни оптималлаштириш тадбиркорлик тузилмаларига харажатлар бўйича рақобатдош устунликни таъминлаш имконини беради. Амалда анъанавий равишда тарқатиш занжирини лойиҳалашда қуйидаги расмийлаштирилган ёндашув қўлланилади¹:

1. Фаолият самарадорлигининг асосий кўрсаткичлари тизимини ишлаб чиқиш КПИ (Кей Перформанс Индикаторс).

2. Таъминот занжирини шакллантириш ва такомиллаштириш.

3. Ваколат ва масъулият тизимини ишлаб чиқиш, ахборот таъминотининг зарур даражасини баҳолаш.

4. Мақсадли ташкилий тузилмани ишлаб чиқиш ва мавжуд ташкилий тузилмадан мақсадли ташкилий тузилмага ўтиш йўллари излаш.

Ресторан соҳасидаги фаолиятининг энг муҳим кўрсаткичи бўлиб, товар айланмаси (товар айланмаси деганда улар олинган кундан бошлаб то сотилган кунгача бўлган давр тушунилади) ҳисобланади. Турли хил тадқиқотлардан фарқли равишда, биз томонимиздан, иқтисодий муносабатлар самарадорлигини баҳолаш методологиясини таклиф этмоқдамиз, бунда натижавий кўрсаткич асосий фаолиятдан олинган тушум миқдорининг ўзгариши ҳисобланади:

$$S_a = \frac{\Delta T}{X_j / n} \times 100\%, \quad (1.9)$$

бу ерда: S_a – хўжалик алоқалари самарадорлиги кўрсаткичи;

X_j – хўжалик алоқаларини йўлга қўйиш жами харажатлари;

n – шартноматузилган йиллар сони;

ΔT – асосий фаолиятдан олинган тушуми ўзгариши.

Иқтисодий муносабатларни ташкил этиш бўйича умумий харажатлар қуйидагилар йиғиндиси сифатида белгиланади:

– ахборотни таъминоти билан боғлиқ харажатлар (ахборотни таҳлил қилиш харажатлари; маълумотларни узатиш харажатлари (шу жумладан сайтни яратиш ва юритиш));

– тадбиркорлик тузилмасининг иқтисодий муносабатларини рўйхатга олиш харажатлари (консалтинг хизматлари учун харажатлар; бошқарув қарорларини мувофиқлаштириш харажатлари; сифатни таъминлашга йўналтирилган харажатлари);

– иқтисодий муносабатларни таъминлаш харажатлари (музокаралар учун харажатлар (вакиллик ташкилотлари харажатлари, хизмат сафарлари харажатлари); шартнома тузиш харажатлари);

– шартнома мажбуриятларини бажармаслик хавфи билан боғлиқ харажатлар (шартномани муваффақиятсиз тузиш ва бажариш натижасида кўрилган зарарлар; форс-мажор ҳолатлари сабабли мажбуриятларни бажармаслик хавфи билан боғлиқ харажатлар).

Юқоридагилардан хулоса қилишимиз мумкинки, агарда иқтисодий муносабатлар самарадорлиги кўрсаткичи 100% дан ошса, унда иқтисодий муносабатларнинг самарадорлиги ҳақида тўхталишимиз мумкин.

Ишбилармонлик тузилмалари ва ҳамкор корхоналар ўртасидаги иқтисодий муносабатлар таҳлили уларнинг ривожланиши ва институционал асослаш бизнес тузилмасининг самарадорлигига, натижада рақобатбардошлигига ижобий таъсир қилади, деган хулосага келишимиз мумкин.

Хулоса сифатида айтишимиз мумкинки, биз томонимиздан қуйидаги босқичларни ўз ичига олган иқтисодий муносабатлар самарадорлигини баҳолаш методикасини амалиётга қўлланилиши доимий равишда барқарор иқтисодий муносабатлар бўйича харажатларини баҳолаш кўрсаткичлари тизимини шакллантириш, «тушумнинг

¹ Калянов Г.Н. Теория и практика организации бизнес-процессов. Серия «Реинжиниринг бизнес-процесса». — М.: СИНТЕГ, 2009.

ўсиши»ни иқтисодий муносабатлар самарадорлигини баҳолаш кўрсаткичи сифатида асослаш ҳамда иқтисодий муносабатлар самарадорлиги кўрсаткичи сифатида аниқлаш мумкин.

Фойданилган адабиётлар:

1. Басовский Л.Е., Протасов В.Б. Управление качеством: Учебник. – М.: ИНФРА – М, 2002. – 212 с.
2. Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 33.
3. Калянов Г.Н. Теория и практика организации бизнес-процессов. Серия «Реинжиниринг бизнес-процесса». — М.: СИНТЕГ, 2009.
4. Мирзаев Қ.Ж., Пардаев М.Қ. «Хизматлар соҳаси иқтисодиёти». Ўқув қўлланма. Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2014.-112 б.
5. Плущевский М.Б. Методика системного мониторинга качества продукции и услуг // Стандарты и качество. 2002. № 12. С. 68 -73.
6. www.ziyouz.com

Файзиева Сайёра Кудратовна
Старший преподаватель кафедры
«Туризм и гостиничное хозяйство»
Баратова Манзурахон Бахадировна
студентка
Бухарский Государственный Университет

ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБСЛУЖИВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСТОРАННОГО ТИПА В УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация: В статье показаны пути для повышения качества обслуживания на предприятиях ресторанного типа. Использование мирового опыта методом “SERVQUA”, метод «Таинственного покупателя», Ведь успех и имидж на предприятии зависит от качества обслуживания. Рассмотрены подходы различных зарубежных авторов к пониманию понятие “качество обслуживания”

Ключевые слова: сервис, ресторан, ассортимент, маркетинг, услуга, показатель, интерьер, ландшафт, качество.

Введение

В настоящее время происходит достаточно бурное развитие индустрии социально-культурного сервиса . К заведениям социально-культурного сервиса можно отнести: отели и ресторана различной категории, рестораны и кафе, передвижные кафе и бары и т.д. С увеличением количества подобных заведений, происходит увеличение конкуренции. В связи с этим возникает потребность в улучшении качества предоставляемых услуг, введении инноваций.

Работа персонала – это один из важнейших качественных показателей работы предприятия. Именно от персонала во многом зависит общее впечатление от заведения и тот факт вернуться в него. Причем важно подчеркнуть, что в сфере социально-культурного сервиса важна работа каждого сотрудника, начиная от руководителя и заканчивая сотрудником гардероба.

Актуальность статьи, исследования качества обслуживания на предприятиях ресторанного типа определяется тем, что ресторанный бизнес, относящийся к сфере общественного питания, производит продукт, который в отличие от продукта промышленной сферы, потребителям труднее оценить по критерию качества до того, как будет совершен заказ в ресторане. Потребитель при выборе руководствуется советами персонала, друзей, рекламой или фотографиями в меню, но не может заранее знать, что именно он получит). Поэтому ресторанные услуги тяжелее обменивать и продвигать на

рынке. Критерием оценки качества продукта является эмоциональная реакция клиента, которая зависит от воспитания и отношения к делу персонала, а также от самого клиента. Предприятия должны уметь привлекать клиентов, добиваться их лояльности и всячески стимулировать расходы на приобретение ими услуг. В будущем ресторанный бизнес все больше будет ориентироваться на привлечение повторных клиентов и стимулировать дополнительные расходы с их стороны, предлагая широкий ассортимент блюд и напитков и высокую культуру обслуживания, которая в условиях высокой конкуренции на рынке ресторанных услуг является важным фактором развития ресторанного бизнеса. В последние годы ресторанный бизнес стал привлекать все больше инвесторов из самых разных сфер бизнеса. Это связано, прежде всего, с привлекательностью данного рынка в условиях экономического роста страны и благосостояния населения. А также с возможностями получения стабильной прибыли в течение всего времени существования ресторана при его грамотном управлении (общественное питание является одной из самых ликвидных отраслей экономики. Кроме того, нет наработанной методологической базы, помогающей вести бизнес и формировать высокую культуру обслуживания предприятий ресторанного бизнеса.

Перед исследованием качество обслуживания в ресторанах, хотелось бы рассмотреть подходы различных авторов к пониманию понятие “качество обслуживания”(таблица.1)

«Чем уровень ресторана выше, тем требования к качеству обслуживания жестче, — считает Ольга Иванова, эксперт «SQI Management». — В сфере взаимодействия это касается, прежде всего, оперативности реагирования на пожелания и запросы гостей, общей доброжелательности. Но в ресторане обслуживание этим не ограничивается, хорошее настроение гостей создается не только доброжелательностью и услужливостью персонала.

В дело идут тотальная чистота и гигиена всех помещений, свежесть продуктов, качество приготовления, дизайн подачи блюд. Прежде всего, это ответственность менеджера смены, который с заданной регулярностью совершает несколько полных обходов заведения за смену».

Таблица 1.

Подходы различных авторов к пониманию понятия “качество обслуживания”

№	Авторы	Характеристика
1	Ш.Вегишн	Качество обслуживания- это один из факторов непосредственно влияющих на желание потребителя “купить” и прийти снова
2	А.В.Иванов	Качество обслуживания –это эмоции, которые получены от посещения магазина, ресторана.
3	В.А.Каштанов	Качество обслуживания-это комплексная категория, один из важнейших показателей эффективности функционирования предприятия.
4	Дж.Шоуль	Качество обслуживания-это затраты,которые окупятся многократно, благодаря повышению удовлетворенности клиентов,но чтобы приносить прибыль, качественное обслуживание-должно стать стратегией.

Показатель качественного обслуживания на предприятии определяется параметрами, представленными на (рис.1).




Рис.1. Условия качественного обслуживания

Удовлетворенность потребителя состоит из трех составляющих
 Качество ключевых выгод
 Качество процесса оказания услуг
 Восприятия ценности товара или услуги



Рис-2. Составляющие потребителей удовлетворенности качеством обслуживания

В качестве ключевых выгод для потребителя могут рассматриваться качество товара, качество услуг, приемлемая цена, соответствие товаров ожиданиям, удобное место продажи товара, приемлемая цена, соответствие товаров ожиданиям, удобное место продажи товаров ожиданиям, удобное место продажи товара или местонахождение

Bowdin (2006)⁴ notes that the term "event" has been used "to describe specific rituals, presentations, performances or celebrations that are consciously planned and created to mark

¹ <https://www.dictionary.com/browse/glossary>

² Goldblatt, J., 2005. Special Events: Event Leadership for a NewWorld. 4th edition. John Wiley & Sons: Hoboken.

³ Getz, D., 2008. Event Tourism: Definition, Evolution, and Research. Tourism Management, 29 (3), pp. 403-428.

⁴ Bowdin, G., 2006. Identifying and analysing existing research undertaken in the events industry: a literature review for People1st. Leeds Metropolitan University: Leeds.

special occasions and/or to achieve particular social, cultural or corporate goals and objectives.” Jago and Shaw (1998) suggest six features of special events. According to them, special events should:

1. Attract tourists or tourism development
2. Be of limited duration
3. Be one-off or infrequent occurrence
4. Raise the awareness, image, or profile of a region
5. Offer a social experience
6. Be out of the ordinary

Summarising the definition of a special event, they note it as: “A one-time or infrequently occurring event of limited duration that provides the consumer with a leisure and social opportunity beyond everyday experience. Such events, which attract or have the potential to attract tourists, are often held to raise the profile, image or awareness of a region.”¹

Festivals and events can be understood as ‘formal periods or programs of pleasurable activities, entertainment, or events having a festive character and publicly celebrating some concept, happening or fact’. The festive and public celebratory characteristics noted in this definition are important because festivals and events have long existed as significant cultural practices devised as forms of public display, collective celebration and civic ritual. In fact, people in all cultures recognize the need to set aside certain times and spaces for communal creativity and celebration. These practices date back centuries. Often they were allied to the rhythms of agrarian society. Very often there were religious underpinnings, as in many of the festivals existed in the Middle Ages. Public displays and civic ritual were significant in Renaissance times, while imperial and international exhibitions came to be part of both public life and the collective imagination in Europe from the middle of the 19th century onwards. Researchers consistently point to the fact that throughout these earlier periods, festivals and events “encapsulate identity, in terms of the nation state, a sense of place, and the personal and heterogeneous identities of a people”.² Historical research demonstrates how festival and events have a long history of acting as tourist attractions and of effecting the reproduction of places as tourism destinations.

The term ‘event’ is used to describe a wide range of activities many of which have quite different characteristics. Such events range from the Olympic Games at the mega-event end of the scale to small regional festivals. An event can be defined as “a onetime or infrequently occurring event of limited duration that provides the consumer with a leisure and social opportunity beyond everyday experience”.³

Events vary from local community based events (e.g Folk Festivals) to major events (e.g The Olympics). The nature of events can also differ due to the number of venues used during the event. Events can be all inclusive at one venue or held at many venues throughout a region. Multiple venue events are more difficult to evaluate or assess as boundaries become blurred, the sample and study area gets larger, and there is often a chance of counting the same visitor many times.

The thematic nature of events can be used to either justify or disqualify the benefits or advantages of events based on their importance to the host community. An event that spreads the seasonality of tourism in a region also distributes the flow of money into a region, increasing the opportunities for full time employment. Other factors that may contribute to a successful event could include:

- Increasing visitor length of stay in region/town;
- Increasing visitor expenditure in region/town;
- Improving destination awareness;

¹ Часопис БизИнфо, 2015, волумен 6, број 2, стр. 83-97

² Matheson, Catherine M. Festivity and sociability, *Tourism Culture & Communication*, Volume 5, Number 3, 2005, pp. 149-163(15)

³ Jago, L. and Shaw, R., 1998. Special Events: a conceptual and differential framework. *Festival Management and Event Tourism*, 5(2), pp. 21-31

- Increasing civic pride or community solidarity.

A framework for the categorization of events is useful for determining strategic gaps through the identification of different events, their timing, location and themes. It is also useful to classify events in order to assess economic performance against criteria such as the timing of the event (whether a summer or winter event), its location, or its themes (whether it is an active sports event, or a passive music event).

REFERENCES

12. Etiosa, O. (2012). The impact of event tourism on host communities. Central Ostrobothnia University of Applied Sciences, Pietarsaari. Retrieved from https://www.theseus.fi/bitstream/handle/10024/43714/omoregie_etiosa.pdf?sequence=1
13. Getz, D. (2005). Event Management and Event Tourism (2d ed.). New York: Cognizant.
14. Norov, B.N. U., & Karimov, E. B. U. (2021). The Importance Of Events On Destination Brand Image Enhancement–The Case Of Bukhara. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(05), 106-117.
15. Akhrorova, N. U. (2022). Swot Analysis in Youth Tourism Development Strategies for Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(12), 26-33.
16. Karimov E.B. (2023). TURIZM TADBIRLARINING MAMLAKAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 9-10.
1. Omonova, N. R., & Isokova, G. S. (2022). The significance of interactive methods in teaching in Higher Education. *Science and Education*, 3(12), 661-666.
2. Axrorova, N. (2023). YOUTH TOURISM AND COVID-19 PANDEMIC. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 33(33).
3. Axrorova, N. (2023). THE ROLE OF GEO INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH TOURISM. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 33(33).
4. Akhrorova, N. U. (2022). Swot Analysis in Youth Tourism Development Strategies for Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(12), 26-33.
5. Omonova, N. R. K., & Djurayeva, N. B. (2021). AN OVERVIEW OF HEALTH TOURISM WITHIN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S TOURISM STRATEGY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 754-759
6. Axrorova, N. (2023). YOUTH TOURISM AND COVID-19 PANDEMIC. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 33(33).
7. Axrorova, N. (2021). The Conceptual Clarifications Of Youth Travel And Tourism In The Case Of Uzbekistan. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 8(8).
8. Nilufar, O., & Hamroev, H. R. (2021, March). MEDICAL TOURISM: PROBLEMS AND POTENTIALS OF UZBEKISTAN. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 3, No. 1, pp. 34-37).

Kuvandikov Aziz Ravshanovich

Tourism and Hotel Management Department

Bukhara state university

EXAMPLE OF THAILAND CONVENTION AND EXHIBITION BUREAU (TCEB) AS A TOOL OF INCREASING ATTRACTIVENESS OF DESTINATION BASED ON M.I.C.E TOURISM

Annotation: Thailand Convention & Exhibition Bureau (TCEB) - the government leading edge agency - has been the key to success for a wide range of global and regional business events since 2004. With its key strategic model, Growth Driver, TCEB works as customers' strategic business partner, delivers creative ideas, and provides solutions from its capable resources for every scale and various customized business events. TCEB has formed numerous collaborations and networks linked to open up grand new chapters of business opportunities, and to strategically enhance every business success with special care that will spur lasting advancement and

achievements. Its goal is to equip business events industry at national, regional and global stage for continuous development, long-term growth and sustainable success.

Key words: *Thailand Convention & Exhibition Bureau (TCEB) , Thailand Incentive and Convention Association or “TICA, Global Destination Sustainability (GDS), Thailand 7 MICE Magnificent Themes 2020, ‘Thailand 4.0’ policy-“4P” strategy-representing Public-Private-People-Partnerships.*

INTRODUCTION

It is obvious that MICE activities significantly contributed to the nation-building since the formation of Bangkok. Even a century later, MICE activities, such as conferences and international exhibitions, continue to play an important role in enabling the country to overcome a period of crisis and hardships. During the reign of King Bhumibol Adulyadej, MICE industry began to exhibit stronger role in Thai society. Thailand became a member and a partner of various international organisations. As a result, international conventions and exhibitions were held in the country continuously. In 1966, after World War II, the United Nations, in collaboration with the Thai government, organised the 1st Asian International Trade Fair 1966, followed by the 5th Asian Games. These two major events made Bangkok the object of all eyes in Asia and around the world. Consequently, MICE activities in the country flourished and became a key stepping stone for Thailand to host international conventions and exhibitions.

Since then, MICE industry generated substantial income for the country. In 1977, Tourism Authority of Thailand (TAT) established the International Convention Division, which became a member of several international convention organisations. In 1984, hotel business group, travel companies, financial institutions, and other businesses formed Thailand Convention Promotion Association or “TCPA” to further drive Thailand’s convention and exhibition industry. The English name was later changed to Thailand Incentive and Convention Association or “TICA.” The MICE industry in Thailand became very vibrant at that time. The “Convention Promotion Fund” was established to increase flexibility in bidding to host various events. Such initiative had positive impacts on both the economy and the public relations of the country. The Queen Sirikit National Convention Centre (QSNCC) was also constructed to host the annual meeting of the World Bank and the International Monetary Fund in 1991. QSNCC became a model for the private sector to build more large convention centres at a later time. In 1996, Thailand’s exhibition industry experienced the peak of its growth, earning worldwide recognition. Related businesses, therefore, gathered to establish “Thailand Exhibition Association” or “TEA” to support and host large international trade fairs in the country. In 2002, the government pushed forward the establishment of “Thailand Convention and Exhibition Bureau” or “TCEB,” to be the core body in forging cooperation with partners in promoting and developing the MICE industry in all dimensions. The establishment of the TCEB represents a long-term commitment by the Thai government and private sector to promote and develop the country’s MICE industry. The TCEB plays an important role as a coordination and facilitation center for Thai business operators by offering an integrated one-stop service and supporting businesses involved in MICE in Thailand. Owing to cooperation from all sectors, Thailand is now regarded as the center of business and industry for conferences and trade shows in ASEAN.

In 2019, Thailand was selected as the top destination for having the Convention and Visitors Bureau or “CVB,” as a body responsible for promoting the MICE industry. The country was rated the highest Destination Management Performance in Asia by the Global Destination Sustainability (GDS) 2019. Additionally, Thailand was ranked No. 2 as the Most Demanded MICE Destination in 2019 by Pacific World. In term of the economy, the MICE industry, both the domestic and international markets, generated economic impacts throughout the value chain, totalling 544 billion baht in 2019, or 3 percent of the country’s GDP. Moreover, the government collected tax revenue of over 35,900 million baht per year from MICE businesses, while the industry created more than 340,000 jobs in various fields.

Official web site of Thailand Convention & Exhibition Bureau



<https://www.businesseventsthailand.com/en/about-us/power-and-duty>

Even though the COVID-19 crisis has persisted for two years now, the Thai MICE industry remains committed to uniting all sectors to move forward in order to overcome the crisis by adapting to changes and adhering to and integrating public health guidelines and technology in organising new normal events. Despite challenges, the goal is to make Thailand a leader in the MICE industry and become a global destination, so that Thai people can be proud of the dignity of the country. It's the dignity that has brought forward the country's reputation and potential into international spotlight since the olden days and will continue into the future. Thailand Convention & Exhibition Bureau (TCEB) - the government leading edge agency - has been the key to success for a wide range of global and regional business events since 2004. With our key strategic model, Growth Driver, TCEB works as your strategic business partner, delivers creative ideas, and provides solutions from our capable resources for every scale and various customized business events. TCEB has formed numerous collaborations and networks linked to open up grand new chapters of business opportunities, and to strategically enhance every business success with special care that will spur lasting advancement and achievements. Our goal is to equip business events industry at national, regional and global stage for continuous development, long-term growth and sustainable success.

Thailand 7 MICE Magnificent Themes 2020 is the third phase of the project in which Thailand Convention and Exhibition Bureau (Public Organization) or TCEB has realized that there is a demand for new MICE products among business operators and MICE travelers whose behaviors have shifted. Thus, TCEB has continued this project to seek and develop new MICE products in 7 categories with the highest demands to cater to the MICE market in Thailand and abroad. In the 2020 fiscal year, TCEB sought new MICE products and venues in MICE cities and other cities with potential, totaling 11 cities: Bangkok, Phra Nakhon Si Ayutthaya, Chiang Mai, Phitsanulok, Sukhothai, Khon Kaen, Nakhon Ratchasima, Pattaya, Chanthaburi, Phuket, and Surat Thani.

CONCLUSION

Moreover, the project is expected to help drive growth for the local economy as well as reinforce that Thailand is a MICE destination with readiness equal to other MICE cities around the world. These activities and venues from the 7 themes of Thailand 7 MICE Magnificent Themes 2020 will inspire event organizers to mix and match fun and joyful ideas for MICE travelers. Welcome to a world of creative ideas along the MICE route. The Thailand Convention & Exhibition Bureau (TCEB) continues to shape the business events industry of Thailand with

exceptional acumen and effective solutions. With a robust service support system and innovative approaches to co-create distinctive programs for the organizers, TCEB is redefining the MICE landscape to maintain Thailand's impact as a top Asian business destination. Established by Royal Decree in 2002, the government agency is tasked with promoting and developing the business tourism sector in Thailand. Since 2004, TCEB has successfully established the country as Asia's largest business events hub, by providing amenable service support for MICE programs. Today, TCEB is heeding the government's economic 'Thailand 4.0' policy, and targeting 10 key industries to align with international interests and be future-ready.

TCEB will be one's reliable partner in all aspects of its business events in the Kingdom. Thailand is not only a unique destination at the HEART of ASEAN and an unparalleled business hub at the HEART of both the emerging Asian region and the global marketplace, but also a thriving hub, where passionate people offer seamless service from the HEART, and with an unforgettable smile. These 3 elements form the overarching objective of this campaign: to capture the essence of Thailand's unique position as a preferred global business events destination. The Thailand CONNECT...Our Heart Your World builds on the strong legacy of the three fundamental pillars of Thailand's MICE industry including (1) Destinations (2) Businesses and (3) People, by showcasing the best of all three elements.

TCEB's main objectives are to promote meetings, incentive travel, conventions and exhibitions (MICE), and to develop this collective industry in order to make Thailand a regional hub for MICE events.

In my opinion to develop M.I.C.E industry in Uzbekistan it is required to establish Uzbekistan Convention & Exhibition Bureau (UzCEB) to promote destination for business tourism purpose and increase attractiveness of destination for tourists. This aim was targeted by President of Uzbekistan in his decree №135 dated 26.04.2023 "ON ADDITIONAL MEASURES TO RAPIDLY DEVELOP THE TOURISM OF THE REPUBLIC AND FURTHER INCREASE THE NUMBER OF LOCAL AND FOREIGN TOURISTS" In appendix 4 A- which is named - on the comprehensive use of resources and opportunities in the field of tourism, as well as on the rapid resolution of existing problems in 2023, in chapter -"Developing new types of tourism and further increasing the attractiveness of Uzbekistan based on them" it was indicated importance of developing M.I.C.E tourism as one of new type of tourism in Uzbekistan and my article it is discussed experience of Thailand by establishing Thailand Convention & Exhibition Bureau (TCEB).

References

1. Introduction to MICE industry Rosenborg, G. C. (2015).
2. A Guide to Meetings, Conventions, and Events. Chicago: Professional Convention Management Association (PCMA). Weber K., (2001)
3. Meeting planners' use and evaluation of convention and visitor bureau Vol. 22 pp. 599-606 Zhang H.Q., Leung V., and Qu H., (2007)
4. Introduction to MICE Industry". Property and copyrighted by Thailand Convention & Exhibition Bureau (Public Organization) 2016

*Axrorova Nilufar Uktamovna,
Tayanch doktorant, "Ipak yo'li" turizm va madaniy
meros xalqaro universiteti*

DUNYO MIQYOSIDA TALABA VA YOSH SAYYOHLARNING OQIMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: Butun dunyo bo'ylab sayohat qilish madaniyati shakllangani sari sayyohlarning yoshi ham yosharib bormoqda. Asosan, turistik maqsadda tashrif buyuruvchilar orasida yoshlarning ko'payishi turizmning kelajagi ham porloq ekanligidan dalolat beradi.

Mazkur maqolada yosh sayyohlarning sayohat qilishiga turtki bo'luvchi va to'sqinlik qiluvchi omillar haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: talaba va yosh sayohatchilar, yoshlar turizmi, turistik omillar.

Yoshlar turizmi turizm dunyosining eng istiqbolli sohalaridan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uning tendensiyasi talaba va yoshlar sayohatlarining ortib borayotgani bilan turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. Shubhasiz, ko'plab imkoniyatlar va omillarni hisobga olgan holda, yosh sayohatchilar orasida bo'sh vaqtlari va dam olish kunlarida sayohat qilish yoki yangi joylarga tashrif buyurish istagi yuqori o'rinda turadi. Transport, arzon va shinam yotoqxonalar, onlayn bronlash tizimlari va turli maqsadlarda rivojlanishi eng yuqori cho'qqiga ko'tarilayotgani sababli sayohat qilish yoshlar uchun odatiy holga aylandi. Ammo yoshlar turizmini sezilarli darajada rivojlantirishda muhim rol o'ynagan alohida omillar mavjud. Yosh sayohatchilar sonining ko'payishi turizmning yuqori rivojlanish sur'atlarini ko'rsatishi mumkin, ammo bu hozirgi holat alohida motivatsion omillardan kelib chiqadi.

Pastdagi chizmadan ko'rinib turibdiki, transportning arzon narxlari yoshlarni yangi manzillariga yaqinlashtirishga muvaffaq bo'ldi, ya'ni yoshlar kam budjet bilan ham oson sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Shuningdek, Rough Guide va Lonely Planet kabi sayohat qo'llanmalari ularga boshqa vositachilar uchun pul sarflamasdan sayohat qilishlariga yordam beradi. Qisqa muddatli mehnat shartnomalari tufayli ular sayohat qilish uchun yetarli vaqt ajratishlari mumkin.



1-chizma. Yoshlar turizmini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar. Manba: Global Report Power of Youth Travel 2016.

Umuman olganda, aholi sonining ko'payishi, ularning daromadlari, jamg'armalari, muayyan mintaqaga boriladigan joyning siyosati, infratuzilmasi butun turizm tendensiyalarining nafaqat barcha jabhalarda, balki yoshlar turizmi segmentida ham gullab-yashnashiga ta'sir qilishi mumkin. Aniqroq yondashganda, talabalar va yoshlar sayohatlarining asosiy motivatsiyasi va omillarini hisobga olish kerak.

Yoshlar sayohatiga ikki xil omil ta'sir qiladi (Richards Greg, Wilson Julie, 2003):

a) yoshlar sayohatini rivojlantirishga yordam beradigan omillar ikkiga bo'linadi: *odatiy omillar* (demografik, daromadlar, turistik mahsulot uchun xarajatlar va tariflar, turistik taklif, urbanizatsiya, dam olish, texnik taraqqiyot) va *o'ziga xos omillar* (ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar va moliyaviy xususiyatlar, oila resurslari, bilim yetishmasligi);

b) faoliyatning uzluksiz rivojlanishiga *to'sqinlik qiluvchi omillar*, masalan, cheklangan pul resurslari va oilaning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, bo'sh vaqtning

yetishmasligi, turistik muassasalarning takliflari bo'yicha ma'lumotning yetishmasligi, til to'siqlari va boshqalar.

1-jadval. Omillar tarkibi.

Umumiy omillar	Maxsus omillar
• demografik • daromadlar • turistik mahsulot narxlar va tariflari • turizm taklifi • urbanizatsiya • bo'sh vaqt • texnik taraqqiyot va boshqalar	• oilaning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari • oilaning moliyaviy imkoniyatlari • yetarlicha axborotning mavjud emasligi va boshqalar

Manba: Xalqaro talabalar sayohatlari konfederatsiyasi (ISTC –The International Student Travel Confederation)

Yoshlar sayohatiga ta'sir etuvchi asosiy omil bu *demografik omil* hisoblanadi, bularga asosan aholi dinamikasi, shuningdek, uning tarkibi, kasb-hunari va boshqa xususiyatlari bo'yicha o'zgarishlar kiradi. Aholining o'zi turistik taklifning rivojlanishi uchun asosiy manba bo'lishi mumkin, ammo hozirgi turistik takliflarning zamonning tezkor rivojlanishiga javobi hatto iqtisodiy rivojlangan hududlarda ham sekin deb qaraladi, chunki bunday rivojlanishga tezkor javob uchun muntazam ravishda o'rganish va mos turistik taklif shakllantirish uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi.

Yoshlar dunyo aholisining 30-35 foizini tashkil qiladi va bu qatlamda bo'sh vaqt ko'proq, turistik sayyohlarning katta qismini tashkil qiladi. Ushbu segment ajdodlaridan ko'ra erta yoshlaridan sayohat qilishni juda xohlaydigan yoshlardan iborat. Bundan tashqari, ular guruhlarda yoki yakka tartibda sayohat qilishlari mumkin, shuningdek, boshqalarga tanish bo'lmagan yoki kamroq ma'lum joylarni kashf qilishda yordam berishlari mumkin (Richards, Greg 2007).

Yoshlarning *daromadlari* turizmga bo'lgan asosiy talab bo'lib, daromadlarning o'sishi turizm xarajatlarining oshishiga olib keladi. Aholi daromadlari oshishi mamlakatning moliyaviy va ijtimoiy o'sish darajasini hamda bilvosita tarzda turizm imkoniyatlarining ham oshishini ko'rsatadi. Shunday qilib, aholi daromadlarining o'sishi moliyaviy o'sish natijasi sifatida qaraladi, eng muhimi, yalpi ichki mahsulot mintaqadagi turizm salohiyati bilan birga aholi iste'moliga bevosita ta'sir qiladi. Yosh avlod sayohatga, yangi joylarni boshdan kechirishga, yangi sarguzashtlarga jalb qilinganligi sababli, moliyaviy ahvoli cheklangan bo'lsa ham, ularning budjet darajasi ularning yashash muddati, masofa, tanlangan xizmat, tashkiliy yoki uyushmagan bo'yicha tanloviga ta'sir qilishi mumkin. Muayyan vaqt davomida pulni tejash natijasida ushbu kam budjetdan kelib chiqib, xarajatlarni ikir-jikir hisoblagan holda o'z sayohatlarini tartibga soladilar. Ular oldindan jamg'arishni boshlaydilar, garchi ular odatda o'z ta'tillarida uzoq sayohatlarga chiqishsa ham, ular boshqa turdagi turistlarga qaraganda kamroq pul sarflashadi, chunki ular eng arzon yotoqxonaga murojaat qilishadi, manzilga borish uchun eng arzon transport usullarini qidiradilar. Qolaversa, ular qaysidir ma'noda o'z budjetlarini o'z oilalari yoki qarindoshlaridan qarz olish orqali to'ldirishlari mumkin, bu esa sayohatchi yoshlar daromadining yana bir xususiyatidir.

Narxlar va tariflar – transport, turar joy, oziq-ovqat va ichimliklar, dam olish yoki ko'ngilochar kabi turizm tarkibiy qismlari orqali turizmning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan yana bir omilni ko'rsatadi. Yuqori narxlarni belgilash ko'plab sayyohlarni, ayniqsa, yoshlarni sayohat qilishdan cheklashga olib keladi. Shuningdek, o'z navbatida, past narxlar yuqori talabni, uzoq vaqt tunab qolishni imkonini beradi. Shunga qaramay, past narxning salbiy tomoni turistik xizmatlarning sifati pastligini ko'rsatishi ham mumkin. Ammo talabalar va yoshlar uchun turli xil vaucherlar va to'liq chiptalarni yaratish O'zbekistonda yosh sayohatchilar sonining ko'payishiga turtki bo'lishi mumkin.

Turistik taklif – yoshlar turizmini rivojlantirishning yana bir omilidir, ya'ni turistik muassasalarning turistik paketlari har tomonlama yosh sayohatchilarning xohish-istaklarini qondira olsa, bu yo'nalishda turistik oqimning yuqori darajasini ko'rish mumkin. Ushbu shartga

erishish uchun turoperatorlar bozorning yetuklashishi va tajribali sayohatchilar o'zlarining turistik tashuvchilarining yangi bosqichiga kirishishlari sababli yosh sayyohlar talablarini qondirish uchun yangi mahsulotlarni ishlab chiqishlari kerak. Yoshlar turizmining ahamiyatini inobatga olib, imtiyozli turpaketlarni shakllantirish O'zbekistonda ajralmas vazifalardan biridir. O'zbekistondagi asosiy to'siqlardan biri turoperatorlar tomonidan maktab o'quvchilariga dam olish kunlari sayohat qilish uchun takliflarning yo'qligidir. Shunday qilib, bozorni kerakli turlar bilan ta'minlash haqiqatan ham ushbu turdagi turizmni rivojlantirishga yordam beradi.

Bo'sh vaqt sayohatchilarning turistik joyda qolish muddatiga ta'sir qiladi. Uzoq muddatli ta'tillar, haq to'lanadigan ta'tillar, dam olish kunlari va xalqaro, milliy yoki diniy bayramlar bo'sh vaqt va sayohatga chiqish uchun sababdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, odamlarning bo'sh vaqtining qariyb 30 foizi turistik maqsadda sarflanadi, bu hozirgi vaqtda boshqa dam olish turlari, masalan, sport va uyda o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan raqobatlashadi.

Yoshlar turizmining ahamiyatini inobatga olib, imtiyozli turpaketlarni shakllantirish O'zbekistonda ajralmas vazifalardan biridir. O'zbekistondagi asosiy to'siqlardan biri turoperatorlar tomonidan maktab o'quvchilariga dam olish kunlari sayohat qilish uchun takliflarning yo'qligidir. Shunday qilib, bozorni kerakli turlar bilan ta'minlash haqiqatan ham ushbu turdagi turizmni rivojlantirishga yordam beradi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wearing, S., and Neil, J. (2001). Expanding Sustainable Tourism's Conceptualization: Ecotourism, Volunteerism and Serious Leisure. In S.F. McCool and R.N. Moisey, eds. *Tourism, Recreation and Sustainability, Linking Culture and the Environment*, pp.233-255. New York: CABI Publishing.
2. Axrorova, N. (2023). O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirish yo'llari. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 33(33).
3. Omonova, N. R., & Isokova, G. S. (2022). The significance of interactive methods in teaching in Higher Education. *Science and Education*, 3(12), 661-666.
4. Uktamovna, A. N. (2023). THE DIFFERENCES AND CHARACTERISTICS OF YOUNG TRAVELLERS. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(5).
5. Akhrorova, N. (2023). THE ROLE OF INTERNATIONAL BUSINESS IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH TOURISM AND TRAVEL. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 34(34).
6. Axrorova, N. (2021). The Conceptual Clarifications Of Youth Travel And Tourism In The Case Of Uzbekistan. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 8(8).
7. Sayfullayeva M.S. (2023). Methodology of providing a balance between environmental and economical aspects of tourism: sustainable tourism experience. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz). 120-123
8. Nilufar, O., & Hamroev, H. R. (2021, March). MEDICAL TOURISM: PROBLEMS AND POTENTIALS OF UZBEKISTAN. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 3, No. 1, pp. 34-37).
9. Zulhaimi, N., Halim, M. S. A., & Zawawi, M. M. A. (2018). The Motives of Volunteerism Involvement in the Tourism Sector. *International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences*, 8(6), 290–304.
10. Axrorova, N. (2023). THE ROLE OF GEO INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH TOURISM. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 33(33).
11. Alimovich, F. E., Habibulloeva, K. S., & Bahodirovna, D. N. (2020). Central features of halal tourism and halal food. *Academy*, (3 (54)), 43-45.
12. Sayfullayeva, M. S. (2022). Directions for the Practice of Sustainable Tourism for Ecotourism Destinations in Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(12), 98-109.

13. Omonova, N. R. K., & Djurayeva, N. B. (2021). AN OVERVIEW OF HEALTH TOURISM WITHIN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S TOURISM STRATEGY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 754-759.
14. Julie Jie Wen (2019). The Impact of Volunteer Tourism: Case Study of Meixian Team. *International Journal of Social Sciences*, Vol. VIII(1), pp. 81-94., 10.20472/SS.2019.8.1.007.
15. Akhrorova, N. U. (2022). Swot Analysis in Youth Tourism Development Strategies for Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(12), 26-33.
16. Chapman David. Director General. WYSE Travel Confederation 18 October 2016 | World Tourism Conference. New Horizons III Executive summary, Agobal study of the youth and student traveller. P. 5. 7. Global Report on The Power of Youth Travel. Affiliate members report. Volume thirteen.
17. Axrorova, N. (2023). YOUTH TOURISM AND COVID-19 PANDEMIC. *ЇЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 33(33).
18. Nilufar, O., & Hamroev, H. R. (2021, March). MEDICAL TOURISM: PROBLEMS AND POTENTIALS OF UZBEKISTAN. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 3, No. 1, pp. 34-37).
19. Sayfullayeva M.S. (2023). The efficiency of digitalization in promoting sustainable tourism in Uzbekistan. *ЇЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz). 498-503.
20. Axrorova, N. (2023). TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHDA XALQARO KREDIT MOBILIGINING ROLI. *ЇЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 33(33).

Bekzod Sherzodovich Sharipov

Ziyorat turizmi mutaxassisligi 1-kurs magistranti.

Nutfillo Salimovich Ibragimov

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası mudiri

Buxoro Davlat Universiteti

INKLYUZIV TURISTIK HUDUD TARG'IBOTIDA VEB KONTENTLARINING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada turizm xizmatlari va turistik hududlar targ'ibotida global tarmoqdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan nogironligi bor insonlar uchun inklyuziv turizm kontentini yaratish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, inklyuziv turizm kontentining turistik hududga turistlarni jalb qilish modeli taklif qilingan hamda izlanishlar natijasida muhim xulosalar chiqarilib, aniq takliflar o'rta tashlangan.

Kalit so'zlar: internet tarmog'i, inklyuziv turizm, kontent, turistik destinatsiya, potensial turist, inklyuziv kontent, inklyuziv infratuzilma

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yilning 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini jadal rivojlantirish yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida turizm salohiyatini oshirish bo'yicha yangi tizim joriy qilinishi ta'kidlandi. Viloyatlarga ularga birlashtirilgan 11 ta oliygoh bilan hamkorlikda ishlab, turizm obyektlari to'g'risidagi kontentni boyitish vazifasi yuklatildi. Jumladan, quyidagi vazifalarning ijrosi muhim ekanligi alohida qayd etib o'tildi:

— 31 ta tuman va ulardagi 143 ta turizm mahallasining tarixi, yodgorliklari va turistik obyektlari kontentini yaratish;

— ular asosida kamida 12 ta tilda turistik paketlar ishlab chiqish;

— turizm, iqtisodiyot, tarix, geografiya, servis, xorijiy tillar yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalarning kamida 2 oylik amaliyoti shu tumanlarda tashkil etish.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra dunyo aholisining 15 foizini nogironligi bor insonlar tashkil etadi. Milliarddan ziyod nogironligi bor kishilar yer yuzida istiqomat qilishini inobatga olgan holda, insonlar nogironlikning turli ko'rinishlaridan aziyat

chekishlarini nazarda tutib, barcha sohalar qatori turizm sohasida ham alohida yondashuv strategiyasini ishlab chiqish nihoyatda muhim vazifadir.

Turizmning global miqyosdagi rivojlanish jarayonlari bevosita internet tarmog'i vositasida xizmatlar hamda turistik destinatsiyalar targ'ibotini amalga oshirish orqali amalga oshirilmoqda. Biroq nogironligi bor insonlarning veb kontentlardan foydalana olish imkoniyatlari ma'lum darajada chegaralangan bo'lib, bu soha mutaassislari oldiga qator masalalarni hal etishni dolzarb masala sifatida qo'yadi. Nogironlikning barcha turlari internet resurslaridan foydalanishda to'siq bo'ladi deb hisoblash xato fikr hisoblanib, bunda ma'lum bir klassifikatsiyalarni inobatga olish maqsadga muvofiq. Biroq, veb-saytlar, turli dasturlar, serverlarga bog'lanish, umuman olganda veb kontentlarga ulanish va foydalanishning murakkabliklari ayrim nogironligi bor insonlarga katta qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Inklyuziv turistik bozor imkoniyatlari nihoyatda ulkan hisoblanib, misol uchun Amadeus kompaniyasi birgina Yevropa va AQSHga inklyuziv sayohatlarning potensialini 70 milliard dollarga baholagan. Imkoniyati cheklangan tursitlar oddiy turistlarga nisbatan 1,5 barobar ko'proq mablag' sarflaydilar va ko'pincha 3 kishidan besh nafargacha guruh bo'lib sayohatni amalga oshiradilar. 2025-yilga borib inklyuziv turizmdan ko'rilishi mumkin bo'lgan potensial daromad 88,6 milliard yevroga baholanmoqda¹. Shu raqamlarning o'zi ham turizm sohasiga nogironligi bor insonlarni jalb qilish imkoniyatlaridan darak berib turibdi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra 2023-yilning ikkinchi choragi boshida butun dunyo bo'ylab jami 5,18 milliard kishi internetdan foydalanmoqda, bu dunyo aholisining 64,6 foiziga teng demakdir. Internet foydalanuvchilari soni barqaror o'sishda davom etayotgan bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning aprelogacha bo'lgan holatda, so'nggi 12 oy ichida dunyoda internetga ulangan aholi soni qariyb 147 million foydalanuvchiga oshib, o'sish yillik 3 foizdan sal kamroqroqni tashkil etgan. Hozirgi tempda 2023-yil so'nggiga borib, dunyo aholisining 2/3 qismi internetga ulanishi prognoz qilinmoqda².

Global miqyosdagi internetga ulanish darajasining joriy ko'rsatkichlari internetga ulanmagan dunyo aholisining soni 2,85 milliard nafargacha qisqarganligini, xususan, ularning asosiy qismi Afrika, Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida istiqomat qiluvchi aholi hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Dunyo aholisining internetga ulanish miqyosini maksimal darajaga olib chiqish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar nihoyatda ko'p va ular qatorida internetga ulanish bilan bir qatorda, sifat masalasi ham oldingi pog'onaga ko'tariladi.

Internet tarmog'iga ulanish uchun 95 foiz foydalanuvchilar mobil telefonlar orqali o'zlarining hech bo'lmaganda eng minimal vaqtlarini sarflaydilar. Umumiy onlayn sarflanadigan vaqtning 65 foizi ham mobil telefonlar hissasiga to'g'ri keladi. Dunyoning rivojlangan, yirik mamlakatlarida har 10 nafar foydalanuvchidan 4 tasi noutbuk va kompyuterlardan foydalanadi. Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi turizmda mijozlarni jalb qilish uchun inklyuziv veb kontentlar yaratishning imkoniyatlari naqadar ulkan ekanligidan darak berib turibdi.

Mutaxassislar kontentni sotiladigan, ta'limiy(o'rgatadigan), informatsion va ko'ngil ochishga mo'ljallangan yo'nalishlarga ajratishadi. Har qanday ko'rinishdagi kontentning asosiy maqsadi – sotish bo'lib qolaveradi. Biron-bir shakldagi istalgan mahsulotni sotish, muallif sifatida o'z ijod mahsulini sotish, ko'p millionli auditoriyaga mo'ljallangan yangi media-resursni sotish va hokazo. Sotuv uchun mo'ljallangan matn information, ta'limiy hamda biroz ko'ngilochar ko'rinishda bo'lishi talab etiladi. Bularning barchasi qiziqarli kontentga aloqador jihatlardan sanaladi³.

Kontentlar bir nechta jihatlariga ko'ra tasniflanishi mumkin(1-jadval). Mazmunining o'ziga xosligiga ko'ra noyob hamda noyob bo'lmagan kontentlar mavjud bo'lib, noyob kontentlar oldingi mavjud resurslardan ko'chirilmagan, bir yoki bir nechta mualliflar tomonidan ishlab

¹ <https://trends.rbc.ru/trends/social/cmr/615167b89a79470e708872be>

² <https://datareportal.com/global-digital-overview>

³ <https://toplead.com.ua/ru/blog/id/chto-takoe-kontent-i-kak-on-pomogaet-privlekat-vnimanie-auditorii-k-vashemu-biznesu-161/>

chiqilgan original ma'lumotlarni taqdim etadi. Noyob bo'lmagan kontentlar esa aksincha mavjud resurslardan foydalanish orqali yaratiladi.

Demak, inklyuziv turizmga ixtisoslashgan kontentlarning yaratilishi turistik ehtiyojning o'zgaruvchanligini, sohada mavsumiylik tushunchasining mavjudligi hamda turistik oqimning nostabil harakatlanish yo'nalishlarini to'g'ri prognozlash orqali turistik destinatsiyalarga jalb qilish, yo'naltirishni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Noyob bo'lmagan, avvalgi, nisbatan eski ma'lumotlar asosida yaratiladigan kontentlar potensial mijozlar sonini kamaytirib yuborishi yoki umuman kontentning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga, pirovardida kontent orqali targ'ib qilinayotgan turistik destinatsiyalarning nufuzini tushishiga asosiy sabab bo'lishi mumkin.

1-jadval

Kontentlarning tasniflanishi¹

Mazmunining o'ziga xosligiga ko'ra	Uslubiy yo'nalishiga ko'ra	Ma'lumotlarni taqdim etish shakliga ko'ra	Kirish shakliga ko'ra
Noyob	Ilmiy asoslangan(original)	Verbal	Pullik
Noyob bo'lmagan	Ta'limiy, o'quv pragmalingsvistik	Noverbal	Bepul

Kontentlar uslubiy yo'nalishiga ko'ra ilmiy asoslangan, ta'limiy va o'quv pragmalingsvistik, ma'lumotlarni taqdim etish shakliga ko'ra verbal hamda noverbal. Shuningdek, kirish shakliga pullik va pullik bo'lmagan turlarga bo'lishimiz mumkin(1-jadval).

Kontent turlari:

matnli (sayt sahifalari uchun matnlar: asosiy, "Biz haqimizda", tez-tez so'raladigan savollar, tovarlar va xizmatlar tavsifi va boshqalar; blog maqolalari, yangiliklar, press-revizlar; sarlavha va h.k.);

grafik (rasmlar, fotosuratlar, mualliflik rasmlari; skrinshotlar; infografika; memlar va demotivatorlar);

audiokontent (podkastlar; musiqa; mijozlarning audio sharhlari);

videokontent (tovarlar va xizmatlar sharhi; vebinarlar, jonli efirlar; video ko'rsatmalar)².

Demak, inklyuziv kontent yaratishning matnli, grafik, audiokontent hamda video kontent turlari mavjud bo'lib, ularning har biri bir-biridan farqli funksiyalarni bajarishni ko'zda tutadi va ma'lum segmentga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Inklyuzivlik prinsplari asosida yaratiladigan veb kontentlar dizayni vaqtinchalik yoki doimiy jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar hamda oddiy foydalanuvchilarning o'ziga xosliklarini hamda ehtiyojlarini inobatga olgan holda yaratilishini taqozo etadi.

Inklyuzivlikning asosiy prinsplari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

tushunarlilik – interfeys hamda kontent barcha uchun, jumladan nogironligi bor insonlar uchun ham tushunarli bo'lishi lozim;

qabul qilinish – potensial foydalanuvchilarda kontendan o'zlari uchun qulay usulda foydalanish imkoniyatlari mavjud bo'lishi kerak;

boshqarish – interfeysdan imkoniyati cheklangan insonlar ham foydalana olishlari lozim;

ishonchlilik – interfeys operatsion sistemalarning va raqamli mahsulotlarning versiyalariga muvofiq kelishi shart.

Inklyuziv dizayn uchun dizaynerlar, ishlab chiquvchilar, menejerlar mas'ul hisoblanadi³.

¹ Internet ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi. Павленко Татьяна Сергеевна Понятие «Контент»: типология, виды и технология получения дидактического контента в образовательном процессе // Известия ВГПУ. 2017. №10 (123). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-kontent-tipologiya-vidy-i-tehnologiya-polucheniya-didakticheskogo-kontenta-v-obrazovatelnom-protsesse> (дата обращения: 12.06.2023)

² <https://kokoc.com/blog/chto-takoe-kontent-sajta/>

³ <https://d-element.ru/about/blog/chto-takoe-inklyuzivnyy-dizayn-i-kak-s-ego-pomoshchyu-my-rasshiraem-auditoriyu-proektov/>

Internet saytlari yoki dasturlardan foydalanishdagi asosiy to'siqlar:

Vizual – o'qish murakkab bo'lgan shrift; kontrast me'yorlariga amal qilinmaganligi; murakkab matn, noto'g'ri oraliq intervallar; strukturalanmagan sahifalar va h.k.

Eshitish – skrinriderning mavjud emasligi; yozuvlarni ovozli shaklga o'giradigan dasturlar; transkriptning mavjud emasligi – video ketma-ketlikning matnli rasshifrovkasi.

Texnik – og'ir va turli media saytlariga moslashtirilmaganlik; interfeyslarni boshqarish bilan bog'liq muammolar.

Til to'siqlari – geolokatsiya hisobga olinmaganda va sahifalarni mahalliy auditoriya tiliga tarjima qilish funksiyalari mavjud bo'lmaganda.

Yosh bilan bog'liq va ijtimoiy cheklovlar: masalan, pensionerlar va faqatgina boshlang'ich kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan insonlar uchun murakkab navigatsiya va boshqa ko'plab murakkabliklarga ega ilovalardan foydalanish qiyinligi.



1-rasm. Inklyuziv turizm kontentini yaratish bosqichlari¹

Inklyuziv turizm kontentini yaratishda eng avvalo targ'ib qilinishi ko'zda tutilgan hududning inklyuziv turistik imkoniyatlarini o'rganish lozim bo'ladi (1-rasmga qarang). O'z-o'zidan tushunarliki turistlarni jalb qilish uchun eng avvalo turistik resurs(resurslar) mavjud bo'lishi va undagi noyob jihatlar potensial mehmonlarni qiziqitira olishiga amin bo'lish muhim. Agar turistik hududning o'ziga xos imkoniyatlarini yetarli darajada o'rganmasdan turib kontent yaratishga kirishilsa natija kutilganidek bo'lmasligi ehtimoli juda yuqori bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda turistik destinatsiyalarda infratuzilmaning qay darajada rivojlanganligini tahlil qilish va xalqaro miqyosda inklyuziv turizm yo'nalishida muvaffaqiyatli natijalarga erishayotgan mamlakatlardagi inklyuziv infratuzilma holati qiyosiy tahlil qilinib, asosiy yo'nalishlar belgilab olinishi lozim. Bu eng asosiy bosqichlardan biri bo'lib, potensial turistlarning ehtiyojlari qay darajada ekanligini yaqqol aniqlab olish imkoni yuzaga keladi.

Uchinchi bosqichda yaratilayotgan kontentga o'xshash yoki aynan shu mazmundagi ma'lumotlar ichki turizm segmentiga yo'naltirilgan holda taqdim etilganligi joriy tahlil qilib chiqiladi.

To'rtinchi bosqichda xalqaro miqyosda yaratilgan ayni mazmundagi kontentlarning yo'nalishlari, yondashuvlari, yangiliklari o'rganilib, kreativ g'oyalar shakllantiriladi.

Beshinchi bosqichda yaratilayotgan kontent mazmunidagi raqobatchilar ishlab chiqayotgan mahsulotlarning umumiy analizi o'tkazilib, ustun jihatlari va kamchiliklari

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

guruhlanadi hamda maqsadli auditoriyaga mos, noyob g'oyalar asosidagi kontentning sinov versiyalari ishlab chiqiladi.

So'nggi bosqichda bir yoki bir nechta sinov versiyalar tahlil qilinib, eng optimal variantdagi ko'rinishga keltirilgan versiya tayyor kontentga aylantiriladi hamda tarmoqqa joylashtiriladi.



2-rasm. Inklyuziv turistik kontentning samaradorlik jarayoni¹

Xalqaro miqyosda internet tarmog'i ma'lum standartlar asosida tartibga solinadi. Chunonchi, W3C konsorsiumi veb-ixtirochi Tim Berners-Li tomonidan MIT kompyuter fanlari laboratoriyasida CERN ishtirokida AQSh Mudofaa vazirligi DARPA agentligi va Yevropa komissiyasi ko'magida tashkil etilgan. Konsorsium veb-saytlar va onlayn xizmatlar uchun standartlarni ishlab chiqadi. Masalan, WCAG (Web Content Accessibility Guidelines) 2.0, xalqaro standartlar - ISO: ISO / IEC 40500 tomonidan tan olingan.

WCAG Accessibility Guide to'rtta asosiy toifadan iborat bo'lib, nogironligi bor insonlar boshqa foydalanuvchilar kabi teng ravishda xizmatlardan foydalanishlari uchun saytlarga mo'ljallangan standartlar va talablarni batafsil bayon qiladi. Ushbu tavsiyalarga rioya qilish orqali nafaqat barcha uchun qulaylik yaratish, balki foydalanuvchilar auditoriyasini ham kengaytirish mumkin bo'ladi².

1995 yil aprel oyida INRIA (Institute National de Recherche et en Automatique) frantsuz kompyuter fanlari va avtomatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti W3C faoliyati uchun Yevropa tayanch markaziga aylandi. 1996 yilda Yaponiyaning Keio universiteti Shonan Fujisava xuddi shu funksiyalarni o'z zimmasiga oldi. W3C konsorsiumi HTTP, HTML, URL, XML kabi WWW texnologiyalari uchun standartlarni ishlab chiqish va rivojlantirishga ixtisoslashgan. Xususan, konsorsiumning uzoq muddatli maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Insonlarning madaniyati, bilimi, qobiliyati, moddiy imkoniyatlaridagi tafovutlarni hisobga olgan holda, shuningdek, ularning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, har bir foydalanuvchiga butunjahon internet texnologiyalari va resurslaridan universal foydalanishini (Universal Access) ta'minlash.

2. Web dasturiy ta'minotini ishlab chiqish (Semantic Web).


3. Bugungi axborot jamiyatining huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun axborotni himoya qilish va shaxsiy daxlsizlikning zarur darajasini ta'minlovchi infratuzilmani (ishonchni) yaratish (Web of Trust)³.

Insonlarning turli ko'rinishdagi tafovutlardan qat'iy nazar internet resurslaridan birdek foydalanishlarini ta'minlashni eng ustuvor maqsadlar qatorida ekanligi kelajakda imkoniyati cheklangan insonlarning internet resurslaridan foydalanishlaridagi qulayliklar yanada ijobiy tomonga o'zgarishini prognozlash imkonini beradi. Bu esa turizm sohasida inklyuziv kontentlar yaratish zarurati aktual ekanligining tasdiqlab turibdi.

¹ Muallif ishlanmasi

² <https://turumburum.ua/blog/proverka-dostupnosti-sayta-dlya-lyudey-s-ogranichennymi-vozmozhnostyami-w3c-standarty/>

³ Сухомлин Владимир Александрович СИСТЕМА МЕЖДУНАРОДНОЙ СТАНДАРТИЗАЦИИ В ОБЛАСТИ ИТ, ЕЕ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ ИНДУСТРИИ И ПРИНЦИПЫ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ // Современные информационные технологии и ИТ-образование. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sistema-mezhdunarodnoy-standartizatsii-v-oblasti-it-ee-rol-v-razvitii-informatsionnoy-industrii-i-printsipy-funktsionirovaniya> (дата обращения: 13.06.2023).



1-chizma. Inklyuziv turizm kontentining turistik hududga turistlarni jalb qilish modeli¹.

Sifatli inklyuziv turizm kontentini yaratish avvalo kontent rejasini ishlab chiqish texnologiyalarini qo'llash vositasida amalga oshiriladi. Maqsadli auditoriyaning ehtiyojlar ko'lami hamda inklyuziv turizm bozorida taklif qilinayotgan xizmatlarning joriy holatiga kontent grafik rejasini ishlab chiqish jarayoni muvofiqlashtirib borilishi lozim bo'ladi. Kontent grafik rejasini veb foydalanuvchilarning tarmoqda sarflaydigan vaqtini inobatga olgan holda kontentni ishlab chiquvchi soha mutaxassislar tomonidan ma'lum bir mahsulot tayyor shaklga keltirilgunga qadar bo'lgan muddatni chamalagan holda ishlab chiqiladi.

Ayrim portallarda kontentlarning qat'iy chegaralangan kvotasi ajratilgan bo'lib, tarmoqqa joylanadigan kontentlar miqdori ushbu ko'rsatkichlardan oshib ketishi umuman mumkin emas. Agar me'yoriy ko'rsatkichlar buzilsa yaratilayotgan mahsulotning sifati maqsadli auditoriya(bizning holatimizda inklyuziv turistlar) talablari darajasiga muvofiq kelmaydi va bu raqobatchilarga qo'l kelgani holda mavjud hamda potensial mijozlarning minimumgacha qisqarishiga olib kelishi ehtimoli yuzaga keladi.

Biroq, kontent kvotasi qat'iy chegaralanmagan portallarda mutaxassislarga nisbatan erkin faoliyat yuritish imkoniyati yaratiladi. Shuni unutmashlik lozimki ushbu platformalar ta'sischi marketing rejasini puxta o'ylab ishlab chiqadilar hamda yaratilayotgan kontentning sifat nuqtai nazaridan eng yuqori talablar asosida shakllantirilishini yo'lga qo'yadilar.

Turistik hududning inklyuziv turistik imkoniyatlarini namoyish etuvchi kontent kreativ yondashuv asosida vujudga keladigan noyob g'oya asosida vujudga keladi(1-chizma qarang). Noyob g'oya maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan bo'lib, shu asnoda inklyuziv turizm kontentining original varianti ishlab chiqiladi. Kontentning qiziqarli bo'lishi hududga turistlar tashrifini ta'minlaydi hamda ularga ko'rsatiladigan sifatli inklyuziv turistik xizmatlar ijobiy taasurol yuzaga keltirishi natijasida turistik hududga takroriy tashriflar yoki boshqa turistlarning oqimi shakllanish jarayoni yuz beradi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi umumiy xulosaga keldik:

1. Inklyuziv kontentlar matnli, grafik, audio va video shakllarda yaratilishi mumkin;
2. Inklyuziv turizm kontentini yaratish jarayoni 6 bosqichdan iborat aniq, tizimli ketma-ketlikda ishlab chiqiladi hamda eng so'nggi bosqichda tarmoqqa joylashtiriladi;
Ikkinchidan, kompaniyaning faoliyat yo'nalishi asosida Internet-loyihani tashkil qilish kerak. Sayyohlik agentligi veb-sayti, qoida tariqasida, butunlay boshqa vazifalarni qo'yadi. Sayyohlik agentligi veb-saytida nafaqat tegishli ma'lumotlarni joylashtirish, balki uni turli xil saytlardan mijoz siznikini tanlab, sizga qo'ng'iroq qilishi uchun taqdim etish ham muhimdir. Vaucherni qidirish uchun Internetga murojaat qilganda, mijoz elektron shaklda taqdim etilgan "turizm va dam olish" satrlaridan ko'proq narsani kutmoqda. Bunday chiziqlar sayyohlik portallarida yaxshi, bu sayohatni qidirishning boshlang'ich nuqtasi. Sayyohlik portalidan sayyohlik agentligi veb-saytiga o'tib, mijoz batafsil va tegishli ma'lumotlarni olish huquqiga ega. Mijozni ko'plab mamlakatshunoslik ma'lumotlari bilan to'ldirishning ma'nosi yo'q. Mijoz ushbu ma'lumotlarni boshqa saytlardan ham olishi mumkin. Sayohat agentligi sahifasida birinchi navbatda aniq takliflar haqida ma'lumot kerak;

Saytni to'g'ri ishlab chiqish yo'lida boy grafikalar, ovoz effektlari, Java dasturlari va animatsiyalarga haddan tashqari berilib ketmaslik kerak. Kompaniyaning veb — sayti veb-texnologiyalar ustida tajriba o'tkazish vositasi emas, balki marketing vositasidir. Ba'zan yuklash uchun ko'p vaqt talab qiladigan imkoniyatlarni namoyish qilish uchun korporativ saytdan foydalanishning hojati yo'q (Podlipalina N., 2003).

NATIJALAR

Turoperator uchun o'z agentlarini qiziqtirgan ma'lumotlarni joylashtirish mantiqiy bo'ladi: charter jadvali va uning o'zgarishi, reyslar va mehmonxonalarni yuklash, mijozni agent sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan namunaviy hujjatlar, o'zaro hisob-kitoblar tartibi, agentlarning manzillari va telefonlari va boshqalar., mehmonxonalar, yo'lda foydali maslahatlar. Keyin unga bir marta kelgan potentsial mijozlar yana qaytib kelishni xohlashadi yoki boshqalarga

uni ko'rishni maslahat berishadi. Shunday qilib, kompaniya yangi mijozlar yoki hatto sheriklarni topishi mumkin.

Turistik portallarni reklama beruvchilar — turoperatorlar va sayyohlik agentliklari xizmatlarini sotishga ko'maklashish uchun mo'ljallangan onlayn reklama maydonchalari deb hisoblash mumkin. Portallarning daromad manbai bannerli reklama va sayyohlik agentliklari va ularning takliflari to'g'risidagi ma'lumotlarni pullik joylashtirish, shuningdek serverdan buyurtma berish faktlari uchun sayyohlik agentligidan olingan komissiyalar bo'lishi mumkin.

Saytdan foydalanishning quyidagi xususiyatlari va afzalliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- * maqsadli auditoriya bilan yo'naltirilgan ish;
- * tinglovchilarning ma'lumot olishga bo'lgan dastlabki qiziqishini yaratish;
- * batafsil ma'lumot;
- * ma'lumotlarga cheksiz vaqt kirish;
- * axborotning dolzarbligi va samaradorligini ta'minlash;
- * auditoriya bilan interaktiv muloqot, fikr-mulohazalar;
- * statistikasi saqlash va tahlil qilish;
- * so'rovlar va tadqiqotlar o'tkazish.

Internet texnologiyalaridan, ya'ni veb-saytdan foydalanish usullarini ishlab chiqishda, uni Yaratgandan so'ng, iloji bo'lsa, ushbu manbaga hamroh bo'lish va yangilash kerakligini unutmang. Agar kompaniya haqiqatan ham tarmoqni marketing vositasi sifatida ishlatmoqchi bo'lsa, unda u u bilan shug'ullanishi, yangilarini tayyorlashi va mavjud materiallarning dolzarbligini tahlil qilishi, shuningdek qiziqish omilini nazorat qilishi kerak. Eng muvaffaqiyatsiz loyihalarni, masalan, bir yil oldin, ularning rivojlanishida muzlatilgan saytlar deb atash mumkin. Professional bo'lmagan, yoqimsiz va ma'lumotsiz sayt kompaniya haqida tegishli taassurot qoldiradi. Bu taqdirdan qochish kerak. Agar shtatda mutaxassislar bo'lmasa, unda siz mutaxassislarning xizmatlariga murojaat qilishingiz kerak. Onlayn resurslardan foydalanish strategiyasini ishlab chiqish bosqichida kompaniya saytni saqlash imkoniyatlarini hisoblashi kerak. Agar bu kompaniya uchun qimmatga tushsa, unda salbiy oqibatlarga yo'l qo'ymaslik uchun internetda marketing siyosatini amalga oshirish qiyin.

Pandemiya turizm sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirish va operatsion samaradorlikni, samaradorlikni, rentabellikni va birinchi navbatda sektorning barqarorligini oshirish uchun zarur islohotlar va o'zgarishlarni boshlash imkoniyatini berdi. Buxoro viloyatidagi tumanlar va shaharda sayyohlik idoralari ushbu imkoniyatdan yangi siyosat va tamoyillarni qo'llash, shuningdek, sektorning o'sishi va modernizatsiyasi uchun juda zarur rag'batlarni ta'minlash uchun foydalanishlari mumkin.

Pandemiya tufayli tashrif buyuruvchilarni ularning xavfsizligi va farovonligiga ishonitirish zarurati hech qachon hozirgi kabi keskin bo'lmagan – hatto juda muhim. Safarning barcha bosqichlarida xavfsizlikka etarlicha ishonch bo'lmasa, tashrif buyuruvchi shunchaki sayohat qilmaydi. TsARES instituti tadqiqotida aytib o'tilgan texnologiyalar va tavsiyalar odamlarning o'zaro ta'sirini minimallashtirish va xavfsiz va toza turizmni rivojlantirishdagi roli bilan bog'liq.

Pandemiyaning turizm sohasiga ta'sirini hisobga olgan holda, mintaqadagi siyosatchilar mintaqadagi ta'sirni minimallashtirish uchun yumshatish strategiyalarini aniqlashlari va qabul qilishlari kerak. Yangi texnologiyalar pandemiyaning iste'molchilarning ishonchi va ishonchiga ta'sirini yumshatish hamda mintaqadagi qisqa va o'rta muddatli stsenariylarda xavfsiz sayyohlik yo'nalishlarini targ'ib qilish uchun katta salohiyatga ega.

Bundan tashqari, davlatlararo darajada chegara, bojxona va migratsiya nazorati qoidalarini soddalashtirish kabi masalalarni hal qilish zarur; yagona mintaqaviy vizani joriy etish; transport va axborot kommunikatsiyalarini rivojlantirish; turistik xizmatlarning yagona standartlarini joriy etish; kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning yagona tizimini yo'lga qo'yish; turizm sohasida statistik ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash usullarini muvofiqlashtirish. (kun.uz, 2021)

XULOSA

Portallarda siz maxsus ishlab chiqilgan shakl (feedback) orqali sayohatni bron qilishingiz yoki tegishli taklif haqidagi ma'lumotlarni elektron pochta orqali buyurtma qilishingiz mumkin. Odatda, bunday takliflar sotuvchi kompaniya, kurort, mehmonxona toifasi, transport turi, ekskursiyadagi qo'shimcha xizmatlar, minimal yoki maksimal narx va boshqalarni ko'rsatadigan chiziqlar shaklida ko'rinadi. Ba'zi manbalar onlayn sayohatga buyurtma berish mexanizmini, narxlar ro'yxatini yoki tur dasturlarini kiritish, batafsil sharhlar yozish va hokazolarni taklif qiladi. bundan tashqari, bu holda reklama beruvchilar uchun o'z sahifalari internetda bo'lishi shart emas, lekin elektron pochta yoki telefoningizni ko'rsatish kifoya.

Veb-sayt quyidagilar bo'lishi kerak: 99% auditoriya uchun o'qilishi mumkin; 95% auditoriya uchun jozibali; 80% auditoriya haqida taassurot qoldirish; 30% auditoriyani hayratda qoldirish (Rashidov, 2018).

Bugungi kunda tobora ko'proq sayyohlik kompaniyalari o'zlarining kundalik faoliyatida Internet imkoniyatlaridan foydalanmoqdalar. Ammo mijozlarni jalb qilish manbai sifatida Internet hali jiddiy qabul qilinmagan, garchi ularning internetdagi reklamalari juda yaxshi ishlaydi deb ayta oladigan sayyohlik agentliklari mavjud.

Internet sayyohlik korxonalariga yangi texnologiyalar bilan tanishish, mijozlar bilan ishlashning yangi shakllarini ochish, biznes sheriklari bilan doimiy aloqada bo'lish imkoniyatini, shuningdek turli xil axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Turizm sohasida Internet texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish nafaqat alohida sayyohlik korxonalari uchun, balki Buxoroda turizm sanoatining rivojlanishiga ham ta'sir qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xalqaro turizm: darslik / A. Y. Aleksandrov. M.: Knorus, 2016 y. 460 b.
2. Andreeva, O. D. biznes texnologiyasi: marketing. Darslik / O. D. Andreeva. - M.: Ish, 2012 Yil. 223 s.
3. Izotova, M. A. ijtimoiy-madaniy xizmat va turizmdagi innovatsiyalar / M. A. Izotova, yu. A. Matyuxina. M.: ilmiy kitob, 2006. 136 s.
4. Karloff, B. biznes strategiyasi: tushunchasi, mazmuni, ramzlari / B. Karloff. M., 2004 yil. 154 s.
5. Kono, T. Yaponiya korxonalarining strategiyasi va tuzilishi: trans. ingliz tilidan. / T. Kono. M., 2004 yil. 210 s.
6. Kostin K. B. Rossiyaning turistik va mehmonxona biznesini rivojlantirish muammolari va ularni hal qilish yo'llari // Izvestiya Spbuef. 2013. No 4 (82) C. 61–67.
7. Kostin K. B. Marketingdan mehmonxona tarmoqlarini boshqarishda samarali rivojlanish vositasi sifatida foydalanish. Qarang:: Spbgieu, 2012 yil. 111 s.
8. Morozov, M. A. Ijtimoiy-madaniy xizmat va turizmda axborot texnologiyalari / M. A. Morozov. - M.: Akademiya, 2004 Yil. -217 b.
9. Polyanchkin, yu. a. Korxonalarining raqobatbardoshligini baholash usullari / yu. A. Polyanchkin. – 2012. – No3. 191-194 betlar.
10. Strauss J., El-Ansary A., Frost R. E-marketing. Uchinchi nashr.. "Prentice Hall" Nashriyoti, 2003. 578 b.
11. UNWTO: 2016 yil sayyohlar soni bo'yicha rekord yil bo'ldi, 2017 yilda yana o'sish kutilmoqda [elektron resurs] // <http://www.tourprom.ru/news/34796/>
12. Yagona turistik axborot tizimi [elektron resurs]. — <http://www.etis.ru>.
13. Podlipalina N. Kompaniyangiz xizmatida onlayn aloqa. Chat marketing, reklama va PR vositasi sifatida // onlayn marketing. — 2003. — № 4 (16). 11-21-betlar.
14. Kun.uz. [elektron resurs] Markaziy Osiyo turizm sektoridagi texnologiyalar: Postkovid tiklanish va uzoq davom etgan inqirozdan chiqish yo'llari

O'ZBEKISTON TURIZM SALOHİYATI IQTISODIYOTNING ERTASI

Annotatsiya : Ushbu maqolada turizm bo'yicha muhim ma'lumotlar va tavsiyalar berishga harakat qilindi. O'zbekistonni rivojlantirishda turizm sohasining tutgan o'rnini, shu jumladan, rivojlantirish mumkin bo'lgan sohalar uchun takliflar ko'rsatib o'tildi.

Kalit so'zlar : turizm, sayyohlik, agroturizm, fermer xo'jaliklari, turistik firma, qishloq xo'jaligi, etnik turizm, ekoturizm, mehmonxonalar.

Kirish :

Turizm- bu sayr qilish, sayohat qilish, faol dam olish turlaridan biridir. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat qiladigan joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki turli boshqa maqsadlarda borilgan joyda yoki mamlakatda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi yoki sayohat qilishi tushuniladi. Turizmning yangicha rivojlanayotgan sohalaridan biri bu-agroturizmdir.

Agroturizm-ferma yoki dalaga tashrif buyuruvchilarni olib keladigan qishloq xo'jaligiga asoslangan har qanday operatsiya yoki faoliyat turini o'z ichiga oladi.

Journal of Agriculture, Food Systems, and Community Development jurnalida 2018-yilda chop etilgan maqolada agroturizm faoliyati bir yoki bir nechta toifalarga bo'lingan : to'g'ridan-to'g'ri iste'molchiga sotish (masalan, fermer xo'jaliklari), qishloq xo'jaligi ta'limi, mehmondo'stlik (fermada tunash), dam olish va o'yin-kulgu kabi turlarga ajratilgan. Aksariyat agroturistlar fermer xo'jaliklarida meva-sabzavot terish yoki hayvonlarni boqish uchun vaqt o'tkazadilar. Boshqalari esa makkajo'xori labirintida sayr qilishlari, yoki fermada yashashlari, qishloq xo'jaligi, chorvachilik ishlarida ishtirok etishlari mumkin. ¹

Bugungi kunga kelib qishloq xo'jaligi turizmi deyarli barcha fermer xo'jaliklarining yashashi uchun eng muhim zarur vositaga aylanmoqda.

Ushbu soha turli biznes operatsiyalarini diversifikatsiya qilish orqali fermer xo'jaliklari operatorlari yanada barqaror daromadni ta'minlashga qodir hisoblanadi.

1985-yildan boshlab Italiyada agroturizm rasmiy ravishda davlat qonuni bilan tartibga solingan. 2006-2013-yillar mobaynida ushbu qonunlarga o'zgartirishlar kiritilgan.

Respublikamizda "qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi"da qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga va tarixiy o'zgarishlar qilishga alohida e'tibor qaratilgan hisoblanadi. Ushbu strategiyada ko'p tarmoqli fermer va dehqon xo'jaliklariga ko'plab shart-sharoitlar yaratish belgilanib olingan.

Ushbu islohotlardan kelib chiqqan holda, mamlakatimizning barcha hududlarida o'zining imkoniyatlarini aniqlab olib aniq mexanizmlarini ishlab chiqib yanada takomillashtirilishi bugungi kunning asosiy zarurati deb o'ylaymiz.

Tahlil va natijalar:

So'ngi yillardagi O'zbekistonning turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlarga to'xtaladigan bo'lsak. Yaqin kelajakda turizm milliy iqtisodiyotimizning "o'sish nuqtalari"dan biriga aylanadi desak bejiz emas. U turizmga aloqador boshqa tarmoqlarni rivojlantiruvchi drayver bo'lib xizmat qiladi, yuqori multiplikativ ta'siri bilan daromadlarning ortishiga xizmat qiladi. Turizm O'zbekiston sharoitida yangi ish o'rinlarini tashkil etishda eng muhim omillardan hisoblanadi.

O'zbekistonda turizm sohasining jadal tiklanishida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ayni vaqtda mamlakatimiz chet el sayyohlari va sayohatlari butunlay ochiq. Barcha sayohat cheklovlari olib tashlandi. Pandemiya keyin ichki turizmni tiklash va aholining tizimli

¹ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/qishloq>

sayohatlarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tahlillarga ko'ra bugungi kunga kelib turizm sohasiga 0,31 % mutaxassislar yetishmasligi aniqlandi.


So'ngi uch yil Ichida mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni 2,5 baravarga ortdi. (1-rasm)



1-rasm. So'ngi yillarda mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni.

Turizmni rivojlantirish uchun so'ngi yillarda amalga oshirilgan sa'y harakatlar natijasi o'laroq yuqorida ta'kidlaganimizdek turistlar soni 2,5 barobarga oshdi. Ushbu ko'rsatkich 2017-yilda 2,7millionni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich eng yuqori cho'qqiga ya'ni 6,7millionga yetganini ko'rishimiz mumkin. 2020-2021-yillarda pandemiya tufayli 1,5 million va 1,9 million sayyoh kelgan. Lekin 2022-yilda bu ko'rsatkich ancha yuqoriladi (1-rasmga qarang).¹

Mahalliy aholimizningham turizmga bo'lgan qiziqishi juda yuqori hisoblanadi. Ichki turizm ko'rsatkichlaridam so'ngi yillarda yuqori hisoblanadi. (2-rasm.).



2-rasm. So'ngi yillardagi mahalliy sayyohlar ko'rsatkichlari.

¹ MHTI-makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti

Turizm xizmatlari eksporti 2020-yilda 370 million AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 15,1%ga oshib, 422,1 million AQSH dollariga yetdi. 2022-yilda ushbu ko'rsatkich sezilarli darajada oshdi.

Respublikamizda bugungi kunga kelib 1442,0 taga yaqin mehmonxonalar faoliyat yuritmoqda. Bu esa, 2017-yilga nisbatan 1,5 barobarga ko'p degani.

Mehmonxonalardagi turar joy binolaridagi o'rinlar soni 2017-yilda 39,8 2018-yilda 41,1 2019-yilda 52,5 mingga tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ushbu ko'rsatkich 71,2mingga yetdi. Turar joy binolaridagi xonalar soni esa, 2017-yilda 18,6, 2018-yilda 20,2, 2019-yilda 26,1 mingga tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ushbu ko'rsatkich 32,8 mingga yetdi.

Eng ko'p sayyoh tashrif buyuruvchi viloyatlar orasida Buxoro yetakchi hisoblanadi so'ngi uch yilda ushbu viloyatga 2,7 millionga yaqin sayyoh turistik maqsadda tashrif buyurgan.

Xulosa va takliflar:

Turizm sohasida agroturizmni joriy qilish uchun bir necha asosiy sabablar mavjud.

1. Mamlakatimizning 51% qismi shaharlarda 49% qismi qishloq hududlarida yashaydilar. Ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligining bor imkoniyatlaridan to'liqligicha foydalanilmayabdi. Chunki qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi korxonalar faoliyatini yanada diversifikatsiya qilishning ahamiyati yuqori. Ularning imkoniyatlarini oshirgan holda turli qishloq xo'jaligi xizmatlarini ko'rsatish va taklif etish mumkin.

2. Dunyoning deyarli barcha qismidagi aholilarning agroturizmga bo'lgan qiziqishi juda yuqori. Mahalliy qishloq xo'jaligi korxonalarida yetishtirilgan mahsulotlar va xizmatlarni ularga taklif etish mumkin.

3. Mamlakatimizning turli hududlarida joylashgan oliy ta'lim tashkilotlarida, akademik litseylarida turizm va qishloq xo'jaligi sohasi mutaxassislari mavjud. Ularning bevosita hamkorlashuvi natijasida agroturizm uchun zarur mutaxassislar tayyorlash jarayonida foydalanish muhimdir.¹

4. Ko'plab qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar hamda turistik firmalar agroturizmni tashkil etish uchun bir necha asosga ega bo'luvchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha malakalarga va infratuzilma obyektlariga ega hisoblanadi. Ya'ni turizm sohasidagi (xizmat ko'rsatish tajribasi, mehmonxonalar) qishloq xo'jaligi korxonalarida (ishlab chiqarish amaliyoti, dala shiypolari) kabi infratuzilma obyektlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Agroturizm bir vaqtning o'zida turizmning bir necha sohasini o'z ichiga qamrab oladi: ekoturizm, ekskursiya, etnoturizm, ta'lim turizmi, tibbiy turizm, ziyorat turizmi, agrar soha, tastronoturizm. Agroturizm boshqa turizm turlaridan farqli tarafi shundaki u bir vaqtning o'zida bir nech sohani qamrab oladi. Bu sohalarning integratsiyaga kirishish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda agroturizmni bir necha bosqichlarda amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

6. Fermer xo'jaliklari egasi turli uylar va chodirlar qurib tashkil etish mumkin. Ovqatlanishni tashkil etish.

7. Agroturistik majmualarni yaratish kerak, ya'ni jahon standartlariga javob beruvchi yuqori sifatli dam olish joylari, turli darajadagi chiroyli ko'rinishdagi dekoratsiyalar bilan bezatish, o'quv-malaka oshirish uchun maxsus xonalar bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunda xizmat bir necha yuz kishiga bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi.

8. Fermer xo'jaliklarida sayyohlarning talablaridan kelib chiqqan holda ular shu joyda meva-sabzavot yig'ish terish jarayonlarida ishtirok etishlari, qishloq xo'jaligida boqiladigan hayvonlarni parvarishlash jarayonida ishtirok etishlari mumkin.

Xulosa o'rnida mamlakatimiz qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarning moddiy-texnik bazasini o'rganib, mavjud muammolarni bartaraf etish dolzarb vazifadir. Agroturizm uchun qonunlar ishlab chiqish uning qonuniyligini ta'minlash va huquqiy bazasini ta'minlash, agroturistik bozordagi xizmatlar narxini o'rganish va uni baholash lozim.

¹ Agroturizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. H.R.Turobova. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar elektron jumali. №6 noyabr-dekabr 2019-yil

Agroturizmni rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligida yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi. Lekin agroturizm uchun yetuk mutaxassislarning yetishmasligi va bu sohaning mavsumiyligi atrof-muhitga sal'biy ta'sir ko'rsatishi, o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Bu kamchiliklarni inobatga olib muammolar to'g'ri bartaraf etilsa, iqtisodiyotimiz rivojlanishining o'sish sur'atlari yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi.
2. Agroturizmni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. H.R.Turobova. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar electron jurnali. №6 noyabr-dekabr 2019-yil
3. Hulkar Turobova Murodjon Eshbekov (2023). "Development of Entrepreneurial skills of farmers" Journal of Advanced Research and Scientific Progress. Volume:02.Issue 04
4. Hulkar Turobova "Биоэкономика возможности рационального использования сельскохозяйственных площадей бухарской области" (buxdu.uz)8.8(2021).
5. Turobova.H, Turayev.M The ways of development family business in the rural// International scientific review 2016. №2
6. Turobova.H, Kodirov.A The ways increase the export potensial of the farms//International Journal of Innovative Technologies in Economy. 4(6) December 2016.
7. H.R. Turobova, M.U. Eshbekov Qishloq xo'jaligi chiqindilarini qayta ishlashni rivojlantirishni ahamiyati. ИККИНЧИ ХАЛҚАРО БИОИҚТИСОДИЁТ ФОРУМИ ТЎПЛАМИ. Т-2023

Эргашева Азиза Фармоновна
Аспирант

Бухарский государственный университет

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ПРИВИЛЕГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ РЕМЕСЕЛ

Ремесленной деятельность — неотъемлемая часть отечественной культуры. В них многовековой опыт эстетического восприятия мира, обращенный в будущее, сохранены глубокие художественные традиции, отражающие самобытность культур Республики Узбекистан.

Сегодня туристов, приезжающих в страну, можно привлечь не только природным ландшафтом и инфраструктурой страны, но и повышением их интереса к образу жизни и хозяйственной деятельности населения страны. В связи с этим государство реализует ряд мер по поддержке деятельности ремесленников в целях развития ремесленной отрасли в нашей стране.

12 июня 2023 года принят Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по привлечению населения к ремеслам и созданию благоприятных условий для развития ремесленной деятельности». Согласно указу, до 1 января 2025 года для мастеров-ремесленников, включенных в «Национальный каталог мастеров прикладного народного творчества» и «Реестр мастеров, работающих в сфере туризма»: 100% дохода от реализации изделий кустарного промысла. товаров (работ, услуг) в течение календарного года ставка налога с оборота будет снижена на 50% на сумму, превышающую один миллион сумов, но не превышающую 1 миллиард сумов, а государственная регистрация товарных знаков будет осуществляться бесплатно.

В 2023 году не менее 70 процентов средств, направляемых на развитие домоводства и ремесел в рамках программ развития семейного бизнеса, будет направлено на финансирование проектов развития ремесел.

Фонд поддержки подворий переименован в Фонд поддержки ремесел и подворий, и с 15 июня 2023 года за счет средств Фонда будут осуществляться меры финансовой поддержки ремесел.

Ниже приводится перечень субсидий, выделяемых на поддержку ремесленной деятельности из Фонда поддержки ремесел и домашних хозяйств:

➤ 50 % международных почтовых и курьерских расходов при экспорте изделий кустарного промысла, но не более 50 % экспортной стоимости изделия (без учета стоимости доставки);

➤ будет введен порядок сдачи в аренду объектов недвижимого имущества материального культурного наследия, находящихся в государственной собственности, для занятия ремесленной деятельностью только ремесленникам, включенным в Национальный каталог и реестр, посредством электронного интернет-аукциона.

➤ До 1 марта 2024 года на территории, прилегающей к парку «Новый Узбекистан», на земельном участке площадью 0,3 га будут построены выставочный зал, школа «Мастер-ученик» и мастерская для сдачи в аренду.

Статистика мастеров, работающих в Узбекистане, такова:

1. Количество членов профсоюза, зарегистрированных в системе 82481 члены ассоциации;
2. Общее количество членов ассоциации в системе 28618 члены ассоциации;
3. Общее количество ремесленников, работающих в сфере туризма 1101 члены ассоциации.

Известно, что в нашей стране издавна развивались ремесла, создание различных уникальных предметов, изготовление техники, которая используется в быту, тем самым, приносящее своим трудом пользу людям, было возведено в ранг ценности. На сегодняшний день направления товаров и товаров (работ, услуг), производимых ремесленниками в Узбекистане, увеличились с 25 до 34. В настоящее время они производят продукцию для внутреннего и внешнего рынков. Эти продукты также важны своим качеством, художественным совершенством, натуральностью и тем, что они сочетают в себе нашу национальную самобытность и исторические традиции.

Для усиления место ремесел на рынке мы предлагаем следующие новые услуги для рынка:

✚ В стране должны быть организованы ремесленные стипендии и международные программы, привлекающие ремесленников;

✚ У Узбекистана должны быть хорошие международные отношения с другими странами, ведь если будет происходить должный обмен культурой и традициями одной страны с другой страной, то экспорт ремесленной продукции будет доступен и в эти страны. В некоторых странах необходимо установить традицию экспортно-импортной политики, проводить мягкую политику в отношении кустарной промышленности;

✚ ремесла должны быть включены в школьную программу, как отдельные предметы, и должны быть включены в школьное образование как предмет;

✚ путем организации онлайн-курсов ремесел, чтобы заинтересовать население и побудить его приобрести профессию;

✚ Они должны ежедневно публиковать продукцию местной ремесленной промышленности в газетах, СМИ и социальных сетях;

✚ Система лицензирования в отрасли должна быть полностью устранена, эти продукты должны поощрять развитие сертификации вместо системы лицензирования;

✚ Для стимулирования экспорта должны быть соответствующие условия для импортеров и экспортеров: (а) любой экспортер продукции продает 20% изделий кустарного промысла в другой стране; и (б) любой импортер должен импортировать не менее 24 процентов узбекских изделий кустарного промысла для развития сотрудничества;

✚ Создание ремесленных деревень и ремесленных университетов, привлечение на места высокообразованных, высококвалифицированных кадров.

Как видно из приведенной информации, ремесленники нуждаются во всесторонней внешней поддержке, и продвижение их деятельности будет более эффективным, если будет организовано на государственном уровне. требуются: маркетологи, технологи, юристы, а также компании, которые проводят мероприятия по развитию сотрудников.

Список использованных литературы

1. Эргашева, А. (2023). Хунармандчилик маҳсулотлари бозорида хизмат кўрсатишнинг ўзига хос хусусиятлари. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 34(34).
2. Ostonov, O. A., Akhmedov, K. A., Khushvaktov, K. O., & Norimovich, K. K. (2020). SOME FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF NATIONAL CRAFTS ON THE BASIS OF TOURISM IN UZBEKISTAN. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 1256-1261.
3. Farmonovna, E. A. (2021). Impact of Globalization in a Handicraft Perspective in Uzbekistan. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 1, 9-13.
4. Ergasheva, A. (2020). Кичик бизнесда инновацион фаолият ва уни ривожлантириш масалалари. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
5. Farmonovna, E. A. (2021). Prospectuses for the Development of National Handicrafts in Uzbekistan. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 12, 85-92.
6. Эргашева, А. (2023). MILLIY HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI SOTISHDA RAQAMLI MARKETING O'RNINI. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 31(31).
7. Эргашева, А. (2023). HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIGA XIZMAT KO'RSATISHNING RIVOJLANISHINI HOZIRGI DARAJASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 32(32).
8. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Mahmudova Nodira O'ktamovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

TA'LIM TURIZMI XIZMATLARI BOZORINING XALQARO KO'LAMI

Annotatsiya: Maqolada ta'lim turizm bozorining xalqaro ko'lami hamda xorij tajribasi yoritilgan. Ta'lim turizmini amalga oshirishda ta'sir etuvchi omillar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim turizmi xizmatlari, xalqaro ta'lim turizmi bozori, undagi talab va taklif, ta'sir etuvchi omillar.

Jahon miqiyosida ta'lim turizmining rivojlanishi so'nggi 45 yillikda amalga oshirilmoqda. Project Atlas¹ hisobotida, 1975-2018 yillar davomida dunyo bo'ylab xalqaro talabalar sonining o'sish tendensiyasini kuzatish mumkin. Jumladan, 2018 yilda bu ko'rsatkich 5 mln kishiga yetgan, 2017 yilga nisbatan 8,7%ga oshgan. Ta'lim turizmini amalga oshiradigan xalqaro talabalar 2020 yilga kelib 6 mln, 2025 yilga kelib 7,2 mln kishiga yetishi bashorat qilingan².

Ammo COVID-19 pandemiyasi barcha sohalariga, jumladan xalqaro ta'lim turizmi bozoriga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi.



1-chizma. Mintaqalararo xalqaro kirish turizmi, 2019 yil bilan solishtirganda o'zgarish dinamikasi³

¹ 2018 Project Atlas Infographics | IIE

² Bohm, A., Davis, D., Meares, D. and Pearce, D. (2002) Global Student Mobility 2025 Forecasts of The Global Demand for International Higher Education

³ <https://www.unwto.org> ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Daigrammadan ko'rish mumkinki, mintaqalararo kirish turizmi 2021 yilda 2019yildagi ko'rsatkichlardan karantin talablari sabab ancha uzoqlashgan bo'lsada, 2022 yilning yanvar-iyul holatida sezilarli tiklanish holatini ifodalayapti.

Jumladan, xalqaro ta'lim turizmi bozori hajmi 2022 yilda 365,9 milliard dollarga baholangan va 2023yildan 2030yilgacha yillik murakkab o'sish sur'ati (CAGR) 13,0 foizga¹(17,2%(2021-2031yillar) FMI ma'lumotiga ko'ra²) kengayishi kutilmoqda.

AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Fransiya, Ispaniya, Kanada va Irlandiya kabi davlatlar ta'lim olish uchun eng ko'p afzal qilingan yo'nalishlardan hisoblanadi.

Future Market Insights (2021) ma'lumotlariga ko'ra, keying yillarda AQSh ta'lim turizmi xizmatlari mazkur bozorning 3/4 qismidan ko'prog'ini egallashi kutilgan. Bunday katta ulushga ega bo'lish sabablari sifatida:

- eng yaxshi ta'lim muassasalari xizmatlari taklifini ta'minlaydi va sifatni saqlashga intiladi;

- ta'lim sayohatlarini turli imtiyoz orqali qo'llab-quvvatlaydi;

- sifatli ta'lim va tadqiqotlar xarajatlarini iqtisodiy jihatdan qoplaydi.

Sayohatchilar uchun Qo'shma Shtatlarda til o'rgatish kompleks dasturlaridan foydalanishning doimiy imkoniyatlar mavjud. Ularga davomiyligi bir haftadan ikki yoki uch yilgacha bo'lgan til kurslarini taklif etiladi. Shuningdek, trening davomida madaniyat, Amerika bo'ylab sayohat qilish, diqqatga sazovor joylar va an'analar bilan tanishish imkoniyatlari ham taqdim etiladi. Uzoq muddatli individual til o'rganish kurslarida mazkur tilda so'zlashuvchi o'qituvchi oilasida nutqni va so'z boyligini oshirish maqsadida yashab o'rganish ko'rinishlari ham mavjud.

Quyida biz AQSh ta'lim turizmi xizmatlarining e'tiborga molik jihatlarini qayd etamiz:

- ta'lim turizmi xizmatlarini tashkil etish davlat organlarining faol ishtirokida amalga oshiriladi;

- o'rta va oliy ma'lumot olish, stajirovka va kasbiy qayta tayyorlash, malaka oshirish sohasida ta'lim turistik xizmatlari taklifi amalga oshiriladi;

- ta'lim turizmi dasturlariga jalb qilingan turistlar aksariyati 24 yoshgacha bo'lgan talabalar, shuningdek yoshi kattalarni tashkil etadi;

- ta'lim turizmi xizmatlarini moliyalashtirishning ko'p darajada tijorat xususiyati mavjud, ya'ni mazkur xizmatlarni ishlab chiqish va taklif etish asosan xususiy sektor tomonidan amalga oshiriladi;

- AQShning barcha ta'lim muassasalari turizm tashkilotlari va ixtisoslashgan davlat institutsional tuzilmalari bilan hamkorlikda tarmoq yondashuvi tamoyillari asosida ishlaydi, ular faoliyati zanjir shaklidagi doiraviy bog'liqlikka ega. Jumladan, sayohatchilarni mamlakat bilan tanishtirish, shuningdek, ularni mamlakat an'analari va hayotiga moslashtirish doirasida ko'ngillilarni faol jalb qilishda ta'lim muassasalarining o'rnini qayd etish mumkin.

Ispaniya, Germaniya va Fransiya ta'lim turizmi xizmatlarida o'xshash jihatlar mavjudligi quyidagilarda aks etadi:

- taklif obyekti nuqtai nazaridan qarasak, ya'ni til o'rganish kurslarining keng ko'lamdagi kompleks xizmatlari;

- mazkur davlatlar oliy ta'lim muassasalari abiturentlari uchun turli fan kurslari;

- oliy ta'lim dasturlari;

- joriy davlatlarda oliy ta'lim xizmatlari nazarda tutilgan holdagi ta'lim turizmi xizmatlari narxi qulay sanaladi.

- ushbu turizm turini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy jihati - ta'lim turizmi dasturlari ishtirokchilariga turli grantlar, stipendiya dasturlari kabi imkoniyatlar taklif etiladi.

¹ <https://www.grandviewresearch.com>

² Educational Tourism Market by Age Group, Education Type, Type of Occupation, Course Type and Region for 2021 – 2031: Analysis and Review (REP-GA – 13880). – 2021 (September). – 200 p. <https://www.futuremarketinsights.com/reports/sample/rep-gb-13880>

Germaniya, Fransiya va Ispaniya davlatlari ta'lim turizmi xizmatlarini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarni xulosa qilib, quyidagi rasmda ifodaladik (1-rasm):

1-rasm. Germaniya, Fransiya va Ispaniya davlatlari ta'lim turizmi xizmatlarining



o'ziga xos jihatlari¹

Germaniya, Fransiya va Ispaniyadagi barcha ta'lim muassasalari turistik tashkilotlar bilan hamkorlikda tarmoq yondashuvi tamoyillari asosida hamkorlik qiladi, bunday hamkorlikda davlat aralashmaslikka harakat qiladi.

Grandviewresearch hisobotida ta'lim turizmi iste'molchilari to'rt guruhga bo'lingan²:

- 15yoshgacha bo'lganlar;
- 16-25yoshgacha bo'lganlar;
- 26-40 yosh;
- 41-55yoshgacha bo'lganlar.

Ta'lim turizmi xizmatlarida asosiy e'tibor bilim doirasini kengaytirish, kasbiy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishga qaratilgan bo'lib, uning yetakchi auditoriyasini talabalar tashkil etadi. Yosh guruhi bo'yicha 16-25 yosh segmenti bozorda 2022 yilda 40% ulush bilan ustunlikka erishdi. Ushbu segmentning savodxonlik darajasi o'rtacha 91% ni tashkil etmoqda. Ayni paytda OTMLar ta'lim xizmatlari ekspotini oshirish uchun xalqaro ko'lamda raqobat olib bormoqda. Ta'lim turizmi bozorining 30%i oliy ta'lim muassasalari bituvchilari hamda kasbiy ish faoliyati bilan band bo'lganlar, 26-45yoshdagilar segmenti to'g'ri kelmoqda. Ushbu yoshdagi iste'molchilar xorijda istiqbolli faoliyat yuritishni, tajribalarini diversifikatsiya qilishni, yangi madaniyatni o'rganishni va yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishni xohlashadi.

Fikrimizcha, dunyoda ro'y berayotgan texnologik va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ko'proq insonlarni butun hayoti davomida ilm olishga, o'rganishga da'vat etmoqda. Yuqoridagi yosh bo'yicha guruhlashda beshinchi segment- "56 yosh va undan yuqorilar" kiritishni lozim deb topdik. Ma'lumot o'rnida, XXRning 56yoshdan yuqori 5mln aholisi dunyo bo'yicha madaniy


¹ Muallif ishlanmasi

² <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/educational-tourism-market-report>

hamda ta'lim turizmini amalga oshirmoqda. Fikrimizcha, ta'lim olish maqsadida chiqish turizmini amalga oshirishda ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat (2-chizma):

2-chizma. Xalqaro ta'lim turizmini amalga oshirishda ta'sir etuvchi omillar

- *Qabul qiluvchi davlatning qulay immigrasiya siyosati*- bir nechta immigratsiya dasturlari tobora ko'proq talabalarni doimiy yashash joyini tanlashga va mamlakat ishchi



kuchining faol qismiga aylanishga jalb qilishga yo'naltirilgan. Kanadaning Express Entry immigratsiya dasturi Kanada universitetlarini tamomlagan xalqaro talabalarni mamlakatda vaqtinchalik yashash yoki doimiy yashash joyini tanlashga tegishli qulaylik yaratgan.

- *Qabul qiluvchi davlatlardagi ta'lim muassasalari yuqori akademik standartlarga egaligi* hamda sifatni saqlab qolish uchun qat'iy talablarga amal qiladi, shuningdek, o'z talabalariga yuqori darajadagi ta'limni taklif qilish uchun yaxshi qo'llab-quvvatlanadi. QS World Ranking 2023 ma'lumotlariga ko'ra, eng yaxshi 50 ta universitetning 27 tasi AQShda, 17 tasi Buyuk Britaniyada joylashgan.¹

- *Talabalarga qabul qiluvchi davlat yoki OTM tomonidan turli stipendiya, imtiyozli kredit kabi iqtisofiy- ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi siyosati:* o'qish xarajatlarini ma'lum qismini yoki to'liq qoplashi, transport xarajatlari va tadqiqot o'tkazish, tehsil olish jarayonidagi ma'lum xarajatlarni qoplashi kabilar shular jumlasidandir.

- Ta'lim uchun sayohat, shuningdek, talabalarni turli *madaniyatlar va ma'naviy dunyoqarashini oshirishga, xilma-xillikka yo'naltirilgan faoliyatlar* taklifi mavjud bo'lishi.

- *Qulay transport infrastukturasining mavjudligi*- tegishli davlatga yetib olishda mavjud transport xizmatlarining qulayligi, vaqti va narxi bo'yicha iste'molchiga, jumladan talaba uchun tariflar taklifi mos talabni shakllantiradi.

- *Qabul qiluvchi mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy barqarorlik va diniy bag'rikenglik* mavjudligi birlamchi ta'sir etuvchi omildir. Siyosiy beqaror bo'lgan davlatda ta'lim xizmatlarini eksport yoki import munosabatlarini amalga oshirib bo'lmaydi.

Iqtisodiy barqarorlik esa ta'lim turizmiga bevosita ta'sir etuvchi omil hisoblanadi.

Chunki shu omil aholi o'rtacha daromadi sayohat qilish singari ikkilamchi ehtiyojini qoplash qurbiga egaligini xarakterlaydi;

- Turli global to'siqlar : Covid-19 pandemiyasi, Rossiya va Ukraina o'rtasidagi urush, iqlim o'zgarishi, neft narxi hamda logistika xizmatlaridagi beqarorlik xalqaro turizm bozoriga sezilarli ta'sir etmoqda.

Fikrimizcha, zamonaviy jahon ta'lim turizmi bozoriga xalqaro ta'limga talabning oshish fenomeni alohida ta'sirga ega. Ta'lim, turizm hamda zarur infrastrukturalar integratsiyasi global ta'lim turizmi bozorining rivojiga va mos ravishda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda barqaror ijobiy hissaga ega bo'ladi.

¹<https://www.qs.com/rankings-released-qs-international-trade-rankings-2023>

Adabiyotlar ro'yxati

1. 2018 Project Atlas Infographics | IIE
2. Bohm, A., Davis, D., Meares, D. and Pearce, D. (2002) Global Student Mobility 2025 Forecasts of The Global Demand for International Higher Education
3. <https://www.unwto.org>
4. <https://www.grandviewresearch.com>
5. Educational Tourism Market by Age Group, Education Type, Type of Occupation, Course Type and Region for 2021 – 2031: Analysis and Review (REP-GA – 13880). – 2021 (September). – 200 p
6. <https://www.futuremarketinsights.com/reports/sample/rep-gb-13880>
7. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/educational-tourism-market-report>
8. <https://www.qs.com/rankings-released-qs-international-trade-rankings-2023>

Muxtarov Shavkat Kadirovich

Iqtisodiyot kafedrası tayanch doktoranti (PhD)

Buxoro davlat universiteti

OLIIY TA'LIM TIZIMINI STRATEGIK BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

ANNOTASIYA: Ushbu maqolada strategik boshqaruv va strategik rejalashtirish usullari, ichki siyosat va jarayonlar, strategik fikrlash, universitetlarda malakali kadrlar tayyorlash siyosatini va tadqiqotlar kelajagini belgilashda hamda innovatsiyalar yaratish va ularni tijoratlashtirish yo'nalishlarini aniqlashda strategik rejalashtirish va boshqarish tizimlari, Finlyandiya tajribasi, keng qamrovli strategik yondashuvni o'rnatish usullari, tashqi va ichki tashkiliy muhitlarning omillari, institutsional strategik ustuvorliklarni belgilash, xorijiy OTMlari tajribalarini o'rganilganligi, ularning ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqishda, tadqiqot natijalari hamda innovatsiyalarni tijoratlashtirishda ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyasini o'rnatishning muhim omillari va ilmiy qarashlar hamda yechimlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: strategik boshqaruv, sektor, universitet konteksti, innovatsiya, avtonomiya universitet, strategik ustuvorlik, tijoratlashtirish, motivatsiya, muhandis, integratsiya, vosita, raqobat.

So'nggi yillarda strategik boshqaruv va strategik rejalashtirish usullari (Ansoff 1980; Freyeman 1984) xususiy sektordan davlat OTMlariga tarqaldi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, ushbu jarayonlar yoki tizimlar faqat OTMlarning o'quv ishlariga ta'sir qilishi, ularni yaxshilashi yoki o'zgartirishi mumkin, deb hisoblash o'rinli emas. OTMlar hatto ularning boshqaruvi muvaffaqiyatsiz bo'lgan hollarda ham yaxshi ishlashlari mumkin (Birnbau, 1988). Strategik rejalashtirish bu o'zgaruvchan va noaniq muhit bilan kurashish uchun ishlatiladigan tashkiliy vositalardan biridir. Universitet kontekstida strategik boshqaruv, masalan, ichki siyosat va jarayonlarni birlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi (Shattock, 2010). Bundan tashqari, universitetlarga strategik boshqaruvni yuklash raqobat muhitida strategik fikrlash zarurligi haqida xabardorlikni oshirish orqali madaniyatga ta'sir qilishi aniqlandi (Crebert, 2000).

Universitetlarda malakali kadrlar tayyorlash siyosatini va tadqiqotlar kelajagini belgilashda hamda innovatsiyalar yaratish va ularni tijoratlashtirish yo'nalishlarini aniqlashda strategik rejalashtirish va boshqarish muhimdir. Strategik boshqarish bo'yicha xorijiy davlatlar OTMlarining ilg'or tajribalarini o'rganib, ularni mamlakatimiz OTMlarida qo'llashning ahamiyati beqiyosdir.

Finlyandiya tajribasi. Finlyandiya ta'lim sohasida katta islohotlar qilib, yetarli tajriba maydoniga aylangandir. Finlyandiyadagi universitetlarni isloh qilishning milliy maqsadi universitetlar to'g'risidagi qonunning asosiy qismi bo'lgan universitetlarga xizmat ko'rsatish va atrofda jamiyatga dosh berish, moliyalashtirish asoslarini diversifikatsiya qilish uchun

universitetning raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishning yaxshiroq imkoniyatlarni ta'minlashdan iboratdir (Ta'lim vazirligi 2009). Qonunga ko'ra, universitetlarda strategik maqsadlarni belgilash ularning avtonomiyalarini oshirish orqali mustahkamlanadi va ularning yangi ichki boshqaruv va boshqaruv tizimlari hamda yanada moslashuvchan faoliyat asoslari tamoyillari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Universitetlar yoki mustahkamlangan avtonomiya universitetlar to'g'risidagi qonun strategik boshqaruvni o'zgartirmaydi yoki rivojlantirmaydi. Shu bilan birga, universitetlarni boshqaruv va boshqaruv tizimini rivojlantirishga undaydigan yoki hatto majbur qiladigan yangi elementlar mavjud.

Birinchidan, universitetlar o'zlarining huquqiy imkoniyatlariga ega va ular endi davlatning yuridik shaxsi emas. Universitetlar o'z faoliyati uchun qonuniy javobgar va moliyaviy javobgar hisoblanadilar. Bu ortib borayotgan mas'uliyatni universitet boshqaruvi va boshqaruv tizimini rivojlantirishga turtki sifatida ham ko'rish mumkin.

Ikkinchidan, yangi institutsional darajadagi boshqaruv kengashi tashqi raisga va butunlay yangi tarkibga ega bo'lib, kengash a'zolarining maksimal 40 foizini tashqi (ilgari atigi 1-2 ta tashqi a'zo) tashkil etadi. Shunday qilib, tashqi manfaatdor tomonlar universitetlarning ichki boshqaruvi bilan ko'proq shug'ullanish uchun forumga egadirlar.

Uchinchidan, oliy o'quv yurtlarida o'zlarining boshqaruv organlari tomonidan tayinlanadigan rektorlar mavjud. Ilgari rektor universitet tomonidan ichki saylangan va u boshqaruv kengashiga raislik qilgan. Rektor bosh direktor sifatida universitet faoliyati va moliyasini boshqarish uchun ham javobgardir.

To'rtinchidan, universitet xodimlarining huquqiy maqomi davlat xizmatchisidan oddiy xodimga aylandi. Shunday qilib, universitetlar universitetga xos kadrlar va ish beruvchilar siyosatini ishlab chiqishda ko'proq erkinliklarga egadirlar.

Tadqiqotlar davomida Finlyandiyaning ikkita universiteti strategiyalari bilan tanishib chiqdik: Xelsinki universiteti (XU) va Tampere texnologiya universiteti (TTU). Ushbu OTMlarning akademik profillari, obro'si, yuridik shaxs maqomi, hajmi va faoliyat yurituvchi moliya tuzilmalari tanlab olindi. XU Finlyandiya'dagi eng yirik ko'p tarmoqli universitet hamda TTU texnik ta'lim yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi yirik universitetlardan biri hisoblanadi. XU davlat yuridik shaxs maqomidagi universitet, shuningdek, TTU esa fond tomonidan boshqariladigan universitetdir. Davlat tomonidan moliyalashtirilgan mablag'larning tashqi moliyalashtirishga nisbati 2008 yilda XUda

41 foizdan 59 foizgacha va TTUda esa 23 foizdan 77 foizgacha bo'lgan.

Tadqiqot uchun tanlangan Finlyandiyaning ushbu ikkita universiteti keng qamrovli strategik yondashuvni o'rnatishga va o'zlarining tashqi va ichki tashkiliy muhitlarini ko'proq nazorat qilishga intiladi. Shunga qaramay, universitetlar o'zlarining tashqi muomalaviy operatsion kontekstlarida o'z pozitsiyalarini turli yo'llar bilan aniqlaydilar va tavsiflaydilar.

Mazkur universitetlarning islohotdan oldingi va islohotdan keyingi birinchi universitet darajasidagi strategiyalari tahlil qilindi. "TTU – texnologiya kashshofi" strategik rejasi 2010-2013 yillar uchun to'rt yilga mo'ljallangan va XUda 2009 yilda 2010-2012 yillarga mo'ljallangan strategiya tasdiqlangan (1.1-jadval).

1.1-jadval

Xelsinki universiteti va Tampere texnologiya universitetlarining strategiyalaridagi ustuvorliklar

XU		TTU	
2007-2009 yy.	2010-2012 yy.	2004-2010 yy.	2010-2013 yy.
yuqori sifatli ish joyi; sifatni tekshirish;	Jamiyat bilan o'zaro munosabat; O'qitish;	Eng yaxshi usullar-dan foydalangan holda o'qitish; Ilmiy faoliyat asoslarini ishlab chiqish;	Tadqiqotni rivojlantirish; Baynalminallik ni

ilmiy-tadqiqot va o'qitishning baynalmilallashuvi; Akademik rahbarlik va nazorat; Innovatsion tizimni rivojlantirish.	Tadqiqot; Xodimlar, Boshqaruv va yetakchilik, Yordamchi faoliyat.	Ijtimoiy rivojlanish; Xalqaro munosabat; Kelajakni bashorat qilish; Mas'uliyatli kadrlar siyosati.	mustahkamlash ; Ta'lim va ta'lim sifatini oshirish; Yetakchilik va bosh-qaruvni rivojlan-tirish.
---	--	---	---

Institutsional strategik ustuvorliklarni belgilashda zarur bo'lgan qarashlar quyidagicha belgilandi: "Xelsinki universiteti intellektual yangilanishning eng ko'p qirrali universiteti bo'lib, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tadqiqotlar, tadqiqot va hamkorlikka asoslangan ta'lim va ta'lim orqali yangi ilmiy fikrlash va bilimlarni yaratib beradi hamda Finlyandiya jamiyatida farovonlikni oshirish uchun ularni uzatadi (XU strategiyasi 2007–2009).

XUning strategiyasida universitet dunyodagi eng yaxshi ko'p tarmoqli tadqiqot universitetlari qatorida o'z maqomini mustahkamlashi ta'kidlangan. TTUda oldingi qarashlar ichkariga yo'naltirilgan bo'lsa, islohotdan keyingi birinchi strategiya institutdan tashqariga qaratilgan. Xalqarolashtirish TTUning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi (TTU strategiyasi 2010–2013).

Jamiyat bilan o'zaro hamkorlik qilish har ikkala universitetning ham asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. TTUda tadqiqot va ishlanma loyihalari orqali sanoat bilan hamkorlik alohida ta'kidlangan bo'lsa, XUda o'zaro hamkorlik universitetning ijtimoiy mas'uliyatini yuklash, ilm-fanni targ'ib qilish va o'zaro hamkorlikda qimmatli sherik bo'lish sifatida ifodalangan. XUning asosiy tashqi manfaatdor tomonlari davlat boshqaruvi, ishbilarmonlik hayoti, mintaqalar, bitiruvchilar hamda milliy va xalqaro miqyosdagi boshqa OTMlari sifatida belgilangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islohotdan keyingi strategik rivojlanish, birinchi navbatda, ichki tashkiliy omillar o'rtasidagi muvofiqlikka tegishlidir. Ikkala OTMlarida ham quyidagilar o'rtasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muvofiqliklar aniqlandi: universitetni yangi va faolroq boshqarish hamda akademik erkinlik; boshqaruvning tabiati va o'quv bo'linmalari rivojlanishining turli bosqichlari; akademik birliklarning turli amaliyotlari.

Menejment nuqtai nazaridan, ikkita amaliy tadqiqot universiteti ushbu moslashuvlarni targ'ib qilish uchun turli usullarni qo'llaydilar. Texnologiya universiteti kadrlarga yo'naltirilgan yetakchilikka va boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishga sarmoya kiritadi. Aksincha, ko'p tarmoqli universitet esa asosiy e'tiborni o'qitish va tadqiqotni boshqarish, boshqaruv va axborot tizimlarini rivojlantirishga qaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xorijiy OTMlari tajribalarini o'rganib, ularning ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqishda, tadqiqot natijalari hamda innovatsiyalarni tijoratlashtirishda ishlab chiqarish korxonalari bilan integratsiyasini o'rnatishda quyidagilar salbiy ta'sir qilmoqda deyishimiz mumkin:

- universitetning tadqiqot va ishlab chiqish qobiliyati sanoat ehtiyojlarini qondirmaydi;
- universitet professor-o'qituvchilari va tadqiqotchilarining sanoat bilan hamkorlik qilishlari uchun motivatsiya mavjud emasligi;
- universitet ma'muriyati boshqa OTMlar va ishlab chiqarish bilan o'zaro aloqalarni qisqartirganligi;
- oliy o'quv yurtlari va sanoat o'rtasida o'tmishda o'zaro aloqalar bo'lmaganligi sababli universitet va sanoat o'rtasida o'zaro ishonch o'rnatilmaganligi;
- universitet tadqiqotchilari va professorlari hamda kompaniya muhandislari va menejerlari o'rtasida bir-birini o'zaro tushunish va umumiy kun tartibiga ega bo'lish qiyin kechmoqda;
- hukmronlik tuzilmalarining hamda koalitsiya qurish shakllarining yo'qligi ham bo'linmachilik va noto'g'ri xatti-harakatlarga olib kelmoqda.

Xorijiy davlatlar OTMlarining rivojlanishiga va malakali mutaxassislar tayyorlashga ko'mak berayotgan ilg'or strategiyalarni aniqlash natijalaridan kelib chiqib, quyidagilarni mamlakatimiz OTMlari faoliyatini takomillashtirishda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- OTMlariga moliyaviy mustaqillik berilishi ularni strategik rejalar tuzishda mas'uliyat bilan yondashish zarur bo'ladi;

- OTMlari faoliyatini rivojlantirishda, moliyaviy asoslarini diversifikatsiya qilishda, raqobatbardoshligini oshirishda tashqi manfaatdor tomonlarni, yirik ishlab chiqaruvchi (yoki ish beruvchi) korxonalarining vakillarini OTMlari boshqaruviga kiritish;

- OTMlarini innovatsion tadbirkorlik maqomiga olib chiquvchi strategik yo'nalishlarni belgilab olish;

- bitiruvchi kelajakda yirik ish beruvchi, moliyalashtiruvchi homiy va hamkorligini inobatga olib, ularni "innovator-tadbirkor" sifat belgisi ostida tarbiyalash zarur.

OTM boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi kerak bo'ladi: o'quv bo'limi, ilmiy va innovatsion faoliyat, metodologik faoliyat va inson resurslarini boshqarish, moliya-xo'jalik faoliyatiga tegishli komponentlarni inobatga olish; OTMlarning tadbirkorlik muhiti, tadbirkorlik falsafasi va missiyasidan kelib chiqib, tadbirkorlik strategiyasini ishlab chiqish; OTMlarning boshqaruv tizimiga bevosita ta'sir etuvchi global va milliy tendentsiyalarni o'rganish; OTMlarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish va ularning profiliga mos keladigan yirik korxonalar bilan integratsiyasini samarali yo'lga qo'yish, shuningdek, ta'limni rivojlantirish korxonalar ijtimoiy mas'uliyatining asosiy yo'nalishi bo'lishiga erishish; raqamli texnologiyalarning OTMlar faoliyatiga kirib borishini kuchaytirish va boshqaruv strategiyasining asosiy vazifasidan biri bo'lishini ta'minlash va hokazolar.

OTMlarining strategik rivojlanishini boshqarish muammolariga quyidagilar kiradi: strategik maqsadning haddan tashqari global xarakterga egaligi; strategiyani amalga oshirish uchun moliyaviy, kadrlar, moddiy va axborot bazasining yetarli emasligi; zarur tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalarining yetarli emasligi; OTM boshqaruvida strategik va tezkor (operativ) jihatlarining o'zaro bog'liqligi mexanizmining mavjud emasligi va boshqalar.

Xorijiy davlatlar OTMlarining rivojlanishiga va malakali mutaxassislar tayyorlashga ko'mak berayotgan ilg'or strategiyalarni aniqlash natijalaridan kelib chiqib, quyidagilarni mamlakatimiz OTMlari faoliyatini takomillashtirishda qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz: OTMlariga moliyaviy mustaqillik berilishi ularni strategik rejalar tuzishda mas'uliyat bilan yondashish zarur bo'ladi; OTMlari faoliyatini rivojlantirishda, moliyaviy asoslarini diversifikatsiya qilishda, raqobatbardoshligini oshirishda tashqi manfaatdor tomonlarni, yirik ishlab chiqaruvchi (yoki ish beruvchi) korxonalarining vakillarini OTMlari boshqaruviga kiritish; OTMlarini innovatsion tadbirkorlik maqomiga olib chiquvchi strategik yo'nalishlarni belgilab olish; bitiruvchi kelajakda yirik ish beruvchi, moliyalashtiruvchi homiy va hamkorligini inobatga olib, ularni "innovator-tadbirkor" sifat belgisi ostida tarbiyalash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.

2.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997 y, № 9.

3.O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonuni bilan tasdiqlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. –O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – Toshkent, 1997y. – № 9.

4.2012 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni //Xalq so'zi, 2012 yil 25 iyul, №145 (5565).

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF—4947-sonli Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash

yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to’g’risida”gi PF-5308-sonli Farmoni. – Toshkent, 2018 y.

7. Bolonskiy proses: Itogi desyatiletiya– Pod nauch. red. V.I. Baydenko. – M.: Institut kachestva visshego obrazovaniya NITU «MISiS», 2011g. – S. 144.

8. Buxalkov M. I. Vnutrifirmennoe planirovanie: Uchebnik – M.: Infra-M, 2008. S.392; Vasil'ev Yu.P. Upravlenie razvitiem proizvodstva: opit SShA – M.: Ekonomika, 2007. S.239; .

9. A.Vaxabov, E.Imamov Visshee obrazovanie v Sentral'noy Azii. Zadachi modernizatsii. M. 2007g. 214s.;

10. Vaxabov A., Imamov E., Soleev A., Tursunxodjaeva M., Xusanova N. Respublika Uzbekistan nasional'niy otchet po politike v sektore obrazovaniya. Visshee obrazovanie v Sentral'noy Azii. Zadachi modernizatsii – Vashington. Vsemirniy bank. 2007- S. 94-95, 131, 161-162, 194.

11. Voloxova Ye.D. Zakonodatel'noe obespechenie prava na obrazovanie v RF.– Moskva: Gotika, 2004g. – 92 s.

12. Vixanskiy O. S. Strategicheskoe upravlenie – M.: Gardarika, 1998.S. 296.

13. Vissema X. Strategicheskiy menedjment i predprinimatel'stvo: vozmojnosti dlya budushego prosvetaniya /Per s angl. –M.: Izd-vo «Finpress», 2000. –S. 272;

14. Visshee obrazovanie v XXI veke: podxodi i prakticheskie meri // Vsemirnaya deklaratsiya YuNESKO. Organizatsiya ob'edinennix nasiy po voprosam obrazovaniya, nauki i kul'turi. – Parij. –1998. – 5-9 oktyabrya. Istochnik: <https://www.lawmix.ru/abrolaw/9374>

15. Gulyamov S., Ubaydullaeva R., Ahmedov E. Mustaqil O'zbekiston (o'zbek, ingliz tilida). –T.: Mehnat, 2001. –248 b.

16. Gulyamov S. i dr. Proizvodstvenniy potentsial regiona. Problemi molelirovanie, ispol'zovanie i razvitie. –T.: O'qituvchi, 1995. -165 b.

17. Davlatov S.S. Mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligida oliy ta'lim sifatining ta'sirini baholash // Iqtisod va moliya. – 2013. – 12. –24-29-b.

18. Denison E. Issledovanie razlichiy v tempax ekonomicheskogo rosta. - M.: Nauka, 1971.- S.171.

19. Dimitrios Asteriou and Stephen G. Hall. Applied econometrics. A modern approach using Eviews and Microfit. Revised edition. Palgrave Macmillan, New York, 2007. – r.397

20. US Department of Labor. Future work - Trends and Challenges for Work in the 21st Century Executive Summary <https://www.dol.gov/>

21. Draker P. Postkapitalisticheskoe obshestvo —Ekonomika XXI veka – Moskva, 1999 g. - № 11 – S. 3-

22. www.parliament.gov.uz

23. www.press-service.uz

24. www.opendozweb.org

25. www.iso.org

26. www.ambafrence.ru

O`roqova Dilfuza Bahriddinovna

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi o'qituvchisi

Abdullayev Nuriddin Xayriddinovich

1-bosqich magistranti

Buxoro davlat universiteti

TIBBIY TURIZMNING NAZARIY ASOSLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiy turizmning, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklarga qaramay, tibbiy yordamning hajmi va sifatiga, umuman sog'liqni saqlash tizimining holatiga qo'yiladigan talablar yana ortib bormoqda. Ushbu loyihaning asosiy maqsadlari sifatida umumiy, global maqsadlar, ya'ni. aholi salomatligini

mustahkamlash, kasallanish, nogironlik, o'lim darajasini pasaytirish va ma'lum bir tabiatning keng ko'lamli maqsadlari.

Kalit so'zlar: *tibbiy turizm; tibbiy klinik turizm; tibbiy kurort turizmi; sog'liqni saqlash turizmi; tibbiy turizm; ta'rif; terminologiya; tibbiy turizm sohasi*

Ko'pgina mamlakatlarning sog'liqni saqlash tizimida an'anaviy tibbiy tizimlarning tajribasi akademik (klassik) davolash usullari bilan birlashtirilganda yangi yo'nalish — integrativ tibbiyot rivojlanmoqda. Noqulay ekologik fon sharoitida, inson tanasiga turli xil tashqi yuklarning ko'payishi, surunkali kasalliklarning keng tarqalishi sharoitida an'anaviy tibbiyot "tabiiy, tabiiy va xavfsiz" tibbiyot sifatida insonni saqlash va mustahkamlash uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi bosqichda an'anaviy tibbiyot va amaliy sog'liqni saqlash integratsiyasi restorativ tibbiyot sohasida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Integratsiyalashgan yo'nalish sifatida restorativ tibbiyot kasalliklarni davolash va diagnostika qilish, sog'likni tiklash va saqlash uchun turli xil dori-darmonlar va giyohvand bo'lmagan texnologiyalarni, shu jumladan muqobil tibbiyot usullarini o'rganish, ishlab chiqish va baholash uchun mo'ljallangan.

Zamonaviy tibbiyotda mavjud bo'lgan integratsiya tendentsiyasi va an'anaviy va an'anaviy tibbiyot usullaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligini rasmiy tan olish Sharq tabobatini, uning xavfsiz va samarali usullari va vositalarini kundalik tibbiy amaliyotda, jamoat salomatligini saqlashda kengroq qo'llash istiqbollarini ochib beradi.

Tibbiy turizm va tegishli toifalar (davolash-sog'lomlashtirish turizmi, davolash turizmi, sog'lomlashtirish turizmi, davolash-rekreatsiya turizmi, sog'lomlashtirish turizmi) sohasidagi mavjud ilmiy va amaliy materiallarni tizimli va qiyosiy tahlil, kontent-tahlil usullaridan foydalangan holda o'rganishga asoslangan asosiy tushunchalarni ko'rib chiqish mualliflik yondashuvini ishlab chiqishga imkon berdi. tibbiy turizm, tibbiy klinik turizm, tibbiy kurort turizmi kabi sohadagi asosiy toifalarni shakllantirish.

Taqdim etilgan ta'riflar ko'rib chiqilayotgan toifalarning mohiyatini ochib beradigan quyidagi asosiy fikrlarni hisobga oldi:

- * mamlakat ichida ham, tashqarisida ham sayohat;
- * fuqarolar tomonidan sayohatning maqsadi;
- * tibbiy xodimlar tomonidan sayohatni tayinlash;
- * shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlarining tibbiy turizmini aks ettirish;
- * ishlatilgan manbalar;
- * fuqarolarning sayohatlarini moliyalashtirish manbalari.

Taqdim etilgan ta'riflar ko'rib chiqilayotgan toifalarning mohiyatini, ularning umumiy jihatlari va xususiyatlarini aniqroq aniqlashga imkon beradi. Muallif yondashuvining o'ziga xos xususiyati, shuningdek, so'nggi yillarda jadal rivojlanish tendentsiyasiga ega bo'lgan shifokorlar va boshqa tibbiyot xodimlarining tibbiy turizmini aniqlashda aks etadi, bu endi tibbiy turizmni rivojlantirishning ushbu yo'nalishini e'tiborsiz qoldirishga imkon bermaydi. Taqdim etilgan ish natijalari tibbiy turizm sohasida mavjud bo'lgan terminologik chalkashliklarning ba'zi keskinligini olib tashlaydi.

Tibbiy turizm-bu turizmning juda mashhur yo'nalishi bo'lib, uning asosiy maqsadi bemorni chet elda davolashni tashkil etishdir. U odatdagi turizmdan farq qiladi, chunki chet elda dam olish dunyoning etakchi markazlari va klinikalari ko'rsatishga tayyor bo'lgan tibbiy xizmatlar bilan birlashtirilgan.

Barcha mamlakatlar uchun tibbiy sog'lomlashtirish turizmi dunyoda uzoq vaqtdan beri mashhur sayyohlik yo'nalishi bo'lishiga qaramay, nisbatan yaqinda paydo bo'lgan eng yangi yo'nalishdir. Bugungi kunda ushbu xizmat turiga xaridorlari uchun Evropa, Isroil va Amerikadagi har qanday klinikalar va tibbiy muassasalar mavjud bo'lib, ular zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalangan holda yuqori sifatli davolanishlari mumkin.

Tibbiy turizm tufayli har qanday bemor dunyoga mashhur va tajribaga ega mutaxassislardan yordam so'rashi mumkin.

O'zbekistonda tibbiy turizm sohasi hozirda shakllanmoqda. Biroq, bugungi kunda biz uning yuqori o'sish sur'atlari haqida gapirishimiz mumkin, chunki xalqaro darajada O'zbekistonda asta-sekin jahon tibbiy turizm bozorining etakchi mamlakatlar qatoriga kiritish vazifasi yuqori sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda tibbiy turizm sohasida barqaror terminologik apparat ishlab chiqilmagan. Terminologik chalkashlik professional muloqotni murakkablashtiradi, tibbiy turizm sohasining sanoat raqobatbardoshligini shakllantirish muammosini hal qilishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu taqdim etilgan maqola mavzusini yangilaydi.

Keling, "tibbiy turizm" iqtisodiy toifasini va u bilan bog'liq tushunchalarni aniqlashga mavjud yondashuvlar haqida umumiy ma'lumot beramiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, ilmiy- nazariy tilda tibbiy turizm atamasi ko'pincha davolash turizmi atamasi bilan almashtirilgan, kamroq davolash-sog'lomlashtirish turizmi atamasi ishlatilgan. Biroq, so'nggi yillarda aynan tibbiy turizm professional aloqa sohasida va keng jamoatchilik aylanmasida asosiy toifaga aylandi. Shunga qaramay, tibbiy turizmning mohiyatini ochib berish uchun biz "tibbiy turizm"zamonaviy toifasining sinonimlari sifatida ishlatilgan terapevtik va terapevtik-sog'lomlashtirish turizmining oldingi ta'riflaridan foydalandik.

So'nggi yigirma yil ichida sog'liqni saqlash tizimi xususiylashtirishga o'tdi. Buning natijasida aksariyati sog'liqni saqlash xizmatlarini tark etishdi va majburiy muddati tugagandan so'ng xususiy shifoxonalarga o'tishdi. Bu ko'plab xorijiy bemorlarni xususiy shifoxonalarida protseduralarini bajarishga jalb qildi. Bu xizmatlar arzon va bemorlar yaxshi natijalarga erishdilar.

G'arb mamlakatlari bilan raqobatlashish uchun isloh qilindi. Tibbiy turizm shifoxonalari eng yangi texnologik uskunalar bilan moliyalashtirildi. Va bu shifoxonalarda jarrohlar yuqori sifatli talablarga javob berishiga ishonch hosil qilindi. Ushbu moliyaviy amaliyotlar tibbiy turizmni rivojlanishiga olib kelyapti. Shu bilan birga, ushbu rivojlanish jarayonida tibbiy turizm agentliklari akkreditatsiyadan o'tgan. O'zbekiston Respublikasida tibbiy turizmni rivojlantirish birinchi; qadami xorijiy talabalarni tibbiyot akademiyalarga qabuli kvotasining oshganligi.

Ikkinchi; qadam jarohliq amaliyot xonalarini va simulyatsiya xonalarning texnika anjomlar bilan taminlanganligi;

Uchinchi; xalq tabobatiga asoslangan davolash turlari bo'yicha hududiy ixtisoslashuv boshlandi.

Sayyohlik sohasini isloh qilishning yana bir muhim yo'nalishi tibbiyot turizmi soxasi ishlarni faollashtirishdan iborat bo'ladi. Bugungi kunda har qanday mamlakatning kuchli raqobat hukm surayotgan jahon turizm bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishi marketing tadqiqotlarini maqsadga muvofiq yo'lga quyilishiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda Uzbekistan Respublikasining xalqaro tashkilot-lar va xorijiy davlatlar bilan tibbiyot turizm soxasida aloqalar o'rnatishi va rivojlantirishi, mamlakatimizga turistlar oqimining kirib kelishini kupaytirish, turistlarga xizmat ko'rsatish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, xizmat ko'rsatish sifati va madaniyatini oshirish, turistlar xavfsizligini ta'minlash, turistik industriyani tashkil qilish va rivojlantirish, soxa bo'yicha kadrlar tayyorlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi xuquqiy bazaga asosan yaratildi. Tibbiy turizm xuquqi soxasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, xalqaro va milliy huquq normalariga sharxlar yozish, darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratish va chop etish, soxa xodimlarining huquqiy-iqtisodiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Глобальный этический кодекс туризма. URL: http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pdf/tourism.pdf (дата обращения: 21.06.2018).
2. World Committee on Tourism Ethics (WCTE). URL: <http://ethics.unwto.org/en/content/world-committee-tourism-ethics> (дата обращения: 21.06.2018).
3. What is Responsible Tourism? URL: <http://responsibletourismpartnership.org/what-is-responsible-tourism/> (дата обращения: 21.06.2018).

4. Goodwin H. The 2016 World Responsible Tourism Awards // Progress in Responsible Tourism. 2016. Vol 5(1). P. 8–16.
5. Mara Manente, Valeria Minghetti и Erica Mingotto Ranking assessment systems for responsible tourism products and corporate social responsibility practices // Anatolia: An International Journal of Tourism and Hospitality Research Volume 23, Issue 1, 2012 Special Issue: Managing tourism in a changing world: Issues and cases <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/13032917.2011.653633?journalCode=rana20>
6. European Alliance of Responsible Tourism and Hospitality. EARTH. Who are we? URL: <https://earth-net.eu/about/> (датаобращения: 22.06.2018).
7. CREST. About us. URL: <http://www.responsibletravel.org/whoWeAre/aboutUs.php> (датаобращения: 21.06.2018).
8. Rainforest Alliance. Our Approach. URL: <https://www.rainforest-alliance.org/approach> (датаобращения: 22.06.2018).

*Abdullayeva Hilola Nutfilloyevna
Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi
Nurnazarova Rayhona Nazirovna
Buxoro davlat universiteti talabasi*

TURIZMDA TA'LIM, MILLIY URF-ODATLAR VA XUNARMANDCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasida tarixiy-madaniy turizm tushunchasi, uning turizm sohasidagi o'rnini o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Turizmning bir necha turlari hamda tariflar berilib o'tilgan. Turizm tarmog'i davlatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy va ma'naviy aloqalari, Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turizm, rivojlantirish, ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy-madaniy turizm, etnik, etnografik.

Turizm (fransuzcha: *our* — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiya uchun uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruhlarini AQShga jo'natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi. Lixenshteyn davlati qiroli turizm sohasidan tushgan foydani hisoblab: "Turizm har qanday davlatni boy va baxtli qilishga qobiliyatli", degan fikrni aytgan. Bu bejiz emas. Turizm tarmog'i davlatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy va ma'naviy aloqalarni mustahkamlashga o'zining hissasini qo'shish bilan birga dunyoda jadal rivojlanayotgan va yuqori daromad keltiruvchi sohalardan biriga aylangan. So'nggi yillarda dunyo yalpi ichki mahsulotida turizmning ulushi o'rtacha 11 foizni tashkil qildi. Hozirgi kunda, dunyo mamlakatlarida xalqaro turizmning rivojlanishida turistik korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini oshirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Dunyodagi to'rtta ustuvor sohalardan biriga aylangan turizm sohasiga ham imkon qadar aholining keng qatlamini faol hissa qo'chishlarini, ya'ni ularni turli xil turistik xizmatlarni tashkil qilishda keng miqyosda ishtirok etishlarini va buning natijasida mamlakatlarning ham ijtimoiy ham iqtisodiy jihatdan manfaatdorliklarini oshirishlarini ta'minlashda xususiy turistik korxona va tashkilotlarning o'rnini benihoya kattadir. Hozirgi kunda, respublikamizda 60 mingga yaqin turli mulkchilik shakllaridagi kichik korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu korxonalardan 96,1 % shaxsiy mulkchilik ko'rinishidagi korxonalardir. Kichik korxonalar hissasiga jami mahsulot, ish

va xizmatlarning 96 % to'g'ri keladi. Ma'lumotlardan ko'rinib turganidek, O'zbekiston Respublikasida xususiy va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat tomonidan katta ahamiyat berilmoqda. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi turizmni rivojlantirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan xususiy turistik korxonalarni shartli ravishda ikki xilga ajratish mumkin: bevosita turistlarni qabul qilish, ularning sayohatlarini tashkil etish bilan shug'ullanadigan firmalar hamda turizmni rivojlantirishga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi kichik va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari. Birinchi toifaga kichik turistik firmalar, shaxsiy mehmonxonalar, kempinglar, transport korxonalari, restoranlar kabilar kirsa, ikkinchi toifaga an'anaviy-milliy xarakterdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan mahalliy kichik va xususiy korxonalar, hunarmandchilik korxonalari va shu kabilarni kiritish mumkin. Ma'lumki, mamlakatga tashrif buyuradigan turistlar oddiy taomdan boshlab qimmatbaho suvenirlargacha bo'lgan mahsulot va xizmatlarning ma'lum miqdoriga talab bildirishadi. Bu tabiiy ravishda, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan kichik va xususiy biznes korxonalariga o'z imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun yo'l ochadi. Tarixiy va madaniy turizm - bu faol turizmning eng keng tarqalgan turi. U ta'lim va axborot maqsadlariga yo'naltirilgan barcha turizm turlarini o'z ichiga oladi. Bunday turizm dasturlari insoniyatning turli xil tabiiy tarixiy va madaniy meroslariga qiziqishiga asoslangan. Bunda turistik mahsulot madaniy tajribalar shaklida taklif etiladi. Etnik va etnografik turizmni o'ziga xos tarixiy-madaniy turizm deb hisoblash mumkin, bu o'z maqsadlariga (saqlab qolish, zarar yetkazmaslik) ko'ra, ekologik turizmga yaqin turadi. Mamlakatlar va xalqlar madaniyati turistik qiziqishning asosiy elementlaridan biridir. Turistlarning turli shaharlarga, dunyoning chekka burchaklariga va ularda istiqomat qiladigan xalqlarga bo'lgan qiziqishi sayohat qilishning eng kuchli rag'batlantiruvchisidir. Shuning uchun turizm boshqa madaniyatlar bilan, boshqa xalqlarning tarixi va hayoti bilan, badiiy asarlar bilan tanishishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Boshqa mamlakat tarixi, madaniyati va urf-odatlarini bilan tanishish insonning ma'naviy dunyosini boyitadi.

Sarguzasht turizmi sayohatchilar kutilmagan hodisalarni kutishlari mumkin bo'lgan uzoq joylarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu yangi madaniyat yoki yangi landshaft bilan bog'lanishni va ayni paytda jismoniy faollikni o'z ichiga oladi. Sarguzasht turizmining ba'zi turlari kunduzgi yurish, ryukzak, zip astar, erkin tushish, rafting, tog 'velosipedi, chang'i va snoubordni o'z ichiga oladi. **Agroturizm** yoki agroturizm odatda fermer xo'jaliklarida sodir bo'ladi. Bu sayohatchilarga qishloq hayotini boshdan kechirish, mahalliy taomlarni tatib ko'rish va turli dehqonchilik vazifalari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Ushbu turdagi turizm Italiyada fermer xo'jaligi deb ham ataladi. Agroturizmning ba'zi turlari to'g'ridan-to'g'ri bozor agroturizmi, tajriba va ta'lim agroturizmi va tadbir va dam olish agroturizmidir. **Madaniy turizm** - bu sayohatchilar mamlakat yoki din madaniyati, ayniqsa turmush tarzi va odamlar hayotini shakllantirgan boshqa elementlar bilan shug'ullanadigan joy. Sayyohlar marosimlar va festivallar kabi tegishli tadbirlarga sho'ng'ishadi. Dunyodagi mashhur madaniy turizm yo'nalishlaridan ba'zilari Madagaskardir; Lombok, Indoneziya; Latviya; Haida Gvayi, Britaniya Kolumbiyasi; Shimoliy Shri-Lanka; Chiang May, Tailand; Aristi, Gretsiya; G'arbiy Keyp, Janubiy Afrika va Tamilnadu, Hindiston. **Ekoturizm** buzilmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishni o'z ichiga oladi. Bu atrof-muhitni asrash va mahalliy aholi farovonligini oshirishga yordam beradi. Dunyodagi eng yaxshi ekoturizm yo'nalishlari qatoriga Alyaska, Amazonka, Antarktida, Avstraliyaning Moviy tog'lari, Borneo, Botsvana, Kosta-Rika, Dominika, Galapagos orollari va Himoloy tog'lari kiradi. **Tibbiy turizm** deganda davolanish uchun boshqa davlatga sayohat qiladigan odamlar tushuniladi. Rivojlangan mamlakatlardan odamlar arzon narxlarda davolanish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarga boradilar. Dunyodagi mashhur tibbiy turizm yo'nalishlari Hindiston, Malayziya, Braziliya, Tailand, Meksika, Kosta-Rika, Tayvan, Janubiy Koreya va Singapurdur. **Diniy turizm**, shuningdek, **e'tiqod turizmi** muqaddas joylarga alohida yoki guruh bo'lib sayohat qilishni anglatadi. Bu joylarga madaniy, tarixiy va diniy ahamiyatini bilmoqchi bo'lgan diniy e'tiqodsiz sayyohlar ham tashrif buyurishadi. Dunyodagi mashhur diniy turizm yo'nalishlari: Shvedagon pagodasi, San-Vitale bazilikasi, MAKKA, Xarmandir Sohib, Osmon ibodatxonasi, Bahai bog'lari, Vatikan, Vat Rong Khun, Avliyo Bazil sobori, Paro Taktsang, Ispaniya sinagogasi va Quddus.

Sport turizmi sport musobaqasini kuzatish yoki ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Bu eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, 7,68 milliard dollarga teng. Sport turizmi, shuningdek, sport tadbirlari turizmi, mashhur va nostalji sport turizmi va faol sport turizmi kabi tasniflanadi. Odatda, sayyohlar Olimpiya o'yinlari, FIFA Jahon kubogi, F1 Gran-prisi, tennis bo'yicha Jahon chempionati, BWF Jahon chempionati va Kriket bo'yicha Jahon kubogi kabi tadbirlarga jalb qilinadi.

Abdullayeva Hilola
“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi
Buxoro davlat universiteti

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI REJALASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni, ayniqsa kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, ularning faoliyatida kelib chiqayotgan muammo va to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha kompleks choralar ko'rilmogda. Joriy yilning 22-avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan "ochiq muloqoti" doirasida tadbirkorlardan kelib tushgan 12 mingdan ortiq murojaatda ko'tarilgan tizimli muammolarning yechimiga qaratilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirish hamda "ochiq muloqot"da belgilangan ustuvor vazifalarni bajarish maqsadida: tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish va ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli ishlash; tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimini yaratish; tadbirkorlar uchun yetarli shart-sharoit, infratuzilma va kafolatli bozor yaratish; mulk huquqini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, mol-mulkni haqiqiy bozor aktiviga aylantirish; tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortishni erkinlashtirish; tadbirkorlar bilan uchrashuvda bildirilgan tashabbuslar ijrosini tashkil etish hamda "ochiq muloqot" natijalarini keng targ'ib qilish. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakil, Savdo-sanoat palatasi, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy doiralar va keng jamoatchilikning muvofiq tarkibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoatchilik kengashini (keyingi o'rinlarda — Jamoatchilik kengashi) tashkil etish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin. Tadbirkorlar bilan "ochiq muloqot"da bildirilgan taklif va tashabbuslarning vazirlik va idoralar tomonidan samarali va o'z vaqtida ijro qilinishi holati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish; davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy doiralar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash; tadbirkorlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish keng qamrovli ishlar rejalashtirildi.¹

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik kompetensiyalarini rejalashtirish Qanday tovar va xizmatlar ishiab chiqarish kerak. Bu tovar va xizmatlarni qayerda hamda qaysi texnologiya orqali ishiab chiqarish kerak. Bu tovar va xizmatlarni kim uchun ishiab chiqarish kerak Muayyan tadbirkorlik g'oyasini amalga oshirish uchun tartibsiz, rejalashtirilmagan hatti-harakatlar emas, balki g'oyani amalga oshirish maqsadlari, vositalari va yollarining mumkin. Tadbirkorlik - bu amaldagi qonunlar doirasida kishilarning foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlik bilan xo'jalik faoliyatini yuritishiga asoslangan sohibkorlik faoliyatidir. Reja - oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishishga qaratilgan kelajak modeli yoki chora-tadbirlar tizimidir. Korxona rejasi - oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishni, resurslarning o'zaro nisbati, balansi, hajmi, uslubi, u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatishning izchilligini, ishlab

¹ . O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 30-avgustdagi PQ-364-son qarori : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda PF-5598- son "To'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyotni, elektron hukumatni, shuningdek, axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida".

chiqarishni bajarish muddatini belgilovchi oldindan ishlab chiqilgan tadbirlar tizimi hisoblanadi. Rejalashtirish - bu tadbirkorlik subyektini tashkil etish, rivojlantirish va faoliyat ko'rsatishi uchun ishlab chiqilgan reja va uning amalga oshirilishini nazorat qilishdir. Umuman olganda, rejalashtirish - bu oldinda turgan harakatlarni asoslash bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni va maqsadlarga erishishning eng samarali usullarini tanlashdir. Biznes reja ~ korxona faoliyatining asosiy yo'nalishlarini o'rganish natijasini ifodalovchi hujjat; bu tashkil qilinayotgan yoki qayta jihozlanayotgan firma ishining tavsifi; bu tadbirkorga o'z ishini tashkil qilish uchun zarur ish quroli. Biznes reja oddiy rejadan farqli o'laroq, muayyan bozorda biror-bir xo'jalik yurituvchi subyekt (XYS)ning tarmoq bo'yicha rivojlanishi rejasini aks ettiradi. YYS bir vaqtning o'zida bir necha biznes rejaga ega bo'lishi mumkin (1-ilova). Biznes rejalar biznes hajmiga qarab turlicha bo'linishi mumkin. Masalan, kichik biznesda biznes reja va korxona rejasi tarkibi va hajmiga qarab bir xil bo'lishi mumkin.¹

Tor doirada TIA - bu boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun maqsad qilingan vazifalarni, majburiyatlarni amalga oshirish imkoniyatiga qarab xaziralar va iqtisodiy natijalarni natijalar hamda qiymat ko'rsatkichlarida asoslash hisoblanadi. Maqsadlar, shartlar va ish hajmiga qarab TIA mustaqil hujjat sifatida biznes reja ishlab chiqish uchun asos bo'linishi yoki biznes rejaga bir bo'lim qilib kiritilishi mumkin. Loyiha - bu kutilayotgan texnik, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun zarur g'oya va uni amalga oshirish uchun zarur vositalarning ifodasi hisoblanadi. Loyiha, shuningdek, ma'lum harakatlarni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va ma'oliyaviy hisob-kitob hujjatlari yigindisi deb ham tushuniladi. Investitsiya loyihasi - bu ijtimoiy samaraga erishish yoki daromad olish uchun yangi tovar (xizmat)ni ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan kompleks choralar-tadbirlar yig'indisidir. Biz ushbu qo'llanmada zarurlik darajasiga qarab reja, biznes reja, tadbirkorlik loyihasi, TIA kabi atamalarini uyg'unlashgan holda ishlatdik, Tadbirkorlik loyihasi - daromad olish maqsadida ishlab chiqarish yoki tadbirkorlikning turli sohalarida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarishni tashkil etishga yo'naltirilgan loyiha tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asosida shu loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash yotadi. Rejalashtirish - bu tadbirkorlik subyektini tashkil etish, rivojlantirish va faoliyat ko'rsatishi uchun ishlab chiqilgan reja va uning amalga oshirilishini nazorat qilishdir. Umuman olganda, rejalashtirish - bu oldinda turgan harakatlarni asoslash bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni va maqsadlarga erishishning eng samarali usullarini tanlashdir. Biznes reja-korxona faoliyatining asosiy yo'nalishlarini o'rganish natijasini ifodalovchi hujjat; bu tashkil qilinayotgan yoki qayta jihozlanayotgan firma ishining tavsifi; bu tadbirkorga o'z ishini tashkil qilish uchun zarur ish quroli. YYS bir vaqtning o'zida bir necha biznes rejaga ega bo'lishi mumkin. Biznes rejalar biznes hajmiga qarab turlicha bo'linishi mumkin. Biznes reja oddiy rejadan farqli muayyan bozorda biror-bir xo'jalik yurituvchi subyekt (XYS)ning tarmoq bo'yicha rivojlanishi rejasini aks ettiradi. YYS bir vaqtning o'zida bir necha biznes rejaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, kichik biznesda biznes reja va korxona rejasi tarkibi va hajmiga qarab bir xil bo'linishi mumkin. Shuningdek, biron loyihani amalga oshirish yoki biron texnologiyani joriy etishda ayrim hollarda texnik-iqtisodiy asosnoma ishlab chiqish talab qilinadi. Texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) - bu tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish va loyiha bo'yicha yakuniy qaror qabul qilishning eng muhim investitsiyalash bosqichlaridan biri hisoblanadi. Tor doirada TIA - bu boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun maqsad qilingan vazifalarni, majburiyatlarni amalga oshirish imkoniyatiga qarab xaziralar va iqtisodiy natijalarni natijalar hamda qiymat ko'rsatkichlarida asoslash hisoblanadi. Maqsadlar, shartlar va ish hajmiga qarab TIA mustaqil hujjat sifatida biznes reja ishlab chiqish uchun asos bo'linishi yoki biznes rejaga bir bo'lim qilib kiritilishi mumkin. Loyiha - bu kutilayotgan texnik, texnologik va tashkiliy-iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun zarur g'oya va uni amalga oshirish uchun zarur vositalarning ifodasi hisoblanadi. Loyiha, shuningdek, ma'lum harakatlarni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy va ma'oliyaviy

¹ . Chepurensko A.Yu. Predprinimatelstvo kak sfera sotsialnykh issledovaniy: Rossiya i mejdunarodnyy opyt
// <https://www.researchgate.net/publication/282847838>

hisob-kitob hujjatlari yigindisi deb ham tushuniladi. Investitsiya loyihasi - bu ijtimoiy samaraga erishish yoki daromad olish uchun yangi tovar (xizmat)ni ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar yig'indisidir. Biz ushbu qo'llanmada zarurlik darajasiga qarab reja, biznes reja, tadbirkorlik loyihasi, TIA kabi atamalami uyg'unlashgan holda ishlatdik, tadbirkorlik loyihasi - daromad olish maqsadida ishlab chiqarish yoki tadbirkorlikning turli sohalarida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarishni tashkil etishga yo'naltirilgan loyiha tushuniladi. Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asosida shu loyihani amalga oshirish imkoniyatlarni aniqlash yotadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu loyihani qo'llash tadbirkorlikni rivojlantirishga o'z hissasini.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 30-avgustdagi PQ-364-son qarori : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda PF-5598- son "To'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyotni, elektron hukumatni, shuningdek, axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida".

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

3. Zamaletdinova R.R. Maliy biznes v zarubejnix stranax // J. Vestnik nauki. – M.: 2020. - №5 (26). T. 4. – S. 20. 2. Chepurensko A.Yu. Predprinimatelstvo kak sfera sotsialnoy issledovaniy: [opyt//https://www.researchgate.net/publication/282847838](https://www.researchgate.net/publication/282847838)
Predprinimatelstvo_kak_sfera_socialnyh_issledovaniy_rossia_i_mezhdunarodnyj_ opyt.

4. Shayxutdinova G.F., Oxotnikova L.V. Zarubejnyy opit podgotovki predprinimateley // J. Vestnik Irkutskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. – Irkutsk: 2014. - № 1. – S. 37.

Mardonova Dilrabo Shirinboyevna.
"Ipak yo'li" xalqaro Turizm va madaniy
meros universiteti tayanch doktoranti

MAMLAKATIMIZDA MEXMONXONA BIZNESINING HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLIL QILISH

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizdagi mehmonxona biznesining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarining tahlili taqdim etilgan. Bundan ko'zlangan maqsad, kelgusida mehmonxonalar duch kelishi mumkin bo'lgan potensial imkoniyatlar va muammolarni baholashdan iborat. Bundan tashqari maqolada mamlakatimizda mavjud mehmonxonalar, mehmon uylari va xostellar soni yillar kesimida batafsil keltirilgan va tahlil qilingan. Bu esa o'z navbatida mehmonxona egalariga bozorning o'zgaruvchan dinamikasini yaxshiroq tushunishga va ularning raqobatbardoshligi va o'sishini oshirish strategiyalarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar. Mehmonxona biznesi, sifat va samaradorlik, turistik salohiyat, bozor dinamikasi, mehmon uylari, xostellar, tendensiya.

Kirish. Turizm va mehmonxona biznesi iqtisodiyotning ajralmas qismidir. Mehmonxona biznesiga bo'lgan talabning tobora oshishi bevosita turizm sohasining jadal suratlarda rivojlanishi bilan bog'liq. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, turizm sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga, aholini ish bilan bandligini ta'minlashga va turmush madaniyatining yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, turizmi rivojlangan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ham yuksaladi. Shuni e'tiborga olgan holda, hozirda ko'plab mamlakatlar turizm sohasiga katta e'tibor qaratmoqdalar. Buning natijasida, ushbu mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi asosan turizm hisobidan amalga oshirilmoqda va mazkur

sohaning ajralmas qismi bo'lgan mehmonxona xo'jaliklari tizimi ham tarmoq sifatida shakllanib kelmoqda.

Ma'lumki, yurtimizda ham turizm va mehmonxona sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, mamlakatimiz katta turistik salohiyatga ega davlat hisoblanadi. O'zbekiston 2022-yilda dunyoning turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan davlatlar orasida 4-o'rinni, dunyoning turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan davlatlar nominatsiyasida 1-o'rinni egalladi.¹

Turizm va mehmonxona biznesi iqtisodiyotning eng integratsiyalashgan tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Mehmonxona sohasini adekvat rivojlantirmay turib turizmni rivojlantirib bo'lmaydi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, mehmondo'stlik sanoatining tarkibiy qismlari turar joy va oziq-ovqat sektorini qamrab oladi. Sayohat va turizm o'z navbatida, dam olish va o'yin-kulgi, transport, agentliklar va turoperatorlarni o'z ichiga oladi. Mehmonxonalarning asosiy vazifasi, turistik xizmatlarni yaratish, dam olish sharoitlarining qulayligi, xizmat ko'rsatuvchi va mehmonlarning ehtiyojlarini qondirishi kerak bo'lgan xodimlarning xushmuomala xulq-atvorining uyg'un kombinatsiyasi, ularning xavfsizligini, jismoniy va psixologik qulayligini ta'minlash hisoblanadi. Shu o'rinda, mehmonxona biznesining rivojlanishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular tashqi va ichki omillarni tashkil etadi. Tashqi omillar mehmonxona faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan atrofdagi voqelikning tarkibiy qismlari ta'siriga bog'liq. Ichki omillar esa, mehmondo'stlik sohasidagi korxonalarining o'ziga xos xususiyatlari va tashkilotlarining faoliyati bilan chamcharchas bog'liqdir: siyosiy va huquqiy, sayohat xavfsizligi, iqtisodiy va moliyaviy, madaniy, infratuzilma-kommunikatsiya, demografik, savdo rivojlanishi, yangi va eng so'ngi texnologiyalar kiradi.


O'zbekiston Yevroosiyo mintaqasida geopolitik joylashuvi, turistlar uchun yangi hududligi, xalqaro va mahalliy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bilan muhim ahamiyatga ega. Boy tabiiy, xomashyo potentsiali, mehnat resurslarining mavjudligi, siyosiy barqarorlik hamda xalqaro avialiniyalar va aloqalar tarmog'ining mavjudligi bu o'lkada turizmning hamma ko'rinishlarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Rang-barang tabiiy-iqlim sharoitlari, landshaftlar va issiq iqlim turistlarni yil davomida qabul qilish imkonini beradi. Tashqi turizm hajmi ichki va mahalliy turizm hajmidan sezilarli darajada yuqoridir. Bu esa mamlakatga kirayotgan turistlarga nisbatan chetga chiqayotgan turistlar sonining ko'pligini bildiradi.

2022-yil sentabrgacha bo'lgan davrda yurtimizga kelgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravarga ko'paydi. 2021-yilning 8 oyida xorijlik turistlar soni – 1,1 million, 2022-yilning o'tgan davrida – 3,1 million nafarni tashkil etdi. 2022-yilda yurtimizga kelgan mehmonlarning sayohati o'rtacha 4-5 kungacha, sarflagan mablag'I 305 dollargacha ko'paydi (bu 2019 yilda o'rtacha 3 kunni tashkil etib, ular 195 dollar sarflagan). Ichki sayohat qiluvchilar soni ham, o'tgan yilga nisbatan 3,5 baravarga o'sib, 7,5 million nafarni tashkil qildi.²

1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'ylab joylashtirish vositalarining hozirgi soni keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Toshkent viloyati hamda Toshkent shahri joylashtirish vositalarining soni jihatidan yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda. (1097 va 704). Samarqand viloyati esa, Namangan viloyatidan keyin 498 ta joylashtirish vositalariga egalik qilmoqda.

¹ UNWTO.

² Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari

1-jadval¹

Joriy yilda, mamlakatimizda mavjud mehmonxonalar holati xatlovdan o'tkazildi. Xatlov natijalari bo'yicha 2023-yilning 1-iyun kuni holatiga respublikamizda jami 4911 ta joylashtirish vositalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shulardan 952 tasi mehmonxona, 590 tasi xostel, 3114 tasi oilaviy mehmon uylari va 255 tasi boshqa turdagi joylashtirish vositalardir. ²

Yuqoridagi raqamlardan ko'rish mumkinki, Respublikamizda joylashtirish vositalarining soni o'sib borish dinamikasini ko'ratmoqda.

Samarqand viloyati miqyosida joylashtirish vositalariga alohida to'xtaladigan bo'lsak, 2022-yil holatiga ko'ra, 136 ta mehmonxona, 290 ta oilaviy mehmon uylari, 52 ta xostellar mavjud ekanligini ko'rish mumkin. (2-jadval).

2-jadval³

Samarqand viloyati joylashtirish vositalri soni
(2017-2022-yillar kesimida)

Joylashtirish vositalari	O'lchov birligi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
<i>Mehmonxona</i>	Dona	107	125	145	160	112	136
	Xona	558	724	2671	2950	2413	5278
	O'rin	3910	5008	6069	6569	5136	10850
<i>Oilaviy mehmon uylari</i>	Dona	0	23	151	170	227	290
	Xona	0	91	586	694	1135	1171
	O'rin	0	211	1362	1611	2050	2759
<i>Xostellar</i>	Dona		0	0	7	29	52
	Xona	0	0	0	50	246	467
	O'rin	0	0	0	178	697	1355

Xulosa va takliflar. Turizmning rivojlanishi birinchi navbatda turizm industriyasining o'zagi bo'lgan mehmonxonalarning rivojlanishi bilan ham bog'liq. Chunki, mehmonxona biznesi turizmning ajralmas qismi bo'lib, birinchi navbatda turistlarni qabul qiluvchi va turistlarning tunashga, dam olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi, murakkab xizmatlarni amalga oshiruvchi eng muhim bo'lagi hisoblanadi. Shuning uchun ham, XXI asr turizmida mehmonxonalar biznesida

¹ "Iqtisodiy tadqiqotlarga asoslangan oliy ma'lumotli iqtisodchi kadrlarni tayyorlash: muammolar va innovatsion yechimlar" mavzusidagi

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, Buxoro davlat universiteti 2023 yil 6-7 iyun, 405-bet.

² Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari.

³ Turizm va madaniy meros vazirligi ma'lumotlari asosida ilmiy tadqiqotchi tomonidan mustaqil tayyorlandi.

nafaqat xizmatlar assortimentini ko'paytirishga, balki ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini va samaradorligini oshirishga alohida etibor berilmoqda, ya'ni xizmatlarning sifatini va samaradorligini oshirishda yangidan yangi texnologiyalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har qanday faoliyat turi hoh u ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'lsin boshqaruvni hamda yuqori daromad olish va samaradorligini oshirish uchun boshqaruvdan samarali foydalanishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mehmonxona xo'jaligida boshqaruv qonunlari, qonuniyatlari, funksiyalari, tamoyillari, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi boshqa shu kabi boshqaruvga oid masalalarni o'rganish hamda amaliyotga joriy etish muhimdir.

Yuqoridagi fikr mulohazlarni e'tiborga olgan holda mehmonxona biznesini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflar berildi:

-texnologiyaga asoslangan xizmatlarni joriy qilish: texnologiyaning yuksalishi bilan mehmonxonalar mehmonlar tajribasini yaxshilash uchun yangi va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish; Mobil ro'yxatdan o'tishdan tortib chatbotlardan foydalanishgacha mehmonxonalar mehmonlarga xizmat ko'rsatishda yanada moslashtirilgan va avtomatlashtirilgan yondashuvni joriy qilish;

-barqarorlik va ekologik tozalikni joriy qilish: ko'pgina mehmonxonalar suv va energiya chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va mahalliy tovarlar va xizmatlarni ilgari surish kabi barqaror va ekologik toza amaliyotlarni o'zlashtirmoqdalar, mamlakatimizga ham shu jarayonni tadbiq etish orqali mehmonxonalar samaradorligini oshirish mumkin;

-butik mehmonxonalarni ko'paytirish: kichik mustaqil butik mehmonxonalarning ortishi, sayohatchilarning standartlashtirishdan ko'ra noyob va shaxsiy tajribaga intilishlariga sabab bo'ladi;

-salomatlikka e'tiborning ortishi: bir nechta tadqiqotlarga ko'ra, sog'lomlashtirish turizmi bozori umumiy turizmga qaraganda ikki baravar tez o'sib bormoqda. Shu sababli, mehmonxonalar kurort muolajalari, yoga mashg'ulotlari va sog'lom ovqatlanish imkoniyatlari kabi sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan qulayliklar va xizmatlarni taklif etish madsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. Eshtaev A. "Turizm sohasida mehnat salohiyatidan oqilona foydalanishning marketing strategiyasi" "O'zbekiston mehnat salohiyati: hozirgi holati va undan foydalanish istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman tezlari to'plami Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2011 yil 20 dekabr
3. "Iqtisodiy tadqiqotlarga asoslangan oliy ma'lumotli iqtisodchi kadrlarni tayyorlash: muammolar va innovatsion yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, Buxoro davlat universiteti
4. Ляпина И.Ю. Организация и технология гостиничного обслуживания: Учебник для проф. образования, 2-ое изд., стер. - М.: Издательский дом «Академия», 2002.- 202 с.;
5. Федоров Р.Г. Гостиничный бизнес, как составляющая современной индустрии туризма, Молодой ученый.-2013. - №4. С. 307-311;
6. Саак А.Э., Якименко М.В. Менеджмент в индустрии гостеприимства. СПб «Питер», 2007. - 428 с.
7. Волков Ю.В. Введение в гостиничный и туристический бизнес. Ростов-на-Дону, 2008. - 352 с

TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI REJALASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik kompetensiyasini rejalashtirishning maqsadi va mohiyati tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillari, tadbirkorlik subyekti (korxona, tashkilot, firma) ichki rejalarining mukammalligi, sifat darajasi haqida yoritilgan. U o‘z ichiga istiqboldagi maqsadlarini aniqlash va ularga erishish yo‘llari hamda resurs ta‘minotini oladi. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi tadbirkorlik faoliyatida ham har bir tadbirkor masalalarini hal qilish yo‘llari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tovar, subyekt, firma, tadbirkorlik, biznes-reja, investitsiya, texnik, kompleks, reja, biznes, texnologiya, loyiha.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni, ayniqsa kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, ularning faoliyatida kelib chiqayotgan muammo va to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rilmoqda. Natijada o‘tgan yillar davomida 55 mingdan ortiq biznes uchun mo‘ljallangan binolar barpo etildi. 2022-yilning 22-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan “ochiq muloqoti” doirasida tadbirkorlardan kelib tushgan 12 mingdan ortiq murojaatda ko‘tarilgan tizimli muammolarning yechimiga qaratilgan taklif va tashabbuslarni amalga oshirish hamda “ochiq muloqot”da belgilangan ustuvor vazifalarni bajarish maqsadida: tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha manzilli ishlash; tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay moliyalashtirish tizimini yaratish; tadbirkorlar uchun yetarli shart-sharoit, infratuzilma va kafolatli bozor yaratish; mulk huquqini ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, mol-mulkni haqiqiy bozor aktiviga aylantirish; tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortishni erkinlashtirish; tadbirkorlar bilan uchrashuvda bildirilgan tashabbuslar ijrosini tashkil etish hamda “ochiq muloqot” natijalarini keng targ‘ib qilish. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, Savdo-sanoat palatasi, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy doiralar va keng jamoatchilikning muvofiq tarkibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoatchilik kengashini (keyingi o‘rinlarda — Jamoatchilik kengashi) tashkil etish to‘g‘risidagi taklifga rozilik berilsin. Tadbirkorlar bilan “ochiq muloqot”da bildirilgan taklif va tashabbuslarning vazirlik va idoralar tomonidan samarali va o‘z vaqtida ijro qilinishi holati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish; davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy doiralar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasida samarali hamkorlikni ta‘minlash; tadbirkorlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazish; tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘siq va g‘ov bo‘layotgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish hamda vakolatli davlat organlariga taqdim etish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.¹

Jadal rivojlanib borayotgan hozirgi iqtisodiyot sharoitida turli odamlar o‘zlarining maqsadlari, vazifalari, o‘ziga xos xatti-harakatlari va har bir insonning xarakterli xususiyatlari bilan uchrashadilar va harakat qiladilar. Bunady xarakter xususiyatini bir atama bilan yuritishimiz mumkin: kompetentlik.²


KOMPETENTLIK – ma‘lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo‘lib, ma‘lum sohadagi bilim, ko‘nikma va tajribani mujassamlashtirishi. Kompetentlik insonga muayyan

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6178038>

² <https://oyina.uz/uz/teahause/319>

masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi. Hozirgi zamon fanida kasbiy kompetentlik, ilmiy, boshqaruv, pedagogik, didaktik, metodik, ijtimoiy-psixologik kompetentlikka oid tushunchalar keng qo'llanadi. Boshqaruvga oid kompetentlik ana shu sohaga taalluqli bilim va ko'nikmalarning, rahbarlik faoliyatida amaliy tajribaning mavjudligi bilan belgilanadi. Har bir sohaning o'ziga xos kompetentlik xususiyatlari mavjud. Jamiyatimizdagi shunday sohalardan biri tadbirkorlik bo'lib, insonlar orasida eng faol shaxs tadbirkordir. Tadbirkor eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatini qanday amalga oshirishni, qanday sharoitda amaliy harakat qilishni, tadbirkor oldida uchraydigan to'siqlarni hal qilish yo'llarini va qanday yutuqlarga erishishni bilishi kerak. Tadbirkorlik faoliyatini tanlagan har bir inson ya'ni tadbirkor - ishlab chiqarishni jarayonlarini tashkil etishni shuningdek tayyorlangan maxsulotlarni sotishni, bozor munosabatlari sharoitida yuzaga keladigan aniq sharoitlarni baholashni va har qanday sharoitda aniq yo'l tanlashni bilishi lozim. Tadbirkorlik sohasini tanlagan har bir inson bir narsani hech qachon unutmasligi kerak: hech kim, hech qachon tadbirkorga nima qilishni o'rgatmay va qiyinchilik vaziyatlarda yordamga kelmaydi. Har bir tadbirkor faqat o'z kuchiga, bilimiga, qobiliyatiga va zakovatiga ishonishi va tayanishi lozim.

“Tadbirkorlik qobiliyati” (TQ) iqtisodiy atama sifatida biznesni harakatga keltiruvchi kuch sifatida bosqichma-bosqich shakllanish xususiyatiga ega ekanligini aniqlab, mikroiqtisodiyot sathida shakllanishining beshta bosqichlari asoslab berildi (1-rasm).



1-rasm. Tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish bosqichlari¹

Tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim shart-sharoitlaridan biri ishlab chiqarishning shaxsiy omili sifatidagi tadbirkorlik qobiliyatini biznes amaliyotida namoyon etib, unumli ishlata olishdan iborat. Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik qobiliyatining namoyon bo'lishiga “yakka tartibdagi tadbirkor”, “kichik tadbirkor”, “menejer”, “oilaviy tadbirkor” kabi an'anaviy shakllariga yetarlicha izohlar berilgan. Lekin, ushbu qobiliyat namoyon bo'lishining innovatsion va zamonaviy shakllariga xos jihatlar iqtisodchi olimlari tomonidan maxsus o'rganilmagan. Shu sababli, dissertatsiya doirasida “o'zini o'zi band qilgan shaxslar”, “ichki tadbirkor”, “innovatsion tadbirkor”, “investor”, “biznes-konsultant” kabi tadbirkorlik qobiliyatini namoyon etuvchi zamonaviy shakllarning o'ziga xos xususiyatlari batafsil ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlikdagi muhim omil va kompetensiya: tadbirkorning shaxsiy xususiyatlaridir. Tadbirkor bo'lishi uchun tashkilotchilik kompetensiyalaridan tashqari faqatgina shaxsanni o'ziga bog'liq kompetensiyalar ham majud, sarmoya va huquqiy muhit to'la bo'lganda ham ikki muhim kompetensiyalarsiz u haqiqiy tadbirkor bo'la olmaydi. Bu uning ishbilarmonlik, tijorat qobiliyatidir. Ishbilarmonlik juda keng tushunchaga ega. Bu avvalo, nazariy va amaliy bilimlar yig'indisi bo'lib, bu yerda eng avvalo, iqtisodiyot asosini, aynan bozor iqtisodiyotini bilish zarur. Ma'lumki, iqtisodiyotni bilmaydigan va tushunmaydigan inson, bozorning farqiga bormay turib tadbirkor bo'lish mumkin emas. Tadbirkorlar bozor iqtisodiyotining ijodkorlaridir. Chunki ular oddiy ijrochi emas, balki bozor iqtisodiyoti, uning munosabatlari, mexanizmlariga ijobiy yondashuvchilar, ravnaq topishiga sababchi bo'ladigan, bozor to'g'risidagi tushunchani boyituvchi, uning turliligini ta'minlovchi real holatini boyituvchi shaxslardir. Bulardan tashqari, tadbirkorlar haqiqiy insoniy qobiliyatlar va xususiyatlarga ega bo'lishlari lozimki, ular haqiqatdan

¹ L.B.Navruz-zoda Avtoreferat (1) Inson tadbirkorlik qobiliyatini baholash mexanizmini takomillashtirish, 12- bet

ham ish boshi, tashkilotchi, boshqaruvchi, ko'pchilikni birlashtira olish qobiliyatiga ega shaxs bo'lishi zarur.

Tadbirkorga xos kompetensiyalardan biri uning madaniyatidir. Tadbirkorlik madaniyatining asosiy belgilari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1. Tadbirkorlik madaniyati – bu madaniyat omillarini hamma yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy tashkil qilish (moddiy va ma'naviy);

2. Bu madaniyatning bazi elementlari rivojlanishi bo'yicha g'oya, maqsad, vazifalarning bir-biriga mos kelishi;

3. Tadbirkorning amaldagi qonunchilik asoslari doirasida faoliyat yuritishi;

4. Tadbirkorning ijtimoiy-iqtisodiy, texnikaviy, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayanishi;

5. Tadbirkor o'z faoliyatida xodimlarini va hamkorlarini eng qadrli kishilari sifatida qabul qilishi kerak;

6. Tadbirkor har doim kelajakka ishonch va umid bilan qolganlarni o'ziga ham ishontira bilishi va ergashtira olishi lozim.

Tadbirkorning tadbirkor bo'lib shakllanishiga tadbirkorlik kompetensiyalaridan tashqari bir qator omillar ta'sir etadi - ma'lumoti, xarakteri, oilaviy holating ta'siri, oldingi ish va hayotiy tajribasi, o'z ishiga munosabati, rejaları va h.k.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida yuqori malakali tadbirkorlarga ega bo'lish uchun. Mamlakatimizda bu sohada juda katta ishlar olib borilmoqda va mutaxassislar tayyorlashda muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. Tadbirkor-biznesmenlar tayyorlash kengaytirilmoqda, Yetakchi mamlakatlarda o'qishga minglab yoshlar yuborilmoqda. O'qish, o'qitish, mutaxassislar tayyorlash tizimi bozor talabi asosida qayta ko'rilmogda. Amaliyotda o'z shaxsiy manfaatini xalq manfaati bilan bog'lovchi, xalq uchun zarur bo'lgan ishlarni o'z hisobiga bajaruvchi, xomiylik qiluvchi tadbirkorlar juda ko'p. Xar tomonlama ilg'or, yuqori madaniyatli, xalqparvar va xalq oldida katta obro'ga ega badavlat tadbirkor-sohibkorlar ayniqsa rivojlangan iqtisodiyoti yuqori darajadagi mamlakatlarda oddiy holatdir. Rim huquqida «tadbirkorlik» kasb, tadbirkorlik, faoliyat, ayniqsa tijorat sifatida qaralgan. Tadbirkor deganda ijarachi - jamoat qurilishiga rahbarlik qiluvchi shaxs tushunilgan. O'rta asrlarda "tadbirkor" tushunchasi bir necha ma'noda qo'llanilgan. Bularga, birinchi navbatda, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi shaxslar kiradi. Bunday tadbirkorlikning birinchi namunalaridan biri Yevropa va Xitoy o'rtasidagi savdo-sotiqni rivojlantirishga kashshof bo'lgan sayohatchi Marko Polodandir. Sayohatga ketayotgan savdogar (tadbirkor) savdogar (bank) bilan tovarlarni sotish bo'yicha shartnoma tuzdi. Bunday sayohat chog'ida tadbirkor turli jismoniy va ma'naviy sinovlarga duch kelgan bo'lsa-da, yakunida u o'z foydasining 75 foizini savdogarga (bankka) berishga majbur bo'ladi. Paradlar, stendlar va tomoshalar tashkilotchilari ham tadbirkorlar qatoriga kiritildi. Bundan tashqari, ushbu kontsepsiya yirik sanoat va qurilish loyihalari rahbarlariga nisbatan ishlatilgan. Bunday loyiha rahbari hech narsani xavf ostiga qo'ymadi - u o'ziga berilgan moliyaviy, moddiy va savdo resurslaridan foydalangan holda uni tashkil etish bo'yicha barcha ishlarni nazorat qildi.

"Tadbirkor" va "tadbirkorlik" tushunchalarini zamonaviy ma'noda birinchi marta 17-asr oxiri – 18-asr boshlari ingliz iqtisodchisi R. Kantillon (1680-1734) ishlatgan. Uning fikricha, tadbirkor deganda tavakkalchilik sharoitida ish yurituvchi shaxs tushuniladi. Fransuz C. Bodo R. Kantilyondan uzoqroqqa bordi. Uning ta'kidlashicha, tadbirkor ma'lum bir aql-zakovatga, ya'ni turli xil ma'lumotlarga va bilimlarga ega bo'lishi kerak. Boshqa bir frantsuz iqtisodchisi Turgot tadbirkor nafaqat ma'lum ma'lumotlarga, balki kapitalga ham ega bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. U kapital butun iqtisodiyotning asosi, foyda tadbirkor muvaffaqiyatining maqsadi, ishlab chiqarishni rivojlantirish asosi ekanligini ta'kidladi.

A.Smit tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Tadbirkor, Smitning fikricha, tijorat g'oyasini amalga oshirish va foyda olish uchun iqtisodiy tavakkal qiladigan kapital egasidir. Olimning fikricha, tadbirkor asosan kapitalist. A.Smit davlatning tadbirkorlik faoliyatiga

aralashuviga qarshi chiqqan birinchi olim-iqtisodchidir. U tadbirkorlar o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish tarafdori va yirik monopoliyalarga qarshi edi.

Keyinchalik fransuz iqtisodchisi J.-B. Bu "Siyosiy iqtisod traktati" (1803) kitobida tadbirkorlik faoliyatining ta'rifini ishlab chiqarishning uchta klassik omili - er, kapital, mehnatning kombinatsiyasi, kombinatsiyasi sifatida shakllantirdi. U tadbirkorlikni ishlab chiqarish omillari bilan ishlash - ularni kichik daromad keltiradigan joyda qazib olish, keyin ularni ko'chirish va eng ko'p daromad keltiradigan boshqa joyga qayta birlashtirish deb ta'riflagan.

¹Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik kompetensiyalarini rejalashtirish. Qanday tovar va xizmatlar ishlab chiqarish kerak. Bu tovar va xizmatlarni qayerda hamda qaysi texnologiya orqali ishlab chiqarish kerak. Bu tovar va xizmatlarni kim uchun ishlab chiqarish kerak Muayyan tadbirkorlik g'oyasini amalga oshirish uchun tartibsiz, rejalashtirilmagan hatti-harakatlar emas, balki g'oyani amalga oshirish maqsadlari, vositalari va yo'llarining mumkin. Tadbirkorlik - bu amaldagi qonunlar doirasida kishilarning foyda olishga qaratilgan tashabbuskorlik bilan xo'jalik faoliyatini yuritishiga asoslangan sohibkorlik faoliyatidir. Reja - oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishishga qaratilgan kelajak modeli yoki chora-tadbirlar tizimidir. Korxona rejasi - oldiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishni, resurslarning o'zaro nisbati, balans, hajmi, uslubi, u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatishning izchilligini, ishlab chiqarishni bajarish muddatini belgilovchi oldindan ishlab chiqilgan tadbirlar tizimi hisoblanadi. Rejalashtirish - bu tadbirkorlik subyektini tashkil etish, rivojlantirish va faoliyat ko'rsatishi uchun ishlab chiqilgan reja va uning amalga oshirilishini nazorat qilishdir. Umuman olganda, rejalashtirish - bu oldinda turgan harakatlarni asoslash bo'yicha ma'lum otlarni qayta ishlash jarayoni va maqsadlarga erishishning eng samarali usullarini tanlashdir. Biznes reja-korxona faoliyatining asosiy yo'nalishlarini o'rganish natijasini ifodalovchi hujjat; bu tashkil qilinayotgan yoki qayta jihozlanayotgan firma ishining tavsifi; bu tadbirkorga o'z ishini tashkil qilish uchun zarur ish quroli. Biznes reja oddiy rejadagi farqli o'laroq, muayyan bozorda biror-bir xo'jalik yurituvchi subyekt (XYS)ning tarmoq bo'yicha rivojlanishi rejasini aks ettiradi. YYS bir vaqtning o'zida bir necha biznes rejaga ega bo'lishi mumkin (1-ildan). Biznes rejalar biznes hajmiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, kichik biznesda biznes reja va korxona rejasi tarkibi va hajmiga qarab bir xil bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 30-avgustdagi PQ-364-son qarori : O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-dekabrda PF-5598- son "To'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyotni, elektron hukumatni, shuningdek, axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida". 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

2. <https://oyina.uz/uz/teahouse/319>

3. Zamaletdinova R.R. Maliy biznes v zarubejnyx stranax // J. Vestnik nauki. – M.: 2020. -№5 (26). T. 4. – S. 20. 2. Chepurens A.Yu. Predprinimatelstvo kak sfera sotsialnyx issledovaniy: opyt//<https://www.researchgate.net/publication/282847838>

Predprinimatelstvo_kak_sfera_socialnyh_issledovaniy_rossia_i_mezhdunarodnyj_ opyt. 3. Shayxutdinova G.F., Oxotnikova L.V. Zarubejnyy opit podgotovki predprinimateley // J. Vestnik Irkutskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta. – Irkutsk: 2014. - № 1. – S. 37.

4. Bacigalupo, M., Kampylis, P., Punie, Y., Van den Brande, G. (2016).EntreComp: The Entrepreneur-ship Competence Framework. Luxembourg: Publication Office of the European Union; EUR 27939 EN; 39 p doi:10.2791/593884

¹ Chepurens A.Yu. Predprinimatelstvo kak sfera sotsialnyx issledovaniy: Rossiya i mejdunarodnyy opyt // <https://www.researchgate.net/publication/282847838>

ЭТНОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ: МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМИ КОНТЕКСТИДА

Аннотация: Мақолада Ўзбекистонда этнотуризмга маданий меросни сақлаш ва тиклаш омили, ҳамда ҳудудларни жадал ривожлантириш, янги иш ўринларини яратиш, аҳолининг даромадлари ва турмуш даражасини оширишни таъминловчи стратегик тармоқлардан бири сифатида эътибор қаратилмоқда. Республиканинг этнотуристлик имкониятларни аниқлаш ва унинг ўзига хос турларини ташкил этишнинг илмий ва амалий асосларини ишлаб чиқиш, комплекс илмий тадқиқотлар олиб бориш йўллари таҳлил этилган. Этнотуризмни шаклланган комплекс туризм маҳсулоти таркибида эмас, балки мустақил туризм тармоғи сифатида ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга эканлиги мақолада ўз аксини топган.

Калим сўзлар: туризм, сайёҳат, моддий маданият, этнотуризм, этнос, назарий, амалий, халқаро, инновация, урф-одатлар.

Бугун туризмнинг дунё иқтисодиётидаги ўрни мустаҳкамланиб, муҳим макроиқтисодий тармоқлардан бири сифатида жадал ривожланиши жаҳондаги кўпгина давлатларнинг асосий даромад манбаига айланди. Ўзбекистонда мазкур соҳани ривожлантириш, унинг иқтисодиётдаги мавқеини кучайтириш мақсадида туризмни ривожлантиришга қаратилган кўплаб қонун, фармон ва қарорлар қабул қилинди. Соҳа ривожига сезиларли таъсир этувчи асосий омиллар таҳлили нафақат ижтимоий- иқтисодий факторларни, балки илмий асосланган таклифларни ҳам ишлаб чиқишни тақозо этмоқда. Хусусан, миллий ва халқаро тажриба асосида Ўзбекистонда аҳоли бандлигини таъминлаш, туризм салоҳияти юқори ҳудудлар, хусусан қишлоқ ва маҳаллаларнинг имкониятини ошириш ҳамда такомиллаштириш бўйича илмий изланишлар олиб бориш, тадқиқотлар кўламини янада кенгайтириш куннинг долзарб муаммоларидан бирига айланди.

Хорижда ва Ўзбекистонда туризм индустриясининг фаол ривожланаётган этнотуризм маълум бир ҳудудда яшаётган халқларнинг турмуш тарзи, анъаналари, моддий ва маънавий маданияти билан яқиндан таништиришдан иборат. Туризмнинг ушбу турини кенг ривожлантириш орқали мамлакатимиз ҳудудларининг тарихий-маданий меросини асраб-авайлаш, тадбиркорлар учун барқарор бизнесга айлантириш, шунингдек, Ўзбекистон аҳолисининг иқтисодий ва ижтимоий фаровонлигини таъминлаш мумкин.

Республикада этнотуризмни ривожлантириш учун мутахассислар ҳали етарли тажриба ва кўникмаларга эга эмас, соҳа хануз илмий асосда тўлалигича тадқиқ этилмаган. Албатта бундай мураккаб вазифани хал этиш учун илмий жиҳатдан кенг ва комплекс тадқиқотлар олиб бориш муҳим ҳисобланади. Тадқиқотчилар минтақанинг тарихи, моддий ва маънавий маданияти, ижтимоий-иқтисодий имкониятларини ўрганиши, таҳлил этиш ва улардан имкон даражада этнотуризмни ривожлантириш мақсадида фойдаланилса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Ўзбекистон этнотуризмни ривожлантириш учун барча имкониятларга эга мамлакат, зеро она заминимизда бутун дунёга маълум ва машҳур бўлган аجدодларимиз мангу кўним топган, улар қолдирган бой моддий ва маънавий- маданий меросга нафақат халқаро майдонда, балки маҳаллий аҳолининг қизиқиши ҳам кун сайин ошиб бормоқда. Шу боис сайёҳликни янада ривожлантириш, аввало соҳага зарур бўлган мутахассисларни таёрлаш муҳим вазифалардан биридир.¹ Таъкидлаш жоизки, мазкур соҳада гарчи йиллар давомида етарли тажриба тўпланган бўлсада, ҳали ўз ечимини кутаётган муаммолар анчагина, хусусан, кадрлар масаласи. Сўзсиз, сўнгги йилларда этнотуризмни ривожлантириш борасида анчагина хайрли ишлар қилинди, соҳага оид турли тадбирларнинг ўтказилиши

¹ Ўзбекистон Республикасининг Қонуни.18.07.2019 йилда ЎЗҚ-549-сон.

амалга оширилаётган муҳим амалий тадбирлардан ҳисобланади. Аммо, мазкур соҳада кадрлар масаласининг етишмаслиги, уларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш соҳасида анчагина муаммолар мавжуд. Соҳа учун кадрлар тайёрлайдиган олий ўқув юртларини дарслик, ҳамда ўқув қўлланмалар билан таъминлаш ҳолати ҳам бугунги кун талаб даражасида эмаслиги барчага маълум ва унинг сабабларини қуйидагича изоҳлаш мумкин:

- кадрлар тайёрлаш учун зарур дарслик ва қўлланмаларнинг етишмаслиги, уларни яратишнинг мураккаблиги шундаки, олимлар замон талабига мос дарслик ва ўқув қўлланмалар ёзишлари учун, мазкур фан соҳасида нафақат республика балки хорижда амалга оширилаётган соҳага оид янгиликлардан қисман бўлсада хабардор бўлишлари талаб этилади. Шу билан бирга, дарслик ва қўлланмалар тингловчиларнинг талабларини қондира олишлари, касбий имкониятлари доирасида ундан самарали фойдалана олишларини таъминлаши зарур;

- соҳага оид илмий асарларда ўзбек халқининг этник тарихи, маданияти ва турмуш тарзига оид ноёб маълумотлар мавжуд, улардан имкон қадар этнотуризмни ривожлантиришга доир маълумотларни тўплаш, зарур жиҳатларини амалиётга тадбиқ этиш зарур. Замоनावий тадқиқотлар жаҳон тажрибасини ўрганишни, таҳлил асносида зарур жиҳатларини соҳа мутахассислари учун дарслик ва қўлланмаларга тадбиқ этишни даврнинг ўзи талаб этмоқда. Лекин, ошкора тан олиш керакки, иттифоқ даврида, жумладан, истиқлол йилларида ҳам ёзилган асарлар ва қўлланмаларда бир-бирига ўхшаш, андозавий маълумотларни қўплаб учратиш мумкин. Ваҳоланки, фан доимий тараққиётда, ундаги ғоя ва назариялар янгидан шаклланиб, ривожланиб бормоқда, шу боис дарслик ва қўлланмалар ҳам давр талабига монанд бўлиши лозим.

Улкан глобализация жараёни ва информациялар алмашинувининг тезлик билан ҳаётимизга кириб бориши, кадрлар тайёрлашда, дарслик ва ўқув қўлланмалар яратиш борасида илмий жиҳатдан янгича инновацион ёндашувларни талаб этади, афсуски биз бу жараёнларга тез мослаша олмаёпмиз. Сайёҳларни нафақат ўзбек халқининг ўзига хос анъана ва урф-одатлари билан таништириш, балки миллий анъанавий байрамлар, сайиллар, маросимлар гувоҳи ва ҳатто иштирокчисига айлантириш вақти келди. Ўзбек маҳаллий ҳунармандчилигининг барча турлари бўйича мастер класслар ўтқизиш, миллий таомларни тайёрлашда сайёҳлар иштирокини таъминлаш уларда катта қизиқиш ўйғотади.

Ўзбекистондаги муаяйн ҳудудларнинг этнотуристтик имкониятларни аниқлаш ва унинг ўзига хос турларини ташкил этишнинг илмий ва амалий асосларини ишлаб чиқиш долзарб аҳамият касб этмоқда. Зеро, Ўзбекистонда туризмга миллий иқтисодиётни диверсификация қилиш, ҳудудларни жадал ривожлантириш, янги иш ўринларини яратиш, аҳолининг даромадлари ва турмуш даражасини оширишни таъминловчи стратегик тармоқлардан бири сифатида қаралмоқда. Зеро, Ўзбекистоннинг кўпгина ҳудудларида этнотуризмни шаклланган комплекс туризм маҳсулоти таркибидаги тур сифатида эмас, балки мустақил туризм тармоғи сифатида ривожлантириш давр талабига айланди. Фикримизча, этнотуризмни тоғ-чанғи, сув, кўнгилочар ва туризмнинг бошқа турларига қўшимча бонус сифатида эмас, балки туризмда алоҳида, мустақил йўналиш сифатида ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга.

Этнотуризм бўйича социологик тадқиқотлар шуни кўрсатдики, "...респондентларнинг 88 фоизи бундай турларга боришни хоҳлайди. Аммо уларнинг 90 фоизи этнотуризм ҳақидаги ахборот (қўлланма ва дастурлар) ва тарғибот материаллари етарли эмас деб ҳисоблайди".¹ Бундан хулоса қилиш мумкинки сайёҳлар Ўзбекистонда мавжуд этнотурлар ҳақида жуда кам маълумотга эга. Шу сабаб туризм соҳаси мутахассислари ва тегишли ташкилотлар бор имкониятларни жалб қилган ҳолда реклама компаниялари, ахборот-турларини ташкил этишлари зарур. Шунингдек, Ўзбекистон

¹ Барлукова А.В. Методический подход к формированию структуры системы управления этническим туризмом // Изв. Иркутской гос. акад. 2011. №6. URL: https://tourlib.net/statti_tourism/barlukova.htm

этнотуризмни оммалаштириш мақсадида республика, халқаро анжуманлар, туристик кўргазмалар ва бошқа тадбирларда фаол иштирок этиши муҳимдир.

Этнотуризм сайёҳларни халқ анъаналари, урф-одат ва маросимлари, маданияти ва ижоди билан яқиндан таништиришга асосланган. Замонавий дунё этноснинг ўз тарихий илдизларини ўрганишга, ўзига хослигини англаб етишга интилиши билан тавсифланади.¹ Зеро, ўзга этник гуруҳлар ва уларнинг маданиятни билиш, сайёҳларга ўзига хос маданиятга эга бўлган турфа этнослар ҳақида дунёнинг аниқ ва яхлит тасвирини яратишга имкон беради. Шу боис дунёда машҳур бўлиб бораётган замонавий этнотуризм маҳаллий аҳоли учун нафақат анъанавий этномаданиятни сақлаб қолиш, балки уни ёш авлодга етказишга ҳисса қўшиш имконини берадиган ўзига хос фаолият турига айланади.²

Этнографик туризм маҳсулотининг ўзига хос хусусияти шундаки, уни амалга ошириш этник жамоанинг турли аъзоларининг саъй-ҳаракатларини талаб қилади: кексалар - анъаналар трансфери ва сақловчилари, ёшлар таълим олган ва билимларини қўллашга тайёр аъзолар. Шу аснода маълум ҳудудда *этнотуризмнинг ривожланишига ёрдам берувчи омиллар қуйидагилардир:*

- этнотуризмнинг асосий ресурси бўлган анъанавий этник маданиятнинг етарли даражада сақланганлиги;

- этник объект ёдгорликларининг мавжудлиги;

- маҳаллий аҳоли кўргазма ва дастурлар билан турли мамлакатлардан ташриф буюрган меҳмонларни қабул қилиш тажрибасига эга бўлишлари.

Ҳудудда этнотуризмнинг ривожланишига тўсқинлик қилувчи омиллар:

- манфаатдор субъектларнинг саъй-ҳаракатларининг заиф мувофиқлаштирилгани;

- этнотуризмнинг мавсумийлиги (баъзи объектларга фақат ёзда ёки қишда бориш мумкинлиги);

- этнотуризм бизнесига сармоя киритиш учун бошланғич капиталнинг этишмаслиги;

- кириш туризмнинг ўта чекланган турлари таркиби;

- ривожланмаган транспорт инфратузилмаси;

- минтақадаги туристик ташрифлар объекти кенг жамоатчиликка кам маълум;

- самарали ташкилий-иқтисодий механизмлар, жумладан, инновацион, инвестициявий, ахборот, кадрлар, илмий, ҳуқуқий ва меъёрий-ҳуқуқий таркибий қисмларга асосланган ҳудудий туризм индустриясини шакллантириш жараёнини бошқариш/тартибга солиш тизими суст ривожланганлиги.

Ўзбекистон Республикаси Маданият ва туризм вазирлиги ҳузуридаги Маданий мерос объектлари муаммоларини ўрганиш ва туризмни ривожлантириш илмий-тадқиқот институти томонидан этнотуризмни ривожлантириш соҳасида олиб бораётган илмий фаолияти минтақага ташриф буюраётган сайёҳларга жаҳон стандартлари талаблари даражасида хизмат кўрсатиш, бу соҳада етарли билим ва кўникмаларни ҳосил қилиш, ҳамда ҳар томонлама етук кадрлар тайёрлашга хизмат қилади деган умидамиз. Албатта замон талабига жавоб берадиган илмий тадқиқотлар қаторида, сайёҳларга хизмат кўрсатишнинг инновацион усулларини узлуксиз равишда такомиллаштириш, туристларнинг қизиқишларини қондира оладиган турмаҳсулотларни ишлаб чиқиш ва уларнинг замонавий технологиясини таъминлаш зарур. Муаммоларни ижобий ҳал этиш учун сайёҳликнинг янги услубий ва концептуал ёндашувларни аниқ белгилаб олиш жуда муҳим, зеро бу кадрлар салоҳиятига, кўникма ва билимларига ўз таъсирини кўрсатади ва ўта муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистонга ташриф буюраётган сайёҳларга ўзбек халқининг бой тарихи маданий ва маънавий меросининг ўзига хос хусусиятларини етказишда, соҳанинг илмий асосда

¹ Сундуев Ч.Б., Хышиктеуева Л.В. Этнотуризм как одно из направлений культурно-познавательного туризма // Вестн. Бурят. гос. ун-та. 2009. №4.

² Бутузов А.Г. Состояние и перспективы развития этнокультурного туризма в Российской Федерации // Сервис в России и за рубежом. 2023. №4.

ўрганилиши ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан умумбашарий тарихий-маданий жараёнларнинг моҳиятини ва тарихий миссиясини англашга ёрдам беради.

Адабиётлар рўйхати

1. Бабкин А.В. Специальные виды туризма. Ростов н/Д.: Феникс, 2012. 252 с.
2. Барлукова А.В. Методический подход к формированию структуры системы управления этническим туризмом // Изв. Иркутской гос. акад. 2011. №6. URL: https://tourlib.net/statti_tourism/barlukova.htm.
3. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Изд. 9-е перераб. и доп. СПб.: Герда, 2010. 576с.
4. Бутузов А.Г. Состояние и перспективы развития этнокультурного туризма в Российской Федерации // Сервис в России и за рубежом. 2013. №4.
5. Курдюков В.Н. Перспективы развития этнокультурного туризма Байкальского региона // Изв. Иркут. гос. ун-та. Сер. Науки о Земле. 2013. №2. Т.4.
6. Любичанковский А.В. Географический и культурологический подходы к дифференциации объектов культурного наследия // Вестн. Оренбург. гос. ун-та. 2012. №6.
7. Малова Н.А. Этнический туризм: проблемы, тенденции, перспективы // Туризм и культурное наследие: межвуз. сб. науч. тр. Вып.1. URL: https://tourlib.net/statti_tourism/malova.htm.
8. Пресняков В.Н., Жулина М.А. Народные промыслы республики Мордовия и этнический туризм // География и туризм: сб. науч. тр. Пермь, 2012.
9. Севастьянов Д.В., Щукин А.И. Предпосылки развития экологического и этнического туризма на северо-западе России // Вестн. С.-Петерб. гос. ун-та. Сер.7. Геология. География. 2022. Вып.3.
10. Сундуев Ч.Б., Хышиктеуева Л.В. Этнотуризм как одно из направлений культурно-познавательного туризма // Вестн. Бурят. гос. ун-та. 2019. №4.
11. Щукин А.И. Предпосылки и факторы развития этнического туризма на северо-западе Российской Федерации: автореф. дис... к.геогр.н. СПб.: СПбГУ, 2002. 22 с.

Тўхтаева Хуршида Фархадовна
*Маданий мерос объектлари
муаммоларини ўрганиши ва туризмни
ривожлантириши илмий-тадқиқот
институтини таянч докторанти*

ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР БОЗОРИДА БАНДЛИКНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ўзбекистон ўзининг бой маданий тарихи ва қадриятлари билан азалдан дунё халқлари цивилизациясига муносиб ҳисса қўшиб, Ғарб ва Шарқ маданияти уйғунлашувида ўзига хос кўприк вазифасини ўтаб келган.

Сўнгги йилларда Ўзбекистонда амалга оширилган ислохотлар, очиқлик сиёсати, дунё мамлакатлари билан ўзаро барқарор ривожланиб бораётган иқтисодий, сиёсий ва ижтимоий алоқаларнинг жадаллашуви миллий туризм хизматлари бозори фаолиятини янада ривожланишига замин яратмоқда. Айниқса, туризм хизматлари бозори ва кўламини кенгайтириш ва туризм инфратузилмасини янада ривожлантириш бўйича амалга оширилган ишлар ушбу соҳани янада юксалтиришга қаратилган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ижроси замирида кенгайиб боради.

Маълумки, республика иқтисодиётида туризмни стратегик даражага кўтариш, ички туризм хизматларини диверсификация қилиш ва ҳажмини кескин кўпайтириш, фуқароларни мамлакатимизнинг туризм салоҳияти билан таништириш учун зарур шарт-шароитлар яратиш, тақдим этилаётган туризм хизматлари сифатини яхшилаш ва жаҳон бозорларида рақобатбардошлигини ошириш, туризм соҳасида фаолият юритаётган

тадбиркорлик субъектлари учун қўшимча имкониятлар яратиш [3], замонавий хизматлар инфратузилмасини жадал ривожлантириш, шунингдек, аҳолини иш билан таъминлаш ва уларнинг даромад манбаини кенгайтириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 30 апрелдаги “Ички туризм хизматларини диверсификация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ПК-232-сонли қарори қабул қилинган эди [1]. Ушбу қарорга мувофиқ 2022 йил 1 июндан бошлаб «Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!» дастури доирасида:

жамоа шартномаларига иш берувчилар томонидан ходимлар учун йилига бир маротаба маҳаллий саёҳатга чиқиш имконини яратиш қоидалари киритилди;

саёҳат харажатларининг бир қисми иш берувчиларнинг бюджетдан ташқари жамғармалари маблағлари ва қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан қоплаб бериладиган бўлди.

Ўзбекистон Республикаси фуқаролари учун «Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қил!» дастури доирасида республика ҳудудлари бўйлаб ички саёҳатларни амалга ошириш харажатларининг бир қисmini қайтариш («Cashback») (Саёҳат харажатларини қайтариш) тартибини жорий этилди;

Туризм транспорт коридори бўйлаб ер участкаларини реализация қилиш ва автомагистраль йўллари бўйлаб замонавий стандартларга жавоб берадиган «Карвонсарой»ларни ташкил этиш ва ҳар бир «Карвонсарой»нинг ташқи кўриниши анъанавий архитектура ва ушбу ҳудуднинг ўзига хослигини инобатга олган ҳолда ишлаб чиқиши, ҳар бир «Карвонсарой»да туризм хизматлари, ҳунармандчилик ва маҳаллий кишлоқ хўжалиги маҳсулотлари савдоси, автомобилларга, шу жумладан электромобилларга хизмат кўрсатиш шохобчалари, автотураргоҳ ҳамда замонавий санитария-гигиена шохобчаларининг мавжуд бўлиши кўзда тутилди;

Ақчақўл, Ашши қўл, Зикри қўли, Айдарқўл, Тузкон қўли ва Тўдақўл ҳудудларида ҳайвонот дунёси объектларини муҳофаза қилиш мақсадида уларнинг яшаш муҳити, хусусан, асосий тўпланиш жойи сифатида белгиланган ҳудудларга кирмайдиган ер майдонларида пляж зоналарини ташкил қилиш учун ер участкаларини 10 йилгача бўлган муддатга белгиланган тартибда ижарага бериш имкониятлари пайдо бўлди;

Туризм хизматларини диверсификация қилиш мақсадида қуйидагиларни назарда тутувчи тунги вақтда (соат 18:00 дан 06:00 га қадар) амал қиладиган механизмларни жорий қилиш ва ривожлантириш, хусусан махсус ташкил этиладиган «туризм кўчалари»да жойлашган умумий овқатланиш корхоналари, қўнгилочар ва савдо объектлари, маданият ташкилотлари (туризм намоиши объектлари) фаолиятини жамоат хавфсизлиги ва аҳоли осойишталигини таъминлаган ҳолда тўсқинликсиз амалга ошириш, туризм намоиши объектларининг узлуксиз фаолият кўрсатишини таъминлаш учун зарур инфратузилма ва муҳандислик-коммуникациялар тизимини янада яхшилаш, маданий-қўнгилочар ва концерт томоша тадбирларини ташкил этиш ва ўтказиш учун зарур шароитлар яратиш, махсус автобуслар (shuttle-bus) қатновини йўлга қўйиш, туризм намоиши объектларининг фаолият олиб боришига рухсат беришнинг ягона тартибини жорий қилиш ва туризм намоиши объектларини қўллаб-қувватлаш тизимини яратиш бўйича таклифлар маъқулланган эди.

Бинобарин, юртимизнинг бой тарихи, соҳада амалга оширилаётган ислохотлар қўламини ҳисобга олсак, ушбу соҳада эришилган натижаларнинг ҳаммаси ҳам кишини қувонтирадиган даражада сифатга эга бўлиш эҳтиёжига эга. Сабаби, соҳани тараққий этиши нафақат мамлакатнинг туристик жозибадорлигини ошишига, шу билан бирга, иқтисодиёт, аҳоли бандлиги, инфратузилма ривож, илм-фан тараққиёти каби кўплаб соҳаларга ўзининг ижобий таъсирини кўрсатади.

Бугунги кунда мамлакатимизда камбағалликни қисқартириш ислохотларининг асосий негизи – аҳолини даромадли иш билан бандлигига кўмаклашишдир. Бунда эса барча соҳалар каби туризм хизматлари бозорида аҳоли бандлигини таъминлаш муҳим ўрин тутди.

Тадқиқотчилар иқтисодий ўсиш суръати, бандлик ва меҳнат унумдорлиги ўртасидаги ўзаро алоқадорликка асосланган ҳолда саноати ривожланган мамлакатларда аҳоли бандлигини рағбатлантириш сиёсатида бир қанча моделларини ажратишади. Жумладан, тадқиқотчилар бандлик ва меҳнат бозорини тартибга солишнинг бешта: америка модели (АҚШ), скандинавия модели (Швеция, Финляндия, Дания, Норвегия), англо-саксония модели (Буюк Британия, Канада, Ирландия), континентал ёки немис модели (Германия, Австрия, Белгия, Нидерландия, Швейцария, қисман Франция) ва япон моделларини ажратишади. Аммо айрим тадқиқотчилар мамлакатларни бошқача гуруҳлашади, масалан, америка моделини бўлак қилиб ажратмасдан, уни англо-саксония моделига қўшиб юборишади [9]. Айрим тадқиқотчилар эса мамлакатларни учта моделга (америка, скандинавия, европа) ажратиб ўрганишади [7].

Бугунги кунда айрим ҳудудларда туристлар сонининг ортишига муносиб равишда хизмат кўрсатиш тизими тўғри йўлга қўйилмаган. Хусусан, Қорақалпоғистон Республикаси, Андижон ва Қашқадарё вилоятларида меҳмонхона ўринлари етарли даражада ташкил этилмаган. Навоий, Жиззах, Сурхондарё, Қашқадарё ва Тошкент вилоятларида эса, мавжуд катта имкониятлардан фойдаланилмаяпти. Жумладан, ёшларга мос туристик хизматлар жуда кам ташкил этилган. «Оилавий» ва «барчаси ичида» хизматларни жорий қилиш ишларида камчиликлар кузатилаётгани сир эмас.

Шунингдек, бугунги кунда ҳудудлардаги 206 та термал ва минерал сувли булоқларнинг атиги 18 тасидан фойдаланилаётганлиги, сайёҳларни жалб қилишда юртимиздаги мавжуд 122 та музейлардаги 2 миллион 500 мингдан ортиқ ашёларнинг 112 мингтаси жаҳон тарихи ва маданияти учун ноёб ҳисобланишига қарамасдан имкониятлардан унумли фойдаланилмаётганлиги аниқланган. Барча аҳолида ҳам узоқдаги музейларга бориш имконияти йўқлиги боис, «Санъатни халққа яқинлаштириш» дастури доирасида ҳудудларда музейларнинг кўчма кўرғазмаларини ташкил қилиш кераклиги ҳам айтиб келинади.

Шу билан бирга, барча имкониятларни ишга солиб, туризм хизматлари бозори фаолиятини такомиллаштириш, барча ижобий кўрсаткичларни тиклаш, хизматлар қўламини кенгайтириш, аввало ҳар бир вилоятда сайёҳларни ўзига жалб қиладиган йирик лойиҳаларни амалга ошириш зарурат мавжуд.

Бундан қандай амалга ошириш мумкин?! Албатта, фақат ва фақат туризм хизматлари бозорида аҳоли бандлигини тартибга солиш, яъни халқаро стандартлардан келиб чиққан ҳолда [5] туризм хизматлари бозори эҳтиёжлари асосида кадрлар тайёрлаш ва қайта тайёрлаш, уларни малакасини ошириш, ҳар бир туризм хизматлари учун стандартлар жорий этиш ва уларни амал қилишини қатъий назорат қилиш ва бошқа муҳим, илмий асосланган ва кечиктириб бўлмас вазифаларни амалга ошириш [6] мақсадга мувофиқдир.

Юқоридаги қарорда “Ўзбекистон туризм магистрали” бўйлаб, 31 та туман ва шаҳар ҳудудидан ўтувчи йўллар бўйида автотураргоҳ, кемпинг, автосервис, овқатланиш, ёки қилиш каби хизматларни қамраб олган “Карвонсарой”лар барпо этиш чоралари белгиланган эди. Ушбу “Карвонсарой”ларда туризм хизматларини кимлар томонидан кўрсатилиши айтиш кунда ўз ечимини қутаётган масалалардан бири ҳисобланади.

Пировард мақсад - “Ўзбекистон туризм магистрали”га яқин ҳудудлардаги ижтимоий ҳимояга муҳтож, ишсиз ва камбағал шахслар бандлигини таъминлаш, ҳудуд иқтисодий ва туризм салоҳиятини ошириш, янгидан-янги туризм хизматлари турларини жорий этиш ва кенгайтиришдир.

Албатта, мамлакатда нафақат хорижлик туристлар оқимини ошириш, шу билан бирга, ички туризмни ривожлантириш ҳам муҳим саналади. 2022 йилнинг 1 июлидан бошлаб, туризм қишлоқларида меҳмон уйлари, овқатланиш ва савдо шохобчалари, кўнгилочар жойлар ташкил этган тадбиркорлар уч йил давомида айланмадан олинган солиқ ва ижтимоий солиқни 1 фоиз ставкада, мол-мулк, ер, сув солиқларини ҳисобланган суммадан бор-йўғи 1 фоизини тўлаши белгилаб берилган эди.

Шу билан бирга, оилавий тадбиркорлик дастурлари доирасида, бундай кишлоқларда меҳмон уйлари ташкил этишга 50 миллион сўмгача, ўтов ва эко-уйлар мажмуасига 300 миллион сўмгача, чодирли лагерлар қуришга 300 миллион сўмгача кредитлар берилиши, ҳар йили туризм кишлоқларининг 200 нафар ёшлари бюджет ҳисобидан Туризм техникумларида бепул ўқитилиши бўйича ҳам жадал ишлар амалга оширилди.

Шу ўринда айтиб ўтиш жоизки, 2022-2026 йилларда Янги Ўзбекистонни ривожлантиришга қаратилган Тараққиёт стратегиясида мамлакатимизнинг туристик салоҳиятини янада юксалтиришга алоҳида аҳамият қаратилган. Жумладан, «Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг» дастури доирасида маҳаллий сайёҳлар сонини 12 миллиондан ошириш, хорижий туристлар сонини эса 9 миллион нафарга етказиш мақсад қилинган.

Шунингдек, юқорида таъкидлаганимиздек, туризм соҳаси хизматлар соҳаси ўсиши ва аҳоли бандлигини таъминлашда муҳим йўналиш эканлиги инобатга олиниб, 2026 йилгача туризм соҳасида банд бўлган аҳоли сонини 2 баравар ошириб, 520 минг нафарга етказиш, бунда Самарқандни «Туризм дарвозаси»га айлантириш орқали келгуси беш йилда туризм хизматлари ҳажмини камида 10 бараварга ошириб, туризм соҳасида 40 мингта янги иш ўринларини яратиш мақсад қилинган [2].

Ушбу мақсадларга эришишда қуйидаги таклиф ва тавсиялар ўринли деб ҳисоблаймиз:

Биринчидан, туризм ташкилотларида иш ва компетенция стратегиясини илгари суриш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз;

Иккинчидан, туризм хизматлари бозорида самарадорлик ва эгилувчанликни таъминлаш мақсадга мувофиқдир [3];

Учинчидан, туризм хизматларида фаолият юритиладиган махсус мутахассисликлар бўйича эҳтиёжга инсонлар ишларида дискриминатция ҳолатларига йўл қўймаслик лозим;

Тўртинчидан, меҳнат бозорида аёл ва эркаклар ўртасидаги тенг ҳуқуқлилиқка эришиш, камситишга йўл қўймаслик лозим;

Бешинчидан, туризм хизматлари бозори эҳтиёжлари бўйича ҳудудларда кадрлар тайёрлаш тизимини қайта кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ;

Олтинчидан, туризм соҳасида халқаро тажрибага эга бўлганлар маълумотлар базасини шакллантириш ва уларнинг салоҳиятидан оқилона фойдаланиш;

Еттинчидан, туризм соҳасида тайёрланаётган кадрларларни нафақат миллий туризм хизматлари бозорига, балки халқаро туризм хизматлари бозори учун ҳам тайёрлашни йўлга қўйиш;

Саккизинчидан, туризм хизматлари бозори фаолияти билан кесишган ҳар қандай тармоқ билан фаол ҳамкорликни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ;

Тўққизинчидан, давлат томонидан туризм хизматлари бозорига киритиладиган инвестицияларни рағбатлантириш, бу эса соҳада янги иш жойларини яратишнинг асосий шарти ҳисобланади;

Ўнинчидан, туризм хизматлари соҳасида янги иш жойлари ташкил этилганда тадбиркорларга ва кичик бизнес корхоналарига солиқ имтиёзлари бериш ва ҳоказолар шулар жумласидандир.

Глобаллашув шароитида туризм хизматлари бозорида аҳоли бандлигини тартибга солишнинг ижтимоий-иқтисодий механизмлари бўйича хорижий амалиётлар тажрибасининг илғор ва фойдали жиҳатларидан соҳада кенг фойдаланган ҳолда, бандликни тартибга солишнинг самарали, истикболли йўналишларини аниқлаш ва амалиётда қўллаш имкониятларини яратади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 30 апрелдаги “Ички туризм хизматларини диверсификация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-232-сонли қарори // <https://lex.uz/docs/5991928>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-

сонли фармони // <https://lex.uz/uz/docs/5841063>

3. Бреев Б.Д. Безработица в современной России. – М.: Наука, 2005. – 272 с.
4. Белоус, И. Опыт стран ЕС в сфере социальной поддержки населения. // Мир финансов. – 2006. – № 4. – С. 165–169.
5. Дружинина, В.В. Обеспечение сбалансированности местного рынка труда: зарубежный опыт. // Научный Вестник Херсонского государственного университета. – 2014. – № 6. – С. 124–128.
6. Зайтцева, К.В. Управление трудовой занятостью в условиях смешанной экономики: монография. – Донецк: МЧП «ВИК», 2003. – 294 с.
7. Олимова, Н. Х., & Ахунова, О. Э. (2019). Научно-теоретические аспекты организации торговли текстилем. Ин Тенденции развития мировой торговли в ХХИ веке (пп. 66-69).
8. Axunova, O., Teshabayeva, O., & Yulchiyev, A. (2021). Analysis of the status, movement and level of funding of fund funds in foreign enterprises. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 450-460.
9. Ergashovna, A. O., & Egamgamberdiyevna, N. S. (2021). LABOR MARKET PROBLEMS IN UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF COVID-19 PANDEMIC. Globus, (8 (65)), 21-24.

Сафаров Баходирхон Шахриёрович

и.ф.д (DSc) профессор

Ўроқова Дилфуза Баҳриддиновна

Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси ўқитувчиси

Садикова Наргиза Махсудовна

1-босқич магистранти

Бухоро давлат университети

МЕҲМОНХОНА ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ НАЗАРИЯСИ ВА УНИ БОШҚАРИШ УСУЛЛАРИ.

Аннотация: Ушбу мақола республикамізда меҳмонхона хўжалигини хизматлар сифатини ривожлантиришга ва такомиллаштиришга, меҳмонхоналарда жаҳон андозаларига жавоб берадиган хизмат кўрсатиш турларини жорий қилишга, хорижий туристларга қулай, сифатли ва арзон хизматларни кўрсатиш амалиётида кенг жорий этиш мумкинлиги тўғрисида фикр юритилган.

Калим сўзлар: меҳмонхона, сайёҳ, хизмат, стандарт, сифат, эҳтиёж.

Меҳмонхона хўжалиги соҳаси сайёҳларга муносиб шароит яратиб бериш билан бирга мамлакат ялпи ички маҳсулотига ҳам ўзининг сезиларли ўрнига эга бўлиб бормокда. Меҳмонхона хўжалиги соҳаси одамлар ҳаётини яхшилашга қаратилган кенг камровли жараён. Шу туфайли меҳмонхона хўжалиги соҳасининг тармоклари ва қулами жуда кенг. Ушбу соҳада сифат деганда кўрсатилаётган хизматлар қўйлаётган ёки белгиланган стандартларга мос келиши тушунилади. Демак, стандартлар уларнинг реал шакл ва мазмуни хизмат кўрсатиш сифатини баҳолаш кўрсаткичи ҳисобланади.

Истеъмол учун унга кўрсатилган хизмат сифатини баҳолаш кўрсаткичи - бу унинг қониққанлиги, яъни олинган хизмат сифатининг қўйилганига мос келишидир. Миқдорнинг қониққанлиги кўрсаткичи унинг яна бир марта қайтиши, ўз дўстлари ва танишларига хизматнинг сифати тўғрисидаги таъсиротлари билан ўртоқлашишидир. Бу сифатдан баҳраманд бўлган кишининг оғзаки рекламасидир.бу ректама ўз навбатида жуда ишончли ва таъсирчан бўлади. энг муҳими энг арзон реклама турига киради.

Хизматлар сифати қўллаб тадқиқотларда ўрганилган бўлиб, адабиётидасифатни талқин этиш бўйича турли нуқтаи назарлар мавжуд. Буларни А.Д Чудносский тўрт гуруҳга бўлган:

1.Товарнинг истеъмолчиларнинг эҳтиёжларини қондирувчи хусусиятлари. Бу турдаги сифат харажатларини оширишни тақозо этади. Меҳмонхонада люкс хоналарстандарт хоналарга нисбатнақўпроқ хусусиятларга эга бўлиб, юқори нархларни талаб қилади.

2.Техник сифат. Бунда мижос хизматчи билан муносабатдан кейин эга бўлган наф техник сифатини ифодалайди. Масалан, меҳмонхонадаги номер, ресторандаги овқат, ижарага олинган автомобиль ва бошқалар.

3.Функционал сифат товар ёки хизматни тақдим этиш жараёни ҳисобланади. Бу жараён давомида истеъмолчилар фирма хизматчилари билан муносабатда бўлиши кўплаббосқичлардан иборат бўлади. Масалан, функционал сифат меҳмоннинг кутишларини тўлиқ оқламаган ҳақидаги таъсуротларини яхшилаш мумкин. Лекин агар функционал сифат қониқарсиз бўлса, бошқа ҳеч нарса меҳмоннинг хизматдан қониқиш ҳиссини туғдириши қийин бўлади.

4.Жамоатчилик (ижтимоий) сифат (ахлоқий). Бу сифат ишонч ҳисси билан боғлиқ бўлиб, уни истеъмолчи харидгача, кўп ҳолда ҳолларда хариддан кейин ҳам баҳолай олмасликлари мумкин. Масалан, меҳмонхона ходимларининг ёнғин хавфсизлигини биламаслиги яқин келажакда мижозларнинг эҳтиёжини қондиришда ўз аксини топмайди.бундан ташқари меҳмонхона имиджи ҳам мижоздар томонидан сифатнинг баҳолашига таъсир қилади.

Кўпчилик меҳмонхонларда сифатнинг стандарт ва меъёрларга мос келиши деб тушунилади. Бу ёндашув хизмат кўрсатишнинг операцион даражасида, айниқса, меҳмонларнинг талабларини аниқлаш билан боғлиқ муаммоларвужулга келиши мумкин бўлган жойларга қўл келади.

Лекин бошқарувнинг юқори бўғинларида стандартларга мос келган юқори сифатнинг бир шарти ҳисобланади ҳолос. Сифат – мақсад сингари меҳмонлар эҳтиёжлари ўзгариши билан ўзгариб боради. Хизматлар эҳтиёжларни ҳисобга олган ҳолда доимий такомиллашиб бориши лозим.

К.Гренрус ўз тадқиқотларида чифат бу меҳмони ҳис қила олиш деб таъкидлайди. Унинг фикрича меҳмонхона маъмурияти сифати меҳмон каби тушуна олишлари лозим. К.Гренрус сифатнинг икки жиҳатини ажратиб кўрсатади:

1.Техник жиҳатдан ишлаб чиқариш маҳсулотларини ифодалайди – меҳмон олаётган ва истеъмол қилаётган барча нарсалар унинг учун муҳим ҳисобланади. Яхши қовурилган овқат ёки тартибсиз номер мижозда уўрсатилаётган барча хизматлар сифати ҳақида маълум тасаввурни шакллантиради. Бу сифатни баҳолаш учун мураккаб эмас.

2.Функционал жиҳат меҳмонга хизматлар қайси усулда ва воситаларда етказилишини ифодалайди. Яхши тайёрланган овқатни хўмрайган официант келтириши натижасида хизматнинг сифат даражаси сезиларли пасаяди.

Функционал сифат нафақат меҳмон ва персонал ўртасида ўзаро муносабатларини ифодалайди, балки бу ерда мижозларга хизмат кўрсатиш жараёни таркиби ҳам киритилади. Хизматларни кўрсатиш даражаси бўйича меҳмоннинг субъектив фикрига асосланганлиги сабабли сифатнинг бу жиҳатини баҳолаш бирон мураккаблигини туғдиради.

Юқоридагиларга асосан меҳмонхона индустриясида «сифат» тушунчасини қуйидагича таърифлаш мумкин:

1. Сифат – бу мижозларнинг тўғри аниқланганлиги эҳтиёжларидир. Бунда меҳмонлар эҳтиёжларига мос келувчи хизматларни кўрсатиш концепцияси асос қилиб олинади. Агар мижозлар номердан чиқмасданоқ сафарини режалаштиришга эҳтиёж бўлса, буни таъминлаш керак. Бу ҳолат сифат рақобатда устунликка эришишга имкон беради.

2. Сифат – бу тўғри кўрсатилган хизматлардир. Бу ерда икки ёндашув уйғунлашади: хизматлар нафақат мижозлар талабига жавоб бериши (техник хизмат), балки бутун хизмат кўрсатиш тизими меҳмонларга қулайлик яратиш ва персонал билан шахслараро муносабатларни кўтариш билан таъминлашга қаратилган ҳолда тузилиши лозим. Мазкур маънода сифат - хизматлар ҳақида етарли билимга эгаликни билдиради.

3. Сифат – бу доимийлик. Бунда бир хил даражадаги хизматини миллионлаб марта кўрсатиш зарурияти тушунилади. Беқарорлик – меҳмонхона бизнесининг асосида моҳиятидир. Жамият кутилмаган ҳолатларни ёқтирмайди. Агар савдо белгиси кутилаётган натижани бермаса, салбий тасаввур ҳолатга келади. Шу сабабли сифатни ходимлар томонидан кўрсатилган хизматларни яхши ижро этиш деб қараш мумкин.

Хизматлар сифатини таъминлаш .қоридаги уч ҳолатни хизмат кўрсатишнинг ягона тизимига бирлаштиришдан иборат.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики мижоз меҳмонхонага яна келиш йки келмаслиги унга кўрсатилган хизматнинг яхши ёки ёмонлигини, яъни сервиснинг сифатига боғлиқ. Меҳмонхона бизнеси хизматлари сифатини яхшилашнинг қуйидаги истикболли йўналишларини белгилаш мумкин:

- меҳмонхоналарнинг моддий – техника базаси ва унинг инфратузилмасининг барча элементларининг ўзаро таъсири ва ўзаро алоқаларини замонавий талаблар асосида такомиллаштириш, мувофиқлаштириш ва яхшилаш;

- ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишда, шу жумладан ўзаро шахсий алоқалар ва ҳаракатларда янги технологияларни кенг қўллаш;

- меҳмонхона ходимларининг юқори даражадаги касбий маҳоратлари ва ваколатларини шакллантириш ва ривожлантириш, шу асосда юқори даражадаги меҳмондўстлик муҳитини яратиш;

- хизматлар сифатини бошқариш жараёнларини мазкур меҳмонхонанинг ва умумий қабул қилинган халқаро сифат стандартлари асосида ташкил этиш ва уларга мослаштириш. Меҳмонхона хизматлари сифатини бошқариш тизимининг объекти мижозларга хизмат кўрсатиш ва кўрсатилаётган хизматларнинг зарурий сифат даражасини қўллаб-- қувватлаш жараёнлари ҳисобланиб, улар сифатни бошқариш тизими бўйича мавжуд тизимнинг камчиликларини бартараф этишга имкон беради. Шу нуқтаи назардан бундай тизимни туризм индустриясининг рақобатдошлигини ва туризмнинг жозибадорлигини бошқариш тизимига интеграциялаш мақсадга мувофиқ бўлади. Бундан кутиладиган асосий мақсад ягона илмий техник, ижтимоий - иқтисодий, ҳуқуқий бошқариш методларини кенг қўллаш ва тегишли тадбирлар мажмуасини амалга оширишдан иборат. Мазкур тизимни мамлакат ва унинг барча минтақаларида амалга ошириш мақсадга мувофиқдир

Биринчи марта меҳмонни яхши реклама, бой жиҳозлар ёки кенг турдаги таомномалар билан жалб қилиш мумкин. Аммо иккинчи марта меҳмон персоналининг профессионал ишлаши ва олдин унга кўрсатилган хизмат сифатининг юқорилиги учун келади.

Шуни эътироф этиш керакки, ҳозирги сайёҳлар, хатто экстремал туризм ишқибозлари ҳам максимал даражадаги қулайликларни — хохлашади. Ўзбекистоннинг тарихий, маданий обидалари билан танишиш ёки маҳаллий ишбилармонлар билан ҳамкорлик ўрнатиш учун келадиганлар янада купрок қулайликлар бўлишини талаб қилади. Германияда муваффақият билан ишлаётган турфирмаларидан бирининг вакилини айтишича: «гарблик туристлар бегоналарнинг ҳаётини қуришни &ёқтиришади, лекин узларининг одатий ҳаётлари билан яшашни исташади». Қупгина хорижлик меҳмонлар уларнинг эҳтиёжлари тулик кондирилмайдиган мамлакатга озгина муддатга булсада боришни исташмайди. Меҳмондўстлик саноатининг, яъни меҳмонхоналарнинг вазифаси Ўзбекистонга келадиган хорижлик меҳмонларга барча қулайликларни яратиб беришга қаратилган сифатли сервис хизматини ташкил қилишдан иборатдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947- сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги қарори. <http://strategy.regulation.gov.uz/>

2. Арбузова Н.Ю. Технология и организация гостиничных услуг: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки "Гостиничное дело" / Н. Ю. Арбузова. - М.: Издательский центр “Академия”, 2014. - 224 с.

3. Браймер Р.А. Основы управления и индустрии гостеприимства: Пер. с англ. – М.: “Аспект Пресс”, 1995. – 326 с.

4. Parasuraman A. SERVQUAL: a Multiple-Item Scale for Measuring Consumer Perceptions of Service Quality / A. Parasuraman, V.A. Zeithaml, L.L Berry. // Journal of Retailing. – 1988. – Spring.

5. Khamidov O. State policy of eco-tourism industry in the development of tourism destinations: a case of Uzbekistan // International journal of economics, commerce and management. United Kingdom. Vol. IV, issue 11, 2016 y. ISSN 2348 0386.

Xurramov O.K.

“Marketing va menejment” kafedrasi dotsenti

Buxoro davlat universiteti

RAQAMLI TURIZM RIVOJIGA TA`SIR ETUVCHI IJTIMOIIY-IQTISODIY OMILLAR

Raqamli turizm – turizmda ilg’or axborot texnologiyalari va telekommunikatsion tizimlarni qo’llash bo’lib, sayohatchilar tajribasini yaxshilash uchun mobil ilovalar, onlayn bron qilish, elektron chiptalar va boshqa raqamli vositalardan foydalanishni o’z ichiga oladi. Raqamli turizm, shuningdek, yangi turistik tajribalarni yaratish uchun virtual haqiqat va kengaytirilgan haqiqatdan foydalanishni ham o’z ichiga oladi.

Raqamli turizm – turistlarga o’z ta’tillarini qulayroq va tezroq rejalashtirish, mehmonxona, sayohat va ekskursiyalarni bron qilishda yordam beruvchi texnologik yechimlar va xizmatlar majmuidir.

Raqamli sayohat bozori turli xil texnologik yutuqlar, iste’molchilarning xatti-harakatlari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillar tufayli jadal rivojlanmoqda. Ushbu bozorning o’sishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy iqtisodiy omillar quyidagilar:

1. Texnologik innovatsiyalar. Raqamli sayohat xizmatlarining o’sishi mobil qurilmalar va ijtimoiy media platformalarining ko’payishi kabi texnologik innovatsiyalar bilan chambarchas bog’liq. Ko’proq iste’molchilar sayohatni qidirish va bron qilish uchun texnologiyadan foydalanar ekan, kompaniyalar raqobatbardosh bo’lish uchun innovatsiyalarni davom ettirishlari va yangi xizmatlarni taklif qilishlari kerak.

2. Demografiya. Turizm industriyasi heterojen bozor bo’lib, har bir avlodning afzalliklari va xatti-harakatlari sezilarli darajada farqlanadi. Kompaniyalar o’zlarining raqamli takliflarini turli demografiya ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirishlari kerak.

3. Globallashuv. Xalqaro sayohatlarning o’sishi kompaniyalar uchun sayohatchilarning til tarjimai va madaniy ta’sir qilish kabi noyob ehtiyojlariga javob beradigan raqamli xizmatlarni taklif qilish imkoniyatlarini yaratdi. Bu, shuningdek, raqobatning kuchayishiga olib keldi, chunki kompaniyalar xorijda o’z ishtirokini kengaytirishga intilmoqda.

4. Iqtisodiy sharoitlar. Jahon iqtisodiyotining holati sayohatga bo’lgan talabga ta’sir qilishi va o’z navbatida raqamli sayohat xizmatlarining rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin. Misol uchun, iqtisodiy noaniqlik davrida iste’molchilar kamroq sayohat qilishlari va shuning uchun raqamli xizmatlardan kamroq foydalanishlari mumkin.

5. Tartiblash. Dunyo bo’ylab hukumatlar iste’molchilar xavfsizligini ta’minlash va firibgarlikdan himoya qilish uchun raqamli sayohat sanoatini tartibga soladi. Qoidalar kompaniyalar amal qilishi kerak bo’lgan standartlar va ko’rsatmalarni belgilash orqali raqamli xizmatlarning rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin.

Raqamli turizm xizmatlarining o’sishi va rivojlanishiga turli xil iqtisodiy omillar, jumladan texnologik innovatsiyalar, demografiya, globallashuv, iqtisodiy sharoitlar va tartibga solish ta’sir ko’rsatadi. Ushbu bozorda muvaffaqiyat qozonish uchun kompaniyalar ushbu omillardan xabardor bo’lishlari va o’z takliflarini mos ravishda moslashtirishlari kerak.

Raqamli turizmning asosiy texnologiyalari

Yo'q.	Ism	Tavsif
1	Sayyohlar uchun mobil ilovalar	Ular uzoq vaqtdan beri mashhur bo'lib kelgan, chunki ular dam olish joyini tanlashda, chiptalarni bron qilishda va diqqatga sazovor joylar haqida ma'lumot topishda maksimal erkinlik va qulaylikni ta'minlaydi.
2	Mehmonxonalar va aviachiptalarni onlayn bron qilish xizmatlari.	Mehmonxonalarni bron qilish uchun eng mashhur virtual sayt bu booking.com bo'lib, shuningdek siz aviasales.ru, skyscanner.ru saytlaridan sayohatlar uchun qidiruv tizimi sifatida foydalanishingiz mumkin.
3	Interaktiv xaritalar va navigatorlar	Interaktiv xaritalar va navigatorlar sizga kerakli shahardagi joylashuv va yo'nalishlar haqida ma'lumot olish imkonini beradi, shuningdek, sizga eng yaqin voqealar va ko'ngilocharlarni kuzatishga yordam beradi. Masalan, Google xaritalar, Maps me
4	Mobil qurilmalarda video va audio sayohatlar	Mobil qurilmalarda sayohatchilarga mahalliy diqqatga sazovor joylar va qiziqarli joylar bilan tezda tanishish, shuningdek, ekzotik mamlakatlardagi oddiy hayotni ko'rishga yordam beradigan video va audio sayohatlar.
5	Nutqni boshqa tilga tarjima qilish uchun nutqni aniqlash va matn sintezi texnologiyalari	Mobil qurilmalarda matnlar va suhbatlarni tarjima qilish uchun eng mashhur ilovalar mavjud, masalan Google Translate
6	Ijtimoiy tarmoqlar va sharhlar	Ko'pgina sayyohlar dam olish uchun qayerga borish, tashrif buyuradigan joylar, qayerda ovqatlanish va hokazolar haqida ma'lumot topish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar, shuningdek, sayyohlarning mehmonxonalar, restoranlar va diqqatga sazovor joylar haqida haqiqiy sharhlarini topishingiz mumkin.
7	Virtual haqiqat va 3D modellashtirish	Virtual reallik yordamida siz uyingizdan chiqmasdan dunyoning istalgan davlatiga tashrif buyurishingiz, 3D-modellar yordamida sayohat marshrutlarini oldindan rejalashtirishingiz mumkin.
8	Ekskursiyalar va tovarlarni etkazib berish uchun uchuvchisiz transport vositalari va dronlardan foydalanish	Ayrim shaharlar sayyohlarni tashish uchun o'zi boshqaradigan avtomobillardan foydalanishni allaqachon boshlagan, dronlardan esa yuqoridan chiroyli surat va videolar suratga olish mumkin.

Raqamli turizm sayyohlarga turlarni osongina sotib olish va ta'tillarni bron qilish, vaqt va pulni tejash hamda sayohatdan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

Raqamli turizmning eng aniq afzalliklaridan biri bu kerakli ma'lumotlarni olishning qulayligi va tezligi, shuningdek, sayyohlik agentliklari va turoperatorlar bilan muloqot qilish xarajatlarini kamaytirishdir. Bundan tashqari, raqamli yechimlar virtual sayohatlardan foydalanish

va qog'oz hujjatlarni elektron formatlarga almashtirish orqali atrof-muhitga ekologik yukni kamaytirishga yordam beradi.

Raqamli turizm sayyohlik xizmatlarini marketing va reklama qilish sohasida ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu sayyohlik kompaniyalariga an'anaviy reklama va ommaviy reklama xarajatlarini kamaytirish va maqsadli auditoriyani aniq belgilash imkonini beruvchi maqsadli reklamaga e'tibor qaratish imkonini beradi.

Yuqoridagi barcha texnologiyalarni o'zida mujassamlashtirgan va sayyohlarga dam olish joylari, diqqatga sazovor joylar, ekskursiyalar va sayyohlik marshrutlari haqida to'liq ma'lumot beradigan universal gid tizimini yaratishga qaratilgan ko'plab loyihalar mavjud.

Biroq, raqamli turizmning afzalliklari bilan bir qatorda o'zining xavf va qiyinchiliklari ham bor. Masalan, bron qilish saytlarida ro'yxatdan o'tishda kiberhujumlar va shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash ehtimoli ortadi. Shuningdek, texnologiya bilan o'zaro aloqa tayyor bo'lmagan turistlarni chalkashtirib yuborishi va ularni taklif etilayotgan turistik xizmatlarning xilma-xilligi bo'yicha harakat qilish imkoniyatidan mahrum qilishi mumkin.

Raqamli turizm global turizm industriyasining ajralmas qismi bo'lib, u allaqachon xizmatlar bozorini o'zgartirib, sohani rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda, degan xulosaga kelish mumkin. Biroq, texnologiyadan foydalanish va odamlar bilan aloqani saqlab qolish va turizmning hissiy komponenti o'rtasidagi muvozanat muhim ahamiyatga ega.

Shuni ham yodda tutish kerakki, raqamli texnologiyalar shaxsiy tajriba va mahalliy aholi va boshqa sayyohlar bilan o'zaro munosabatlarni to'liq almashtirmaydi. Shu sababli, raqamli texnologiyalardan foydalanishning ko'plab afzalliklari bo'lsa-da, faqat shaxsiy sayohat va boshqa odamlar bilan muloqot qilish orqali orttirish mumkin bo'lgan noyob tajribani unutmaslik kerak.

Umuman olganda, raqamli turizm nafaqat turizmdagi yangi texnologiyalar, balki bu jahon turizm sanoatida yangi davr – sayyohlar uchun yanada samaraliroq, arzonroq va qulayroq ekanligini aytishimiz mumkin. Aytishimiz mumkinki, tobora ko'proq sayyohlik kompaniyalari o'z faoliyatiga raqamli turizm va yangi texnologiyalarni joriy etish muhimligini anglay boshladilar. Hozircha ular bilan tanish bo'lmagan kompaniyalar eskirib qolish va turizm bozorida raqobatbardosh bo'lmaslik xavfiga duch kelishmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash va rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarni amalga oshirishga jur'at etgan kompaniyalar nafaqat daromadni oshirish, balki xizmatlar sifatini yaxshilash va mijozlarning qoniqishini oshirishga da'vo qilishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Навруз-зода Б. Н., Хуррамов О. К. Роль информационных технологий в цифровом туризме //International scientific review of the problems of economics, finance and management. – 2020. – С. 22-35.
2. Хуррамов О. К. Цифровой туризм и его значение в экономике Узбекистана //European research. – 2020. – Т. 3. – С. 61.
3. Tairova M., Xurramov O., Odinaeva N. An important role of internet marketing in digital tourism //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
4. Kayumovich K. O., Gulyamovich D. I., Khudoynazarovich S. A. Information and information technologies in digital tourism //Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia. – 2020. – С. 32.
5. Хуррамов О. К. Как мы можем использовать интернет-маркетинг в сфере гостиничной индустрии //Современные тенденции и актуальные вопросы развития туризма и гостиничного бизнеса в России. – 2017. – С. 344-349.
6. Navruz-zoda B. N., Khurramov O. K. Features and opportunities of digital tourism and its development in Uzbekistan //European research: innovation in science, education and technology. – 2020. – С. 22-24.
7. Хуррамов О. Особенности использования маркетинговых инструментов в социальных медиа //Alatoo Academic Studies. – 2016. – №. 2. – С. 236-249.
8. Khurramov O. K. The convenience of electronic marketing in tourism industry //Теория и практика современной науки. – 2019. – №. 5. – С. 35-38.

9. Khurramov O.K., Fayzieva S.A., Saidova F.K., Khalilov B.B., Fayzieva S.K., Directions for improvement digital tourism and tourism info structure in Uzbekistan // Journal of Critical Reviews, 2020. Vol. 7

Nigina Kabilova
lecturer, Bukhara State University

THE IMPORTANCE OF HOTEL EVENTS ORGANIZATION AND MANAGEMENT IN TOURISM INDUSTRY

Abstract: *Today events are becoming major factor for attracting both foreign and local travelers to the region. It is the basic measure for winning the competition between destinations and also its tourism industries, as well as hotels. The governance as a structure in the management is an important function that has a huge impact on the internal organization and content of the animation. The governance is basically performed by people that contribute certain advantages for the organization and fulfillment of all objectives to be realized. In a broaden sense of the word, the operation means adherence of the visitors within their holiday in order to offer their tourist program and satisfy their needs as well. The governance involves motivation and communication which are actually the basic segments of the animation in tourism. The governance of the animation activities is not possible without good organization and precise formulized plans and programs.*

Keywords: *tourism events, MICE, business events, animation, hotel.*

Most events related in tourism are held in association with International Congress and Convention Association (ICCA) in foreign countries, and this is MICE (meetings, events, conferences and events) industry for abroad.

Business events produce the highest daily yield of any sector of the tourism industry. Spain is the third country in organizing business events after US and Germany. Spain has 7401 hotels in all, mainly 4 and 5 star business chain hotels

(Chappell, 2019). The business events sector contributes an estimated \$17.36 billion a year to the national economy, generating 116000 jobs (Margaret et.al., 2003). But the net worth to the nation of business events far exceeds their hard dollar value. Among many other benefits, they promote and showcase area's expertise and innovation to the world and attract global leaders and investment decision makers.

Spain has a lot of tourists who stay in local and international hotels. It is not a secret that some of them prefer to celebrate their events in hotels. In addition, now celebrating a birthday and marriage anniversaries in hotels become a trend. The reason for that is a creative event manager who can organize any dream event.

For the organization of various events in Spain serve not only hotels but they have also Convention and Conference Centers with variety of facilities. However, in many tourism well developed countries, together with in Spain following events are celebrated in the hotels, which became in trend:

- Conference, presentation, press conference, exhibition;
- Meeting, course, seminar, training;
- Seated reception;
- Festival and thematic nights;
- Sports events;
- Christmas party;
- Corporate party;
- Prom dances and end-of-school dances for primary schools;
- Business breakfast, brunch;
- Birthday party, engagement party, wedding anniversary;
- Wedding;
- Christening;

Funeral.

The elegant style, cozy, air-conditioned restaurant and meeting room can accommodate events between 15-60 persons, even over 2000 people. And the services they offer also differ from one hotel to another. For instance:

- private room, meeting room or conference room;
- conference facilities;
- buffet breakfast, lunch or dinner;
- special menus;
- wide selection of wines;
- live music, shows;
- any type of transport;
- free parking;
- free Wi-Fi;
- smoking area and nonsmoking areas;
- relax terrace and garden.

For organizing events and animation programs inside the European hotels most of them have special “Event Management” departments for organizing and managing various events. Staff of this department have their precise responsibilities and duties for the organization of process. If it is MICE tourism conference or banquet hall is given for rent, when the organizers are hired. But major hotels organize events themselves.

There are also animation programs which are provided by hotel itself or else hires animators, like “STAGEMAN”, “Golden wave”, “Event Planner” companies. They offer various animation programs for entertaining the guests of the hotel, for prolonging their stays, for winning the competition, for attracting more travelers and raising occupancy rate of the hotel. For instance:

- kids club - different games every day;
- evening shows - different performances every day;
- a sports and mobilizing programs;
- full animation programs “all-around”;
- activities for the elderly and the disabled guests and others.

Moreover, they organize training sessions for leisure time animators. The training offered by them provides the best opportunity to start a new career and to learn the necessary practical skills. This training has been specially devised to teach them all the information and skills that they will need to become a successful animator. In addition to the training trainees will also receive ready-made programs for animation activities which can be used everywhere. This training is very real, hands-on, practical training. All training sessions will only be in perfectly equipped real situations, where trainees will learn through taking part in games, shows and fun activities and develop the knowledge and confidence to become a professional animator.

And here to contrast with Uzbekistan events as a special field of tourism is not yet developed like other countries. Even though the festivals and special events are reportedly increasing, there are still much to be done in order to organize the industry better. Uzbekistan should develop a specific policy or strategy that directly caters the event tourism. Despite the competition from private hotels, luxury hotels are also gaining popularity amongst business travelers. Uzbekistan, by becoming more open to international trade and investment, runs quite a large number of MICE events, the majority of which take place in Tashkent. During the tough times and high competition, such hotels learned to provide additional services such as spas, fitness and MICE facilities, transportation services, tours and many others.

Organization and holding of conferences is an important component of the present-day business tourism. The preparations for conferences, workshops or round tables that are to be attended by a large number of participants should start long before the holding date of the event, which is done to work out all the stages of the organization of a conference:

- making and approbation of a conference program;
- selection of a venue for a conference, renting of a proper conference room and

required technical and demonstration equipment;

- organization of banquets, coffee breaks and stand-up parties;
- transportation and booking of hotel rooms and air and railway tickets.

REFERENCES

1. Chappell, J. (2019). Horwath HTL (Hotel, Tourism & Leisure) European Hotels & Chains Report, 17-18. [Electronic resource]. Retrieved from: https://corporate.cms-horwathhtl.com/wp-content/uploads/sites/2/2019/03/HTL_2019_EU_CHAINS-2.pdf.
2. Getz, D. (2008). Event tourism: Definition, evolution, and research. Tourism Management. University of Calgary, 403–428.
3. Getz, D., & Stephen, J. (2016). Event studies: Theory, research and policy for planned events. Routledge.
4. Shuxratovna, K. N. (2022). MARKETING STRATEGIES FOR MANAGING SMALL HOTELS IN UZBEKISTAN. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 392-394.
5. Margaret, D., Leo, J., Liz, F., & Larry, D. (2003). The National Business Events Study: an evaluation of the Australian business events sector. Australia. [Electronic resource]. Retrieved from: https://www.businesseventscouncil.org.au/files/NBES_-_Final_Report_April_05.pdf.
6. Кабилова, Н. Ш. (2021). ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ В РАЗВИТИИ РЫНКА ТУРИСТСКИХ УСЛУГ. *НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ: сборник статей IX*, 114.
7. Axrorova, N. (2021). The Conceptual Clarifications Of Youth Travel And Tourism In The Case Of Uzbekistan. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
8. Official web site of the State Committee of the Republic of Uzbekistan on tourism. (2021). [Electronic resource]. Retrieved from: www.uzbektourism.uz.
9. Akhrorova, N. U. (2022). Swot Analysis in Youth Tourism Development Strategies for Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 5(12), 26-33.
10. Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2021). [Electronic resource]. Retrieved from: www.stat.uz.
11. Uktamovna, A. N. (2023). THE DIFFERENCES AND CHARACTERISTICS OF YOUNG TRAVELLERS. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(5).

Ruziyeva Gulinoz Fatillovna

BDU tayanch doktoranti

IMKONIYATI CHEKLANGAN INTELLEKTAL SALOHİYATLI YOSHLARNI MILLIY HUNARMANDCHILIKKA KENG JALB QILISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.02.2023 yildagi PQ-74-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, nogironligi bor shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasini yaratish vazifasi qo‘yildi, shu munosabat bilan davlat tomonidan bir qator qulaylik va yengilliklar yaratib berilmoqda.

2022 yil 1 aprel holatiga O‘zbekistonda 790 mingdan ziyod nogironligi bo‘lgan fuqarolar yashaydi. Ular uchun turizm infratuzilmasi takomillashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, bunda:

- Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida - 2023 yilda;
- Farg‘ona, Namangan, Andijon va Jizzax viloyatlarida - 2024 yilda;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida - 2025 yilda;
- Toshkent shahri va Toshkent viloyatida - 2026 yilga qadar ular uchun infratuzilmaviy qulayliklar yaratish rejalashtirilgan.

Shu munosabat bilan, tadbirkorlar uchun 2023 yil 1 martdan 2026 yil 1 martga qadar quyidagilar davlat tomonidan qoplanadi. Mehmonxonaning kamida 3 ta xonasi o'rindiqli aravachadan foydalanadigan, shuningdek, eshitish va ko'rish bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslar uchun displeylar hamda ovozli qurilmalar bilan jihozlash va saqlash bo'yicha xarajatlar:

- 5 yulduzli toifadagi mehmonxonaning har bir xonasi uchun 3 mln so'm;
- 4 yulduzli toifadagi mehmonxonaning har bir xonasi uchun 2 mln so'm;
- 3 yulduzli toifadagi mehmonxonaning har bir xonasi uchun 1,5 mln so'm;
- toifasiz mehmonxonaning har bir xonasi uchun 1 mln so'm;
- o'rindiqli aravachalar uchun basseynlarni qulay tarzda jihozlash xarajatlarining bir qismi - lekin 10 mln so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda;

• restoran va kafelar uchun ovozli menyu xarid qilish va ta'minlash bo'yicha xarajatlar - har bir ovozli menyu uchun 1 mln so'm miqdorida;

Bundan tashqari, transport xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlarining qulay tarzda jihozlash xarajatlarini qoplash uchun:

- M1 toifadagi avtomobillarni ko'targich bilan ta'minlash uchun 10 mln so'm, liftlar bilan ta'minlash 15 mln so'm;

- M2 va M3 toifadagi avtomobillarni ko'targich bilan ta'minlash uchun 15 mln so'm, liftlar bilan ta'minlash 20 mln so'm;

- M1, M2 va M3 toifadagi avtomobillarda har bir o'rindiqli uchun 3 mln so'm. O'zbekiston fuqarolari uchun ichki sayohatni tashkil etuvchi (guruh uchun kamida 5 nafar nogironligi bo'lgan shaxs) O'zbekiston rezidenti bo'lgan turoperatorlar, bunday sayohat bo'yicha foyda solig'i to'lashdan ozod etiladi.

Bunday yengilliklarning yaratib berilishi tadbirkorlik subyektlarini yanada qunt bilan ishlashga da'vat etadi degan fikrdamiz. Respublikamizda nafaqat tadbirkorlar, balki, nogironligi bo'lgan turistlar uchun ham quyidagilar yaratib berildi.

2022 yil 1 sentabrdan boshlab "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga sayohat davomida hamrohlik qiluvchi fuqarolarga quyidagi miqdorlarda chegirmalarni berish joriy qilingan:

transport vositalari chiptalarini xarid qilish va foydalanishda:

- avia chipta qiymatining 50%i;
- temir yo'l chiptasi qiymatining 40%i;
- avtobus chiptasi qiymatining 30%i;

madaniy meros ob'ektlari, muzeylar va teatrlarga tashrif buyurganda:

- chipta qiymatining 50%i.

Chiptalarni xarid qilish va ulardan foydalanish uchun chegirmalar nogironligi bo'lgan shaxslarning pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi mavjud bo'lganda taqdim etiladi.

Bu qarorlarning qabul qilinishi asnosida respublikamizda yangi turizm turi to'siqsiz turizm tushunchasining kirib kelishini ham kuzatishimiz mumkin. To'siqsiz turizm - bu jismoniy yoki intellektual imkoniyatlaridan, nogironligidan va yoshidan qat'i nazar, sayohat joylari, mahsulot va xizmatlar barcha odamlar uchun ochiq bo'lishiga qaratilgan doimiy harakatdir. Quyidagilar O'zbekistonda to'siqsiz turizmni rivojlantirish va qulay shart-sharoitlar yaratishning asosiy yo'nalishlari etib belgilanmoqda:

- turizm namoyishi obyektlari infratuzilmasi, birinchi navbatda madaniy meros obyektlari, ziyorat obyektlari, muzeylar, teatrlar va joylashtirish vositalarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish;

- turizm sohasi subyektlari, shu jumladan, turoperator va turagentlar, joylashtirish vositalari hamda transport xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarga sayohat davomida hamrohlik qiluvchi fuqarolarni rag'batlantirish;

- nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz turizmni amalga oshirishlari uchun yaratilgan imkoniyatlarni tizimli hamda faol targ'ibot kampaniyalarini tashkil etish orqali ular xabardorligini oshirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda turizm namoyishi obyektlarida ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish;
- nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, jumladan, fuqarolar va homiyar xayriyalari hamda xorijiy tashkilotlarning grant mablag'larini jalb qilish tizimini takomillashtirish orqali to'siqsiz turizmni amalga oshirish.

Yaratilgan bunday imkoniyatlar imkoniyati cheklangan insonlarning ham barcha kabi bir xil dam olish, sayohatni amalga oshirish huquqlarini qonuniy tenglashtirib bermoqda. Bundan tashqari, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab davlat va davlat ulushi mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarida "Turizm", "Gid hamrohligi" hamda "Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha davlat buyurtmasi parametrlarining 1 foizi miqdorida davlat grantlariga kvotalar ajratish tizimi joriy qilinadi.

Shu jumladan, Buxoro viloyati hududida imkoniyati cheklangan intellektual salohiyatli yoshlar hudud aholisining 10-15%ga yaqinini tashkil qilmoqda. Hunarmandchilik bugungi kunning eng rivojlanib borayotgan hamda ayniqsa imkoniyati cheklangan yoshlar uchun eng qulay kasblardan bo'lib hisoblanadi.

Umumiy respublika miqyosidan tashqari, har bir viloyatda ham hunarmandchilik sohasida bir qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, xususan, Buxoro viloyatida bugungi kunda 8 nomdagi hunarmandchilik markazlari tashkil qilingan bo'lib, u yerda faoliyat yuritayotgan hunarmandlar chet mamlakatlarga tajriba almashinish maqsadida bormoqdalar. Tashrif jarayonida hunarmandlar milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizni keng ommaga targ'ib qilishmoqda.

Jumladan, joriy yilning 22- va 23-aprel kunlari Parijdagi Arab dunyosi institutida buxorolik Davlat Toshevning miniatyura bo'yicha mahorat darslari bo'lib o'tdi. U ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan mahoratli o'zbek miniatyurachilaridan biri hisoblanib, bundan oldin ham uning asarlari xalqaro ko'rgazmalarda, xususan, Qozog'istondagi "Markaziy Osiyo hunarmandlari" (2001–2003), Parijdagi "O'zbek miniatyurasi" (2005) va Santa-Fe, AQSh (2009)dagi ko'rgazmalarda namoyish etilgan. Shuningdek, u 2019-yilda "Ustoz-shogird" bolalar amaliy san'ati markaziga asos solgan.

Buxoro viloyatida xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 123-maktab internati faoliyat olib boradi. Davlat Toshevning 2019-yilda asos solingan amaliy markaziga bu maktab internat o'quvchilarining muntazam qatnovini kuzatishimiz mumkin. Mazkur muassasani 2018-2022-yillar davomida 61 nafar o'quvchi bitirgan. Shundan, 31 nafari yigit va 30 nafari qiz bolalarni tashkil qiladi. Bitiruvchilarning imkoniyati cheklanganligi sababli 40 foizi keyingi faoliyatini, jumladan, o'quvchi yigit va qizlardan 8 nafari oliy talim muassasalarida o'qishga, 18 nafari ishlab chiqarish korxonalarida ish faoliyatlarini davom ettirmoqda. Shulardan 3 nafari hunarmand Davlat Toshevning san'at markazida bepul ta'lim olib bugungi kunda o'zlarining ish faoliyatini mustaqil ravishda davom ettirmoqdalar. Bu esa muassasa bitiruvchilarining 50%ga yaqini band etilganligini tashkil qiladi. Bugungi imkoniyati cheklangan insonlarga yaratilayotgan shunday imkoniyatlar ko'lamida "Hunar – zar" markazlarini klaster shaklda tashkil qilib, bunday markazda aynan imkoniyat jihatdan cheklangan insonlarga hunar o'rgatish bilan birga ularni ish bilan band qilish hamda ular o'zlari tayyorlagan mahsulotlarini aynan sayyohlarga sotishlari orqali daromad olishlarini ham ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi.

Badiiy miniatyura o'zbek xalqining madaniy o'zlikni anglashini yaqqol aks ettiradi. U o'rta asrlarda shakllangan jamiyatning ma'naviy qadriyat va barkamollik namunalarini zamonaviy hayot ehtiyojlariga moslashtirgan holda qayta idrok etishga undaydi. Bugungi kunda miniatyura charm, yog'och, chinni va sopol buyumlariga yanada fayz baxshlashda amaliy bezakli-rangli tasvirlarning betakror va muhim turiga aylanib ulgurgan. Chet el sayyohlarining esa bunday hunarmandchilik turlariga qiziqishlari kata. Bunday markazlarni tashkil qilish orqali biz turistning

yana bir kunini band qilib, faoliyat jarayonida o`zini ishtirok etishini tashkil qilish orqali uni shu hunarmandchilik turiga qiziqtirishimiz va bu orqali iqtisodiy foydaga erishishni ta`minlashimiz mumkin bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi —Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash to`g`risida PF-5242-son Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi —Hunarmand uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida PQ-3393-son qarori
3. Hunarmand tadbirkorlarni tayyorlashdagi innovatsiyalar: monografiya. / E.F. Zeer, D.P. Zavodchikov, E.G. Lopez, A.M. Pavlova; ilmiy tahrir. E.F. Zeera. Yekaterinburg: FGAOU VPO “Ros. Davlat prof. - ped. un-t”, 2011. 216 b.
4. Komarova O.V., Salamatova T.A. Hunarmandchilik, kichik va o`rta biznes va o`rta sinfni rivojlantirish muammolari. Yekaterinburg: nashriyot uyi: FGAOU VPO “Ros. davlat prof. - ped. un-t”, 2012. 163 b.
6. G.F. Ro`ziyeva “Turizmni rivojlantirishda milliy hunarmandchilik brendini yaratishning iqtisodiy-psixologik ahamiyati” Buxoro muhandislik-texnologiya institutining “Fan va texnologiyalarni rivojlantirish” ilmiy-texnikaviy jurnali. - Buxoro, 2020. - B 313-317
7. G.F. Ruziyeva “Milliy turizm jozibadorligini oshirishda hunarmandchilikning roli” Barqarorlik va yetakchi tadqiqot onlayn ilmiy jurnali – Toshkent, 2021
8. G.F. Ro`ziyeva “Turizmni rivojlantirishda milliy hunarmandchilik brendini yaratishning iqtisodiy ahamiyati” Xorazm Badiiy Akademiyasi axborotnomasi. Xorazm 2021 yil dekabr

Бахтиёрова Нигина Улугбек кизи

Магистрант по специальности «Цифровая экономика»

Бухарский государственный университет

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УСЛУГ СОЦИАЛЬНОГО МЕДИА МАРКЕТИНГА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Маркетинг в социальных сетях является очень важным инструментом в настоящее время, который может значительно повысить узнаваемость бренда, увеличить доход компании и улучшить взаимоотношения с клиентами. Маркетинг в социальных сетях является одним из самых эффективных способов продвижения продуктов и услуг в интернете. Он заключается в использовании специальных стратегий и технологий для привлечения внимания целевой аудитории в социальных сетях и перенаправления ее на сайт продукта или услуги.

Маркетинг в социальных сетях - это использование платформ социальных медиа для привлечения внимания к продукту или услуге, установления контакта и взаимодействия с клиентами, увеличения узнаваемости бренда и повышения продаж.

Сущность маркетинга в социальных сетях состоит в том, чтобы использовать возможности социальных сетей для рекламы, продвижения, улучшения обслуживания и улучшения взаимодействия с клиентами.

Преимущества маркетинга в социальных сетях:

- Возможность достигать широкой аудитории. Социальные сети имеют миллионы пользователей со всего мира, что позволяет достигнуть большой потенциальной аудитории за короткое время.

- Увеличение лояльности клиентов. Постоянное взаимодействие с клиентами через социальные сети, публикация интересных и полезных материалов и решение проблем улучшает общее впечатление клиентов о бренде и повышает их лояльность.

- Низкие расходы на рекламу. Реклама в социальных сетях может быть более эффективной и дешевой, чем в других каналах маркетинга, например, телевизионная или радиореклама.

- Более эффективное таргетирование. Социальные сети позволяют настроить точечное таргетирование рекламы на конкретную целевую аудиторию, используя данные о пользователе, такие как географическое положение, возраст, интересы и поведение.

Социальные медиа являются одним из самых популярных и эффективных инструментов маркетинга в настоящее время. В высших учебных заведениях также широко используется маркетинг социальных медиа для привлечения новых студентов, поддержания связи с текущими студентами и создания сообщества вокруг университета.

Один из основных способов использования маркетинга социальных медиа в высших учебных заведениях - это создание активных страниц в социальных сетях, таких как Facebook, Instagram, Twitter, LinkedIn и т.д. Эти страницы позволяют университетам продвигать свои программы, привлекать новых студентов и устанавливать более тесный контакт с текущими студентами. На страницах в социальных сетях могут быть размещены не только информация о программе обучения и активностях университета, но и новости из мира науки и образования, интересные статьи, мемы и другие материалы, которые могут быть интересны целевой аудитории.

Другой способ использования маркетинга социальных медиа в высших учебных заведениях - это создание видеоконтента. Видео является одним из самых эффективных способов привлечения внимания и коммуникации с аудиторией. В высших учебных заведениях видео могут использоваться для создания впечатляющих видеопрезентаций, последовательных роликов, обзоров программ обучения, инструктивных видеоуроков и многого другого.

Пример успешного использования маркетинга социальных медиа в высших учебных заведениях - это кампания маркетинга социальных медиа университета Джорджтаун, в рамках которой создавались целевые группы в социальных сетях, проводились онлайн-презентации, рассылки электронных писем и т.д. В результате кампании количество заявлений на поступление увеличилось на 12%.

Таблица №1.

Способы использования услуг маркетинга в социальных медиа в высших учебных заведениях

№	Направление	Сущность
1.	Создание контента в социальных медиа-платформах	Использование текстов, фотографий, видео, пресс-релизов, интерактивных опросов и других материалов, чтобы привлечь студентов и родителей в целевую аудиторию. Это может быть сделано через социальные медиа-сайты, такие как Facebook, Twitter, LinkedIn и Instagram, чтобы привлечь внимание к предлагаемым программам и услугам.
2.	Реклама в социальных медиа-платформах	Использование рекламных кампаний на социальных медиа-сайтах, таких как Facebook, для привлечения внимания новых студентов. Это может быть сделано через выбор аудитории, установки бюджета и регулирования ставок.
3.	Взаимодействие	Создание программ для взаимодействия со студентами и родителями через социальные медиа-платформы, такие как Facebook, чтобы дать им возможность задавать вопросы и получать обратную связь от высшего учебного заведения. Это может быть сделано через настройку группы на Facebook, ответы на комментарии и другие функции.
4.	Мониторинг профиля	Следить за профилями высшего учебного заведения в социальных медиа, чтобы узнать, что люди говорят об учебном заведении. Это поможет узнать, что необходимо изменить или улучшить и как лучше общаться со студентами и родителями.
5.	Привлечение	студентов Высшие учебные заведения могут использовать социальные медиа для привлечения новых студентов, особенно

		для летней, зимней и весенней рекрутинговых компаний. Реклама в социальных медиа может помочь учебным заведениям достигать целевой аудитории студентов, которые имеют высокие шансы на поступление.
6.	Улучшение лояльности студентов	Социальные медиа могут помочь учебным заведениям укреплять отношения со своими студентами. Учебные заведения могут использовать социальные медиа для распространения информации о новых программах, событиях и прочих материалах, которые могут быть полезными для студентов. Также возможно проведение конкурсов, опросов и мероприятий на социальных медиа, которые могут быть привлекательными для студентов.
7.	Организация мероприятий	-Учебные заведения могут использовать социальные медиа для проведения различных мероприятий, как, например, онлайн-семинары, фестивали, конкурсы, показы мод, конференции и многие другие. Благодаря использованию социальных медиа, количество зрителей и участников мероприятий может быть увеличено.
8.	Поддержка студенческих проектов	Социальные медиа могут помочь студенческим проектам и стартапам привлечь внимание и поддержку. Учебные заведения могут использовать свои аккаунты в социальных медиа для распространения информации о проектах и привлечения новых участников.
9.	Общение с выпускниками	Социальные медиа могут стать отличным инструментом для учебных заведений, которые хотят поддерживать связь со своими выпускниками. Ученики могут использовать социальные медиа для общения с последними новостями о своих университетах и своих товарищах, которые там учатся.

Другой успех в области маркетинга социальных медиа - это использование платформы YouTube для проведения виртуальных экскурсий по учебному заведению. К таким платформам относятся Google камера и платформа 360 технологий, которые на примере экскурсии позволяют показать университет со всех сторон: от академических классов до университетского города.

Примеры использования услуг маркетинга в социальных медиа в высших учебных заведениях:

1. Harvard University: Harvard использует широкий спектр социальных медиа-платформ для продвижения своих услуг и извлечения пользы из аудитории социальных медиа. Facebook, Twitter, LinkedIn и Instagram являются основными игроками в маркетинге Harvard.

2. University of Oxford: Oxford использует более широкий спектр платформ маркетинга социальных медиа и сделал большой акцент на использование визуальных материалов, таких как фотографии и видео, для привлечения внимания.

3. Stanford University: Stanford делает основную ставку на свое присутствие в Twitter, чтобы дать студентам и родителям полностью представление о том, что имеют в виду услуги и программы, предоставляемые университетом.

Использование маркетинга в социальных медиа может быть очень эффективным инструментом для продвижения и связи университетов со студентами. Через создание контента, рекламных кампаний, взаимодействие и мониторинг профиля учебных заведений в социальных медиа-платформах, высшие учебные заведения могут улучшить свою репутацию и привлечь больше студентов.

В целом, использование маркетинга социальных медиа в высших учебных заведениях является эффективным способом привлечения новых студентов и укрепления связей с текущей учебной общественностью. При правильной стратегии и ресурсах, маркетинг социальных медиа может быть очень эффективным инструментом развития университета и укрепления его позиции на рынке высшего образования.

Список использованной литературы:

10. Навруз-зода Б. Н., Хуррамов О. К. Роль информационных технологий в цифровом туризме //International scientific review of the problems of economics, finance and management. – 2020. – С. 22-35.
11. Tairova M., Xurramov O., Odinaeva N. An important role of internet marketing in digital tourism //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
12. Kayumovich K. O., Gulyamovich D. I., Khudoynazarovich S. A. Information and information technologies in digital tourism //Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia. – 2020. – С. 32.
13. Khurramov O. K., Kasimova H. J. The main advantages of internet marketing and differences from traditional marketing //Мировая наука. – 2019. – №. 4 (25). – С. 65-68.
14. Хуррамов О. Особенности использования маркетинговых инструментов в социальных медиа //Alatoo Academic Studies. – 2016. – №. 2. – С. 236-249.
15. Khurramov O. K. The convenience of electronic marketing in tourism industry //Теория и практика современной науки. – 2019. – №. 5. – С. 35-38.

Xoliqov Nodirjon Abduxalil o'g'li
“Ipak yo'li” turizm va madaniy meros
xalqaro universiteti tayanch doktoranti.

SAMARQAND VILOYATIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada ziyorat atamasiga turli xil manbaalarda keltirilgan ta'riflar hamda mamlakatimiz olimlarining bu haqidagi fikrlari o'rganilib, muallif tomonidan tahlil qilingan. Shu bilan birga, so'ngi yillarda Samarqand viloyatiga ziyorat maqsadida tashrif buyuruvchilarning umumiy mehmonlar soniga nisbati tahlil qilingan. Samarqand viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirish borasidagi ayrim muammolarga e'tibor qaratilgan va ularni bartaraf etish choralari bo'yicha mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ziyorat, Samarqand, turizm.

Kirish

O'zbekiston dunyo miqyosida muqaddas qadamjolarga boy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida islom ilmlari rivojida beqiyos o'rin tutgan buyuk mutafakkirlar xoki abadiy qo'nim topgan manzillarni o'rganish, ularni obodonlashtirish ishlari olib borildi, ushbu manzillar ziyorat qiladigan maskanlarga aylantirildi. Bunday qadamjolar nafaqat O'zbekiston aholisi, balki butun islom olami uchun muqaddas hisoblanadi.

O'zbekistonning moddiy-madaniy meros resurslari ro'yxatida Samarqand viloyatining potentsiali yuqori. Ming yillar davomida bu shahar Buyuk Ipak yo'lining asosiy markazi bo'lib kelgan. 2001-yilda Samarqand shahri “Madaniyatlar-chorrahasi” deya nomlanib, YuNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritildi¹.

Samarqand qadimdan ne-ne avliyo-yu olimlar, buyuk istedod sohiblari, din namoyondalari, davlat arboblari yashab o'tgan muqaddas yerlardan biridir. Shaharning aynan Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi uning tarixida, ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan. UNESKOning umumjahon meroslari ro'yxatida ham Samarqandni “Madaniyatlar chorrahasi” deb nomlanishi bejizga emas albatta. Bu chorrahada nafaqat moddiy tovar boyliklari savdosi amalga oshgan balki,

¹ <https://whc.unesco.org/en/statesparties/uz>

dunyo xalqlari madaniyatlari ham o‘zaro uyg‘unlashgan. Ushbu almashinishlar markazida bo‘lgan shaharda ilm-fan, savdo-sotiq, din va boshqa sohalar rivojlangan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

“Ziyorat” arabcha زيارَة (ziyārah) so‘zidan olingan bo‘lib, “tashrif buyurish” degan ma‘noni bildiradi¹.

Filolog Abdurahob Madvaliyev tahriri ostida chop etilgan o‘zbek tilining izohli lug‘atida “Ziyorat” terminiga shunday ta‘rif berilgan: Ziyorat — tashrif, tabarruk joylarga safar qilish. (1) Diniy nuqtai nazardan muqaddas joylarga mo‘jizalar va qabristonlarga borib sig‘inish. (2) Hurmat yoki rasmiyat yuzasidan keksa tabarruk kishilar, hurmatli zotlar huzuriga tashrif buyurib, ularning holidan xabar olish, ularni muborakbod qilish.

Professor M.Pardayev va X.Samarovlarning ta’kidlashicha², “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga, "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom musiqasi", "Navro‘z", "Katta ashula", "Askiya", "Palov madaniyati va an‘analari" Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro‘yxatiga kiritilgan.

R.Amriddinova hamda T. Evadullaevlar fikricha³, ziyorat islom dinining turistik bazasi hisoblanib, uni ilohiy qadriyatlarga asoslangan diniy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoviy ziyoratga bo‘lish mumkin. Ular o‘z tadqiqotlarida mamlakatimizda so‘ngi yillarda sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, xususan ziyorat turizmiga oid yangi me‘yoriy hujjatlar, konferensiya va seminarlar hamda xorijiy tajribalar haqida fikr bildirishgan.

Insonlar uchun ziyorat – tarixiy yodgorliklarga tashrif buyurish, muqaddas qadamjolarini borib ko‘rish va rivojlantirish uchun ehson qilish hamda ma’naviy hordiq chiqarish kabilardir. Ko‘p hollarda kishilar aynan shu maqsadlarda diniy hududlarni ziyorat qiladilar. Zotan, ziyorat faqat tomosha emas: u, eng avvalo, buyuklar ruhini his etish, ma’naviy-ruhiy muhitdan quvvat olish, ulug‘lar maqomi va tutumini, tiriklik va hayot haqida eng azaliy haqiqatni anglash, qalbni shu haqiqat bilan boyitishdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mamlakatimizda turizm sektorini diversifikatsiya qilish, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida Samarqand viloyatidagi ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishni belgilashda yagona tizim sifatida o‘rganish metodologiyasi qo‘llanilib, bu borada mutaxassislar fikrini o‘rgangan holda, kuzatish, qiyoslash, emperik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi usullar qo‘llanilgan. Shuningdek, viloyatda ziyorat turizmi rivojlanishi yo‘nalishlarining ustuvor vazifalariga oid xulosalar qilingan va uni takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar


O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 846-son Qarorida keltirilgan ma’lumotlar asosida Samarqand viloyatida 1607 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud. Ushbu obyektlarning tarkibiy tuzilishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, resurslarning aksariyati (61.2%i yoki 985ta) arxeologiya yodgorliklari, salmoqli qismi (34.3% yoki 552ta) arxitektura yodgorliklari, 2.2% (36ta) va 2.1%i (34ta) esa mos ravishda monumental san’at hamda diqqatga sazovor joylar hissasiga to‘g‘ri keladi (1.1-rasm).

¹ Gibb, H. A. R.; Kramers, J. H.; Lévi-Provençal, E.; Schacht, J.; Lewis, B.; Pellat, Ch., eds. (1960). The Encyclopaedia of Islam, New Edition, Volume I: W–Z. Leiden: E. J. Brill. pp. 524, 533–39. ISBN 90-04-08114-3.

² M.Pardayev, X.Samarov // Samarqandda 1607 ta madaniy meros ob‘yekti bor. Ulardan samarali foydalanyapmizmi?//Zarnews 14.04.2021

<https://zarnews.uz/uz/post/samarqandda-1607-ta-madaniy-meros-obekti-bor-ulardan-samarali-foydalanaypmizmi>


³ R. S. Amriddinova, T. Sh. Evadullaev// CONTENT AND ESSENCE OF THE CONCEPT OF PILGRIMAGE TOURISM // Web of scientist, International scientific research journal, ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2, Feb., 2022



1.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida joylashgan moddiy-madaniy meros obyektlari soni hamda Samarqand viloyatining ulushi¹

Samarqand viloyatida ko'chmas moddiy-madaniy meros obyektlarining viloyat bo'yicha taqsimlanishi ham bir tekisda emas. Ularning asosiy qismi Samarqand shahrida joylashgan. Obyektlar infratuzilmasi ham bir xil darajada emas ayrimlari talabga javob bersa, ba'zilarida esa mavjud infratuzilma minimal darajadan ham pastroqda.

2018-2021 yillarda Samarqand viloyatida joylashgan mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari hamda ularga tashrif buyurgan sayyohlar soni haqidagi statistik ma'lumotlar bilan 1.2-rasmda tanishib chiqamiz.



1.2-rasm. 2018-2021 yillarda Samarqand viloyatida joylashgan mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari hamda ularga tashrif buyurganlar soni²

Rasmdan ko'rinib turibdiki, 2018-2021 yillarda Samarqand viloyatida sayyohlik faoliyati bilan shug'ullanadigan firma va tashkilotlar soni kamayib keyin barqarorlashgan hamda xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni esa kamayish tendensiyasini aks ettirgan bo'lsa, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari esa notekis ravishda o'zgargan. Bunga sabab shuki, pandemiya tufayli kiritilgan cheklovlar natijasida sayyohlik faoliyati bilan shug'ullanadigan firma va tashkilotlar hamda tashrif buyuruvchilar soni tizimli o'zgarmagan.

Tahliliy ma'lumotlar bilan tanishamiz, 2018-2021 yillarda Samarqand viloyatiga tashrif buyurgan hamda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi haqidagi statistikani ko'rib chiqamiz³(1.1-jadval).

1.1-jadval. 2018-2021 yillarda Samarqand viloyatiga tashrif buyurgan hamda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslar to'g'risida ma'lumot.

2018-yil	Jami	176 375
	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari	86 620
	MDH mamlakatlaridan	22 559
	Uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari	67 196
2019-yil	Jami	268 367

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" 846-son Qarorida keltirilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

² Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan shakllantirilgan

³ Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari	85 819
	MDH mamlakatlaridan	41 898
	Uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari	140 650
2020-yil	Jami	65 074
	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari	51 674
	MDH mamlakatlaridan	5 327
	Uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari	8 073
2021-yil	Jami	121 398
	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari	82 798
	MDH mamlakatlaridan	16 348
	Uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari	22 252


Samarqand viloyatiga tashrif buyurayotgan turistlar turli xil maqsadlarda sayohat qilishadi. Bizning mavzuga ziyorat maqsadida tashrif buyurgan turistlar statistikasi yaqinroq bo'lgani uchun aynan ziyorat qilish maqsadida viloyatga tashrif buyurgan, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishamiz (1.2-jadval).

1.2-jadval. 2018-2021 yillarda Samarqand viloyatiga ziyorat qilish maqsadida tashrif buyurgan hamda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi¹

2018-yil	Jami	16 814
	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari	10 128
	MDH mamlakatlaridan	2 973
	Uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari	98
2019-yil	Jami	30 037
	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari	16 489
	MDH mamlakatlaridan	5 524
	Uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari	8 024
2020-yil	Jami	2 057
	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari	441
	MDH mamlakatlaridan	616
	Uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari	1 000
2021-yil	Jami	8 559
	O'zbekiston Respublikasi fuqarolari	5918
	MDH mamlakatlaridan	928
	Uzoq xorijiy mamlakatlar fuqarolari	1 713

Yuqoridagi 1.1 va 1.2-jadval ma'lumotlaridan foydalanib umumlashtirgan holda quyidagi diagrammani hosil qilamiz (1.3-rasm).

¹ Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan



1.3-rasm. 2018-2021 yillarda Samarqand viloyatiga ziyorat qilish maqsadida tashrif buyurgan hamda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning umumiy tashrif buyurgan mehmonlarga nisbati to'g'risida ma'lumot

1.3 rasmdan bilib olishimiz mumkinki, 2018-yilda viloyatga jami tashrif buyurganlarning 9 % dan ziyotroq qismi, 2019-yilda 11% qismi 2020-2021 yillarda esa mos ravishda 3-7 % qismi ziyorat maqsadida tashrif buyurishgan. So'ngi yillarda aynan ziyorat maqsadida tashrif buyuruvchilar sonining kamayishi bu borada jiddiy o'ylab ko'rishga undaydi.

Xulosa

Har bir inson umri mobaynida biror bir joyga sayohat qiladi. Balki bu sayohat xalqaro yoki katta mablag' talab etadiga sayohat emasdir. Oddiygina qo'shni shaharga borib maroqli hordiq chiqarish, estetik zavq olish ham kishi tabiatiga ijobiy ta'sir qiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, sayohat qilgan kishining dunyoqarashi, muammoni ko'ra bilish va unga yechim topishdagi fikrlash doirasi boshqalarga qaraganda kuchliroq bo'ladi.

Yurtimizda turistik diqqatga sazovor joylar anchagina. Sayyohlar oqimini rivojlantirish uchun keng ko'lamli sa'y-harakatlar qilinmoqda. Nafaqat xorijiy turistlarni, balki ichki turizmni ham kengaytirish masalalari maqsad qilingan.

Turizmning rivojlanishi davlat uchun ham juda foydalidir. Xususan, mamlakat turizmni rivojlantirish evaziga o'z iqtisodiyotining yuksalishiga erishadi; davlat budjetiga tushumlarning ko'payishi ta'minlanadi; tabiiy resurslarni asrab-avaylanishiga erishiladi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga harakat qilinadi; xalqaro aloqalar mustahkamlanadi, madaniy munosabatlar kengayadi, valyuta tushumi ko'payadi. Qolaversa, so'ngi yillarda yurtimizda o'tkazilayotgan ziyorat turizmi forumi, haftaliklari hamda konferensiyalar sohani rivojlantirishda, turistlar e'tiborini jalb qilishda o'z samarasini bermoqda. Lekin, shunga qaramasdan mamlakatimizda hali qilinishi kerak bo'lgan ishlar talaygina. Ziyorat turizmini rivojlantirmoqchi ekanmiz, unga qo'yiladigan talablarga ham moslashishimiz kerak. Bunda joylashtirish vositalari, ovqatlantirish korxonalari, gid-ekskursavod, transport hamda ziyorat destinatsiyalaridagi xizmatlar hamda xizmatchilariga qo'yiladigan talablar bilan avvalombor o'zimiz, xalqimiz va bevosita xizmatda bo'ladigan kishilarni tanishtirishimiz shart va zarurdir.

- Infratuzilma. Samarqand viloyatida joylashgan ayrim tarixiy obyektlarimizdagi turistlar uchun yaratilgan sharoitlar yetarli darajada, lekin ular sanoqli darajada. Hali ommalashmagan, xususan ba'zi tumanlarda obyektlardagi ahvol minimal darajadan ham past.

- Kadrlar masalasi. Chet tilini mukammal o'zlashtirgan, diniy ziyorat obyektlarimiz hamda diniy ulamolarimiz haqida mukammal biladigan professional kadrlarimiz yetarli emas. Gid ekskursavodlar mavjud, ammo Islom nuqtai nazaridan diniy ahkomlarni mukammal o'zlashtirgan, Qur'oni Karimni tafsir eta oladigan, shar'iy bilimlarni mukammal egallagan kadrlar sanoqli darajada.

Ichki va ziyorat turizmi sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida hozirda 2 ta ilmiy-tadqiqot instituti (turizm va madaniy meros yo'nalishlari bo'yicha), 4 ta kollej,

6 ta texnikum hamda Turizm va madaniy meros vazirligi tizimida Samarqand shahrida joylashgan Ipak yo'li xalqaro turizm va madaniy meros universiteti faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda ziyoratgohlar, olimlar, ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni shakllantirish hamda ziyorat turizmi salohiyatini har tomonlama o'rganish, ma'lumotlarni tizimlashtirishga qaratilgan xalqaro tadbirlar o'tkazilmoqda

- Yurtimizning turistik potentsiali qanchalik yuqori bo'lmasin uni kerakli darajada reklama qila olmasak, turistlar sonini oshirishimiz mushkul hisoblanadi. To'g'ri, mavjud turistik obyektlarimiz, tariximiz, bizdagi yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida turistik yarmarkalarda, xorijiy televideniyalarda reklamalar berilyapti, lekin bu yetarli emas. Turistlar mamlakatimizda foydalanadigan oddiy buyumlardan tortib, to vaqtinchalik ma'lumotlarni yozib qo'yadigan qog'oz bo'laklarigacha milliy brend belgisi bo'lishi kerak.

- Ziyorat turizmi destinatsiyalarida raqamli hamda yuqori texnologik xizmatlarni amalga oshiradigan texnika va texnologiyalarning o'zimizda kam miqdorda ishlab chiqarilayotganligi tufayli ularning asosiy qismini xorijdan keltirishga majbur bo'lmoqdamiz. Shuningdek, raqamli hamda yuqori texnologik xizmatlardan foydalanishda odamlar o'rtasida ommaviy ravishda ko'nikma hosil bo'lmagan. Ushbu xizmatlarga hamma joyda (qishloqlarda, tuman markazlari va shaharlarda) bir xil talabning shakllanmaganligi ham uni joriy etish vaqtini ortga surmoqda.

- Tarjimashunoslik yaxshi rivojlanmaganligi sababli, islom olamida mashhur bobokalonlarimizni hali ko'pchilik yaxshi bilmaydi. Ular haqidagi ma'lumotlar bitilgan asarlar hali to'liqligicha o'rganilmagan. To'g'ri Imom Buxoriy, Imom Moturudiy lar haqida xalqimiz yoki chet elliklar biroz ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Lekin Maxdumi A'zam, Xo'ja Abdu Darun, Xo'ja Abdu Berun, Shayx Xudoydodi Valiy, Xo'ja Ahror Valiy hamda Xo'ja Xofiz Merosiyar islom olamida, tariqat bobida nechog'lik buyuk inson ekanligi to'g'risida ma'lumotlar ko'pchilikka mavhumligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirishchora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni

2. A.Madvaliyev tahriri ostida "O'zbek tilining izohli lug'ati" (O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi "Z" harfi) Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent (www.ziyouz.com kutubxonasi)

3. Daniel H. Olsen, Anna Trono "Religious Pilgrimage Routes and Trails: Sustainable Development and Management"pp.268, ISBN-1 397 8 178639 028 8

4. "Ziyarah – Oxford Islamic Studies Online". www.oxfordislamicstudies.com Retrieved 2018-08-06. "Popular Religion – Oxford Islamic Studies Online". www.oxfordislamicstudies.com. Retrieved 2018-08-06

5. Surayyo Usmanova. University of World Economy and Diplomacy. Ziyarah Tourism as a New Linkage for Tourism Development in Uzbekistan. // New Voices from Uzbekistan. NVFU ebook. Central Asia Program. The George Washington University. 2019. May 2019 In book: New Voices from Uzbekistan (pp.31-41)

6. N.A.Xoliqov "O'zbekistonda halol turizmini rivojlantirish istiqbollari" Servis-ilmiy,amaliy jurnal//2020-yil 2-son, 112-115 bb.

7. R. S. Amriddinova, T. Sh. Evadullaev// CONTENT AND ESSENCE OF THE CONCEPT OF PILGRIMAGE TOURISM // Web of scientist, International scientific research journal, ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 2, Feb., 2022

8. Kholikov Nodirjon Abduxalil ugli, Turdibekov Khasan Ibragimovich// Prospects of Development of Halal Tourism in Uzbekistan. Volume 3, February 2022. Page: 5-7

9. N.A.Xoliqov "Diniy ziyorat marshrutlarining turizmni barqaror rivojlantirishdagi ahamiyati" Servis-ilmiy,amaliy jurnal//2022-yil 3-son

10. N.A.Xoliqov "Diniy ziyorat destinatsiyalari bo'yicha marshrutlarning turizm taraqqiyotidagi ahamiyati" Xalqaro ilmiy forum materiallar to'plami//O'zMU//2022-yil 22-iyun

11. N.A.Xoliqov "Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining xususiyatlari" «O'zbekistonda turizm imkoniyatlari va madaniy meros» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2022-yil 23-sentabr

12. N.A.Xoliqov "Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari" «Turizm sohasida yangi konsepsiyalar, imkoniyatlar va korxonalarni innovatsion rivojlantirish vositalari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2022-yil 22-23 noyabr

13. <https://whc.unesco.org/en/statesparties/uz>

14. <https://zarnews.uz/uz/post/samarqandda-1607-ta-madaniy-meros-obekti-bor-ulardan-samarali-foydalanaypmizmi>

Axmatova M.E

Tayanch doktorant

Buxoro davlat universiteti

TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASINI ANIQLASH

Transport turizmning xalqaro va ichki rivojlanishiga hissa qo'shgan eng muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. "Transport nazariyasi" maqolasida transport nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi asosiy xususiyatlardan biri sifatida qabul qilinadi. Transport masofaning jismoniy cheklovlarini bartaraf etish, shuningdek, insonning vaqt va makon bo'ylab harakatlanish ehtiyojlarini qondirish, shu jumladan turizm maqsadida sayohat qilish iknoni bermoqda.

O'rta asrlarda Rim davlatida turizmning dastlabki namunalari ham transportning evolyutsiyasini, xususan, sayohatni amalga oshirish uchun uni mexanizatsiyalash va texnologiyadan foydalanishni talab qilgan.

Xalqaro turizmning qanday o'sib borayotgani va turistik sayohatlarning uzoq muddatli istiqbollarga transport texnologiyasi evolyutsiyasining to'rtta asosiy bosqichni ko'rishimiz mumkin:

- ot va shamol kuchidan foydalanish;
- bug 'dvigatelining joriy etilishi;
- yonish dvigatelining rivojlanishi;
- reaktiv dvigateldan foydalanish.

Yangi transport texnologiyasi sayyohlar va boshqa sayohatchilar uchun yo'nalishlarni kengaytirishga yordam beradigan imtiyozdir. Transport va u bilan bog'liq infratuzilma bo'lmasa, sayyohlik sayohati uchun inson harakatchanligi sodir bo'lmaydi. Transport turizmning kelib chiqishi va hududlar o'rtasidagi muhim bog'liqlikni ta'minlaydi va dam oluvchilar, ishbilarmon sayohatchilar, do'stlari va qarindoshlarini ziyorat qiladigan odamlar hamda ta'lim va sog'lomlashtirish turizmi bilan shug'ullanuvchilarning harakatlanishini osonlashtiradi. Transport va turizm o'rtasidagi uzviy bog'liqlik Lemb va Devidson tomonidan ko'rsatilgan bo'lib transport turizmning uchta asosiy komponentidan biridir. Qolgan ikkitasi turistik mahsulot va turistik bozor bo'lishi mumkinligi aytiladi. Transportsiz turizmning aksariyat turlari mavjud bo'lolmaydi. Ba'zi hollarda, transport tajribasi - bu turizm tajribasi sifatida ham qabul qilinadi.

Sayyohlik transportining ixtisoslashgan, ajratilgan shakllarining mavjudligi osongina e'tirof etilgan bo'lsa-da, mahalliy aholi va turistlar tomonidan turli darajada foydalaniladigan transport turlari ham ko'rishimiz mumkin.

Shahar avtobuslari, metro tizimlari va turistik hududlarga muntazam qatnovchi havo transportlari sayyohlar va mahalliy aholi tomonidan bir vaqtning o'zida foydalaniladi va bu ba'zi hollarda o'zaro raqobat muhitini keltirib chiqaradi.

Turistlarning transport turlaridan foydalanishi sodir bo'lganda, boshqa foydalanuvchilar bilan raqobat boruvchi hududlar uchun keng ko'lamli iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va siyosiy oqibatlarga olib keladi. Biroq, bu o'z-o'zidan transport va turizmning akademik tahliliga to'sqinlik qilmasligi kerak. Buni uchta usulda amalga oshirish mumkin:

- ta'lim sohasining rivojlanishini ko'rib chiqish (ya'ni, transport-turizm aloqasi, bu ikki fanning o'zaro bog'liqligiga qaratilgan);
- so'nggi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish (ya'ni transport va turizm sohasidagi akademik jurnallar);
- turizm bo'yicha mavjud darsliklarda transport qanday ko'rib chiqilganligini ko'rib chiqish.

Yangi texnologiyalar (temir yo'l va reaktiv dvigatel) va marketingning yangi shakllari va mahsulotlarni ishlab chiqish ommaviy iste'mol mahsuloti sifatida turizmning rivojlanishiga yordam berdi. Collier sayyohlik transporti haqida qiziqarli ma'lumot beradi va bu uchta ehtiyojni qondirishni ta'kidlaydi:

- turistni ishlab chiqaruvchidan qabul qiluvchi hududga olib borish;
- mezbbon manzillar orasidagi transport;
- asosiy manzillar ichida tashish.

Turizmda transportning mavjud tahliliga qo'shimcha ravishda,

Turizm transporti uchun umumiy qabul qilingan geografik jihatdan ifodalangan to'rtta rol ni aniqlangan:

- qabul qiluvchi manzil bilan bog'lashda;
- belgilangan manzilda harakatlanish va kirishni ta'minlashda;
- turistik diqqatga sazovor joylarda harakatlanish va kirishni ta'minlashda;
- dam olish marshruti bo'ylab sayohatni osonlashtirishda.

Transport turistlarni iste'mol qilishning asosiy nuqtalari bo'lib xizmat qiladigan turizm markazlari bilan bog'laydigan ko'prikdir. Sayyohlar xavfsiz, qulay, arzon va samarali intermodal transport tarmoqlarini talab qiladi, bu esa qimmatli dam olish davrlarini maksimal darajada o'tkazish imkonini beradi. Yuqoridagi munozaralar turistik transportda xizmat ko'rsatish masalalarining ahamiyati haqida keng ma'lumot bergan bo'lsa-da, iste'molchi sifatida turistga ta'sir qiladigan jarayonlardan ko'rinib turibdiki, xizmat sifati ularning xarid qilish qarorlari va sayohat qilish xatti-harakatlarida katta rol o'ynaydi.

Adabiyotlar

1. Cooley, C. (1894) 'The theory of transportation', *Publications of the American Economic Association*, 9(3): 13–148.
2. Tolley, R. and Turton, B. (eds) (1995) *Transport Systems, Policy and Planning: Geographical Approach*, Harlow: Longman.
3. Collier, A. (1994) *Principles of Tourism*, 3rd edn, Auckland, Longman Paul.
4. Hall, D.R. (1999) 'Conceptualising tourism transport: Inequality and externality issues', *Journal of Transport Geography*, 7(3): 181–8.
5. Axmatova M. E. TURIZM VA TRANSPORT XIZMATLARINING BIR-BIRI BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI // "Ekonomika i turizm" mejdunarodniy nauchnoinnovatsionnyy jurnal. – 2021. – T. 2. – №. 2.
6. Axmatova M. TURIZM VA TRANSPORT XIZMATLARINING BIR-BIRI BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI // SENTER NAUCHNIX PUBLIKASIY (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
7. Axmatova M. TURIZMDA TRANSPORT XIZMATLARINI OPTIMALLASHTIRISH CHORA TADBIRLARI // SENTER NAUCHNIX PUBLIKASIY (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.
8. Axmatova, Mohigul. "TURIZM VA TRANSPORT XIZMATLARINING BIRBIRI BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI." (buxdu.uz) 8.8 (2021).
9. Rozikov H. H. et al. THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF TRANSPORT SERVICES // *World Bulletin of Management and Law*. – 2021. – T. 3. – S. 4-8.

*Рахмонов Камол Жамолович –
Жаҳон тарихи кафедраси доценти,
тарих фанлари номзоди
Бухоро давлат университети*

ИСМОИЛ СОМОНИЙ МАҚБАРАСИ
(XX аср 20-йиллари матбуотидаги бир мақола хусусида)

Бухоронинг моддий ва маънавий бой тарихи ўтмишнинг барча босқичларида муаррихларни ўзига мафтун қилиб келган. Айниқса, ўрта асрларда Бухоро шаҳри ва унинг атрофида бунёд этилган тарихий бетакрор обидалар, уларнинг мусулмон дунёсидаги ўрни ва роли беқиёс эканлиги исбот талаб қилмайди.

X-XII асрларда Бухоро нафақат Шарқда, қолаверса, бутун дунёда илм ва маданиятнинг улуғ бир масканига айланган. Айни ушбу асрларда иқтисодий тараққиёт, ижтимоий-сиёсий барқарорлик, сомонийлар ва қорахонийлар даври ҳукмдорларининг олиму фузалоларга ҳомийлик қилиши, улар томонидан яратилган илмий кашфиётларга ҳадя ва совғалар берилиши маданият ривожига кенг йўл очган. Нафақат Бухорода, қолаверса, мусулмон дунёсининг турли мамлакатларида олимлик рутбасига эришган илмли ва илмпарвар кишилар Бухоро ҳукмдорлари ҳимматидан баҳраманд бўлишган. Бугунги кунда ўзининг қурилиш санъати ва бетакрор жамоли билан минг-минглаб сайёҳларни ўзига жалб қилаётган Бухоро ҳукмдорлари қароргоҳи Арк, Исмоил Сомоний мақбараси, Минори Калон кабилар юқорида қайд қилинган асрларнинг меъморий гултожиларидир. Шунинг учун моддий ва маънавий тарихимиз ҳақида юртдошларимиздан қайси бири бирор-бир калом айтишга жазм қилар экан, ўз она юрти тарихий осори-атиқалари ҳақидаги фикрларни маржон шодаларидек оқ қоғозга туширар экан, мўъжизакор обидалар қурилиш санъати, тарихи, мусулмон ва Шарқ меъморчилигидаги мавқеи ҳақида фахр ва эҳтирос билан ёзади.

Устида фикр юритадиганимиз Бухоро Халқ Совет Республикаси йилларида (1920-1924 йиллар) матбуот жонқуярларидан бири бўлган, “биринчи муҳаррир” номи билан тарихга муҳрланган Саид Аҳрорийнинг¹ “Исмоил Сомонийнинг сағанаси (X аср ёдгорлиги)” номли салмоқли мақоласи таҳлили ҳақидадир. Аввало, мақолани чоп этилиши билан боғлиқ масалага бир қадар аниқлик киритсак.

Саид Аҳрорийнинг номи зикр қилинган мақоласи “Озод Бухоро” газетасининг “Тарих ва осори-атика” рукни остида чоп этилган бўлиб, у газетанинг 1924 йил 27 сентябрдаги 146-сонидан ўрин олган². Ушбу мақолани ёзишга муаллифни айнан БХСР йилларида Бухоро тарихий обидаларини ўрганиш, асраб-авайлаш ва уларни келажак авлодга етказиш, бу борада таъмирлаш ишларини йўлга қўйишга алоҳида эътибор қаратилганлиги ундаган. “Бухоро инқилоби” даврида шаҳар ичидаги тарихий обидаларнинг анчаси шикаст кўрган. Оғир иқтисодий аҳвол ва сиёсий вазиятга қарамай БХСР Нозирлар Кенгаши Бухорони кўрки бўлган обидаларни таъмирлаш ва янгидан тиклаш учун маълум миқдорда маблағ ажратган. Афтидан, қаламкашлик тажрибасига эга бўлган, ўтмишни чуқур билган шахслардан бири Саид Аҳрорий ҳукуматни ва жамоатчиликни эътиборини Исмоил Сомоний мақбарасига қаратган. Мақолада: “Исмоилнинг (ҳукмронлик йиллари: 874-907) буйруғи билан жуда яхши зийнатланган муҳташам, шоҳона бино солингондур, тарихнинг гувоҳлигига кўра, бу жой чиройли боғлар, кўркем ҳовузлар, гулзор ва фонтанлар ҳамда

¹ Маҳмуд Саид Аҳрорий -1895 йилда Арабистонда туғилган. 1920 йилнинг кузида Бухорога келади ва Ёш бухороликлар партиясига аъзо бўлиб қиради. Шу вақтдан бошлаб, БХСРнинг ягона матбуот органи “Бухоро ахбори” газетасида муҳаррир вазифасида хизмат қилади. 1921 йил июнидан БХСРнинг Озарбайжондаги консули бўлиб ишлади. Бухорога қайтгач, 1923-1924 йиллар давомида “Озод Бухоро” газетасида муҳаррир ўринбосари ва давлат нашриёти раҳбари лавозимларида фаолият юритди. 1925 йилдан Саид Аҳрорий Самарқандда молия-иқтисод техникумида ўқитувчилик қилган. 1930 йил 12 ноябрда айнан шу ерда хибсага олинган. 1931 йил 23 майда Москва шаҳрида РСФСР жиноят мажмуасининг 58-моддаси 4-банди билан отувга ҳукм этилган. Ўлимидан сўнг оқланган.

² Қаранг. Саид Аҳрорий. Исмоил Сомонийнинг сағанаси (X аср ёдгорлиги) // “Озод Бухоро”. 146-сон. 1924 йил 27 сентябр.

доимо окиб турғон ариқлар билан куршалғон бўлиб, жуда жозибали кошона бўлгондур”¹, - деб ёзади муаллиф.

Саид Ахрорий Исмоил Сомонийнинг хўжалик ва ободончилик соҳасидаги хайрли ишларини бирма-бир санаб чиқади. Сунъий суғориш соҳасига алоҳида эътибор қаратилганлиги, шаҳар ободончилиги йўлида боғу роғлар барпо этилганлиги, мадрасалар, масчит ва хонақолар қурилганлиги ҳақида ғурур билан ёзади. “Бироқ, - дейди муаллиф, - уларнинг кўпчиликлари замонлар ўтиши билан тарих қаърига кетди. Бирдан-бир ўша давр ёдгорлиги Сомоний сағанаси ҳозиргача йўқолмаган бир атиқадур. У қиммати назар диққатларни жалб этгон, араб ва форс меъморчилигининг қўшилишидан пайдо бўлгон бир усул каби кўринсада, бутунлай бошқача бир кўриниш арз этадур”. Бу обида ҳақида ёзар экан, Саид Ахрорий бундай меъморчилик санъати усули бетакрор эканлиги, ўзига хослиги, бино оддий бўлиб кўринсада, ғиштлари жуда санъаткорона, тўғри, текис ва залворли терилганлиги билан ажралиб туришига эътиборни қаратади. Ўрта асрларда пишиқ ғишдан бинолар барпо этиш анъанаси шаклланганлиги, ғишларнинг девордан бир қадар чиқиб туриши, бу эса сояли чизиклар ҳосил қилиши баробарида тамоман ўзгача латиф бир шакл беришини синчковлик билан илғай олган.

Мақола матни билан танишар эканмиз, С.Ахрорий Сомоний мақбарасининг қурилиш усулини ундан икки аср кейин қурилган Минораи Калон шакли билан чоғиштиради. “Исмоилнинг сағанасига қарағанда минорнинг ғишлари деворидан ташқарига жуда оз чиққондур. Исмоилнинг сағанасида эса бу ғишлар жуда кўп илғари чиқиб, бундан ҳосил бўлгон сояли чизиклар бинога тамоман бошқача бир шакл берадур”, - деб ёзади муаллиф. Бу ўринда таъкидлаш жоизки, минора “инқилоб даври”да кўп шикаст кўрган. Шунинг учун Саид Ахрорий Сомонийлар мақбараси Минори Калонга нисбатан яхшироқ сақланганлигига алоҳида урғу беради.

Сомонийлар мақбараси тарихнинг нодир меъморий обидаси экан, унинг кўринишини сақлаш, кўзга яққол ташланиб туришига эришиш учун обиданинг латофатини янада жозибали қилиб кўрсатишга хизмат қиладиган тавсияларни ҳам мақола матнидан ўрин олганлиги унинг илмий қимматини оширган. С.Ахрорий шахсий тавсияларига кўра, кейинги асрларда мақбара олдида бунёд этилган уй (бино)лардан бири тарихий обиданинг тўлалигича кўзга ташланишига тўсиқ бўлиб қолганлиги, ўша иморатни эҳтиёткорлик билан олиш кераклиги қайд этилади. “Шунда, - деб ёзади Саид Ахрорий, - Исмоил сағанасининг кўрар кўздан яширингон тарафи очилиб, бутун нафосатини арз эта оладур”. Иккинчидан, асрлар давомида сағана қанчалик мустаҳкам қурилмаган бўлмасин, унинг шикаста бўлган, сал нураган жойларини таъмир этиш зарур деб ҳисобланади.

“Яна бир вазифа – бинони озода тутиб қуббасининг устидаги лайлак уяси тездан кўтарилган тақдирда осори-атиқамизга ҳурмат этилгон бўлур эди”, –деган фикрлар билан мақолага сўнгги нукта қўйилади.

Бундан бир аср муқаддам ёзилган С.Ахрорийнинг мақоласи Сомонийлар мақбарасининг ўша даврдаги ҳолати ва кўриниши ҳақида маълумот бериши билан қимматли манбадир. Мақола матнининг чуқур таҳлили шуни кўрсатадики, у 3 қисмдан иборат.

Мақоланинг биринчи қисмида муаллиф И.Сомоний яшаган тарихий давр, ҳукмдорнинг моддий ва маънавий маданият ривожига қўшган бекиёс хиссаси, бунёдкорлик фаолияти ҳақида фикр билдиради.

Иккинчи қисмида эса мақбаранинг Бухоро тарихий обидалари орасидаги бекиёс ўрни, қурилиш услуби ва санъати, бундан юз йиллар олдинги аҳволи ҳақида фикр ва мушоҳада юритилади.

Ниҳоят, мақола сўнгги қисмида Сомонийлар мақбарасини асраб-авайлаш, бутунлиги ва жозибадорлигини сақлаш ҳақида аниқ тавсиялар берилади.

¹ Ўша мақола.

БХСР йилларида Бухородаги Сомонийлар мақбараси сингари тарихий обидаларнинг таъмирлашдек қутлуғ ишлар тўлалигича бажарилмади. Истиқлол туфайли моддий ва маънавий бойликларимиз халқимизга қайтарилди. Тарихий обидаларга, қадриятларимизнинг муҳим бир бўғини сифатида қаралиб, Бухородаги Исмоил Сомоний мақбараси ва Минораи Калон Бутунжаҳон нодир обидалари рўйхатида киритилганлиги С.Ахрорий сингари аجدодларимизнинг орзу-умидлари амалиёт кўзини очганлиги билан бир асрлик тарихий доvon орқали бизни боғлаб турибди.

Ochilova Hayitgul
Iqtisod va Turizm fakulteti magistranti
Buxoro Davlat Universiteti

TURIZMDA GID-EKSKURSOVOD FAOLIYATIDA RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TEXNIKASINI QO'LLASH.

Annotatsiya: *Turizm o'zining ko'p qirrali tarkibi bilan jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta'sir o'tkazib kelmoqda. Turistik gidning turizm sohasidagi roli uning turi, ahamiyati, xususiyatlarini rivojlantirish juda muhim sanaladi. Shuningdek hozirda O'zbekistonda individual turizmga qadam qo'yish bu albatta turizm sohasining rivojiga ulkan hissa qo'shadi. Shuningdek surdo gidlarni ko'paytirish ham zamon talabi hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Gid, ekskursovod, individual turizm, surdo gid*

Bugungi kunda turizm dunyoning ko'plab mamlakatlarida milliy iqtisodiyotning eng daromadli tarmoqlaridan biriga aylandi. So'nggi yillarda mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish va turizm salohiyatini oshirish bo'yicha ko'plab amaliy ishlar qilindi. Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash choratadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'rta istiqbolda turizmni rivojlantirish bo'yicha Kontsepsiyasini hayotga tatbiq etish choralari to'g'risida»gi qarorini hamda Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-avgustdagi PF-5781-son "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Qarorga ko'ra, turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ'ib qilish, turizm tarmog'ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda respublikaga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko'paytirish maqsadida, shuningdek, 2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlariga muvofiq 25 ta yo'nalish tasdiqlandi.

Hozirgi zamon turizm sohasida gidlarning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, xorijiy fuqarolar bilan ishlaganda gid o'z davlatining vakili sifatida uni taqdim etadi. Gid marshrut davomida mehmonlarni kutib olishda o'zini tutishi, do'stona munosabati, hurmat bilan qarashi, ularda ushbu davlat va umuman jamiyat haqidagi tasavvurini shakllantiradi.

Gid nafaqat sayohat tashkil etuvchi turfirma vakili, balki, o'z davlati salohiyatini reklama qiluvchi, mehmonlarga yangi ma'lumotlarni beruvchi va ma'lum harakatlarni (xarid qilish, odamlar bilan muloqot qilish, raqs tushishni o'rgatish va sh.k.) amalga oshirishga yordam beruvchi shaxs hamdir. U koordinator sifatida barcha tadbirlar (ekskursiya – konsert – dam olish – ekskursiya) va xizmatlar (militsiya – apteka – aloqa – transport) zanjirini bog'laydi.

Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shuningdek O'zbekiston hali Individual turizmga endi sekin astalik bilan qadam qo'yimoqda. Individual turizmga kirib borish ham bizning katta maqsadlarimizdan biridir. Dunyoda pandemiya paytida o'rnatilgan cheklovlar birin-ketin kamayayotgani tufayli turizm industriyasi

tiklana boshlayapti. Joriy yil birinchi chorakda yurtimizga xorijdan 610 ming nafar yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 baravardan ziyod turistlar kelgan. Keyingi oylarda yanada ko'p turistlar kelishi kutilmoqda, ammo bizda har bitta turist uchun bitta gid to'g'ri kelmaydi, ya'ni kadr yetishmovchiligi mavjud. Bu uchun albatta biz platformadan foydalanishimiz mumkin (App shaklida).

Bunga qo'shimcha ravishda surdo gid mutaxassislar tayyorlanmasligi yurtimizga keladigan kar-soqovlar uchun qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Agar siz kuzatgan bo'lsayiz bunaqa muammo chet elda kuzatilmaydi, ularda bu sohadagi kadrlar yetarlicha

mavjud. Shuning uchun ham biz albatta yangi yangi texnologiyalarni o'rganib uni amalda tadbiq etishimiz muhim masala sanaladi.

Bu muammoni yechishda albatta bizga zamonaviy texnologiya yordam beradi. Bu quyida aytilgan muammolarni ilovaga joylash orqali

Hal qilish mumkin va tez samara beradigan usul hisoblanadi. Bitta ilova (App) orqali ya'ni "UNIVERSAL TURISTIK PLATFORMA" mobil ilovasi ham aynan shu maqsadda yaratilishi ko'zda tutilgan va ushbu dastur ko'plab ustunliklarga ega bo'ladi. Jumladan:

1. O'zbekistonda individual turizmga qadam qo'yish
2. O'zbekiston bo'yicha mavjud bo'lgan madaniy meros obyektlari, ularning kartasi, geolokatsiyasi va shu platformada audio- gid xizmatlarini joylashtirish
3. Shuningdek bu platformada barcha turistik xizmatlar:
Mehmonxona joylashuvi, ovqatlanish shahobchalari va malumotlar yagona portal bazasi
4. Surdo gidlarni (imkoniyatdan kelib chiqib audial, vizual)
Gid xizmatlarini yo'lga qo'yib rivojlantirish
5. Turli tilda ma'lumot beradigan platforma (Ingliz, Rus, Ispan, Italian, Fransuz, O'zbek va Nemis)

Asosiy maqsadlar:

O'zbekiston turizm sohasida yetakchi xissaga ega bo'lish;

Individual turizmga qadam qo'yish;

Platforma yaratish orqali umumiy ma'lumotga ega bo'lish;

Surdo-tarjimon faoliyatini yo'lga qo'yish;

Turistlarga qoniqarli ravishda xizmat ko'rsatish;

Platforma taqdim qiladigan asosiy ustunlik hech qanday qiyinchiliksiz platforma orqali O'zbekistonni aylanib chiqish va audial va visual barcha xizmatlarni platformada joylashtirish.

Gidlar- "UNIVERSAL TURISTIK PLATFORMA" mobil ilovasining asosiy raqobatchilari hisoblanadi, chunki ular barcha xizmat turlarini umumiy lashtirgan holda, eng qulay, va oson xizmatlarni tavsiya qiladi. Shu yo'l bilan biz individual turizmga qadam qo'yishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" qarori-06.02.2018 y., № PQ-3509.
3. Amriddinova R.S. «Gid-ekskursiya ishini tashkil etish». (Ma'ruza matni) Samarkand 2018. 88 b..

Zakirova Manzura Ilhomovna

Master student

Bukhara state university

MAIN CAUSES OF STAFF TURNOVER IN TOURISM

Annotation. Staff turnover is one of the problems that needs to be studied in the tourism sector, as in all areas. This article mentions several reasons for the problem of employee turnover. Since in tourism customers come into direct contact with organizations in this field, and their

permanent employees also have a great influence on the number of regular customers, for this reason this is a topic that should be studied in depth.

Keywords. *Staff turnover, tourism, profit, employee, employment, management system, image, tourism enterprise, economic problem, seasonality, travel, incentive, human factor, dismissal, client, back office, front office*

Despite being a new concept in the 19th century, tourism (from the French word *tourisme*, tour - walk, travel) quickly became popular. During the Second World War, it was considered to have deep historical roots. There is no doubt that there will be a rotation in staff in this field due to seasonality.

Employee dissatisfaction is the action of the workforce due to the employee's dissatisfaction with the workplace or the organization's dissatisfaction with a particular employee.

In the process of management in the field of tourism, it is necessary to rely on a number of features of this field. Accordingly, a number of common features can be distinguished.

Features of tourism management:

- 1) the priority of the wishes of final consumers in planning tourist activities;
- 2) non-primary tourist service;
- 3) the great importance of marketing in the tourism industry;
- 4) uniqueness of tourist service. [1]

One of the most important problems of tourism management is personnel turnover. There are several reasons for this phenomenon:

- 1) employees - if there are students who are not intended for permanent employment;
- 2) tourism belongs to the field of public services, any business related to communication with people, as a rule, has a very large unemployment rate;
- 3) dissatisfaction with the work order;
- 4) disagreements with superiors, etc.

It is worth saying that line employees often change and the main managers remain unchanged for the normal functioning of the organization. The analysis of the work of tourist-recreation complex enterprises shows that 45% of employees leave a new job at the hotel after 3 months of employment, and 15% after the first month. Therefore, the bottom line is that all new hoteliers are underestimating their potential because they believe they can make a dizzying career in the hospitality industry in just six months and get a corresponding pay rise. . Let us look at the reasons; starting with the fact that working in the hotel business is a difficult and long process that involves a creative, unusual approach, great responsibility and extraordinary communication skills. A similar situation is forming in all tourism industry enterprises. Discomfort of hotel staff occurs for various reasons. The percentage of layoffs depends not only on the staff level of the hotel, but also on the management style. If a hotel company focused on the external labor market prefers not to invest in employee development and compensates for the low motivation of employees by constantly changing employees, then employee turnover can be 80 percent or more. International hotel management traditionally cites the following as reasons that determine frequent employee turnover in the hospitality industry:

- low wages of hotel employees;
- dissatisfaction with regime and working conditions;
- lack of social guarantees for employees;
- lack of adaptation system for newly hired hotel workers;
- lack of professional growth prospects;
- emotional dissatisfaction of a stable group of employees (usually in a number of positions) with the attitude of the hotel management towards the employees in general;
- lack of positive emotional relationships and mutual support among employees within the initial labor team of the hotel service (department);
- unfair evaluation and non-recognition of the results of the activity by the hotel management;

- indifference or official attitude of the hotel management to the reported personal problems of the employee;
- not respecting the personality of the dismissed employee;
- impossibility of self-realization in the professional position held;
- the content of labor activity within the framework of existing functional obligations does not cause reasonable interest.

Staff turnover is determined according to the following formula: the average number of employees divides the number of people dismissed for a certain time at the same time.

In conclusion, it can be said that we have a high level of staff rotation due to the fact that the system of adaptation of newly hired workers is not well established and that the employees are not loyal to the hotel enterprise. The management of hotels in Western countries makes the following recommendations in this regard: development of effective programs for socialization and career advancement of hotel employees, improvement of the motivation system in each tourist enterprise plays an important role in partially eliminating dissatisfaction. It would be appropriate to use these methods in our local hotels.

List of used literature

1. Electronic resource. URL: <http://tourlib.net>
2. <https://www.researchgate.net/profile/Nutfillo-Ibragimov>
3. Concept of tourism development in the Republic of Uzbekistan in 2019-2025 dated January 5, 2019 <https://lex.uz/docs/-4143188>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sohasida-kadrlar-tayyorlash-hamda-ularga-qo-yiladigan-talablar-va-imkoniyatlar>
5. Ashirov D.A. Upravlenie personelom / D.A. Ashirov. - M.: TK Welby, Prospect, 2017. - 432 c.
3. Anastasova A.S., Nikushina A.N., Pavlova A.S., Sarafanov A.D. Tekuchest kadrov kak problema upravleniya personela // Ekonomika i sotsium. - 2016. - No. 10 (29). - S. 36-39.
6. Bazarov T.Yu. Upravlenie personelom / T.Yu. Bazarov. - M.: Academy, 2017. - 224 c.
7. Vostrikova L.A., Bulantseva E.A. Analiz dvigeniya i stabilitiya personela // Aktualnye problemy ucheta, ekonomicheskogo analiza i finansovo-hozyaystvennogo controllia deyatelnosti organizatsii (materialy II International school scientific-practical conference). - 2015. - S. 40-42.
8. Djavadova Yu.S., Reznikova O.S. Tekuchest personela kak sovremennaya problema upravleniya personelom // Sovremennye tekhnologii upravleniya personelom (sbornik nauchnyx trudov). - 2016. - S. 180-183.

Djuraeva Nafisa Bakhodirovna, teacher
Kamolova Nafisabonu Azimjonovna, student
Department of Hotel industry organization and management
Bukhara State University

DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN UZBEKISTAN

Annotation: The article describes a huge amount of natural resources, exotic places, cultural heritage, and consider it the most suitable for travel and intercultural dialogue. According to the author, ecotourism is not only a source of income and plays an important role in conditions of high urbanization in cities, thereby ensuring the preservation of the natural and cultural habitats of people.

Key words: ecotourism, sphere, ecological culture, phenomenon, natural resources, convention, goal achievement, tourism infrastructure.

Tourism is one of the fastest growing types of travel in the world. Uzbekistan pays great attention to the development of tourism as one of the leading countries in the world in this sphere, which has a rich cultural and historical potential.

Ecotourism is popular among those tourists who are concerned about the state of the environment and who want to learn more about the local ecology and culture. Although this does not require large-scale efforts and large capital investments, however, careful control is necessary

in ecological tourism so as not to disturb the fragile ecological balance. In Uzbekistan, the state policy in the field of biodiversity conservation, rational use and reproduction of flora and fauna contribute. Our country actively participates in international environmental cooperation, has joined the main international conservation conventions with protected natural areas. The Republic has great potential for the development of ecotourism. The natural and climatic features of the country give great scope for this: we have unique nature, diverse picturesque landscapes, and a rich cultural heritage.

Uzbekistan is one of the most dynamically developing countries in the world. In recent years, ecotourism has become a segment of tourism and a new direction in the tourism industry. The development of ecotourism in Uzbekistan is also facilitated by the established tourism infrastructure as a whole, which employs more than 200 thousand people, and operates 110 international tourist routes. Over 500 hotels and campsites provide services to tourists in accordance with international standards. In addition, during the years of independence, many ancient monuments of civilization and culture have been restored. The Republic, where there are more than 7 thousand monuments of different eras and civilizations, is one of the most interesting areas of world tourism with such major centers of medieval science, art and culture as Samarkand, Bukhara, Shakhrisabz and Khiva, which are included in the List of World Cultural Heritage Sites UNESCO.

From the first years of independence, Uzbekistan has been actively expanding cooperation with international organizations and regularly takes initiatives to deepen cooperation in this promising area. An important milestone in the history of domestic tourism was the accession of the republic in 1993 to the World Tourism Organization (UNWTO). In the framework of cooperation with him in 1994, 19 countries of the world and chose the Samarkand Declaration on Tourism along the Silk Road. In 1999, the Khiva Declaration on Tourism and the Preservation of Cultural Heritage was adopted with the support of the UNWTO, UNESCO and the Council of Europe. In 2002, the Bukhara Declaration on Tourism along the Silk Road, which emphasizes the benefits of sustainable tourism and defines concrete steps to develop cultural and ecological tourism in this direction.

For ecotourists, the mountains of Southern Uzbekistan, the landscapes of Kizylkum, the mountainous regions of the Tien Shan and Pamir-Alay, large reservoirs with a rich avifauna are of particular interest.

A new stage in the development of this sphere was the adoption by the government of Uzbekistan in 2013 of programs for the development of tourism in the Khorezm, Surkhandarya, Tashkent and Kashkadarya regions, which provide for the development of more than \$ 260 million. Some of them are aimed at developing ecological tourism in these regions. In order to create the necessary organizational, legal, infrastructural conditions for the further development of ecological tourism in Uzbekistan, a Program was developed to create a developed ecotourism infrastructure in the regions of Uzbekistan for 2016-2018.

International tourism continues to show strong and relentless growth in excess of the global economy and shows no significant signs of abating with worldwide arrivals expected to grow by 3.3% from 2010 to 2030, and reach 1.8 billion by 2030, according to the UNWTO Long-Term Forecast Report Tourism on the way to 2030 Between 2010 and 2030, tourist arrivals in developing countries (+4.4% per year) are expected to grow at a double rate compared to developed economies (+2.2% per year). With the exception of Afghanistan, the Chinese Autonomous Regions of Inner Mongolia and Xinjiang Uygur Autonomous Region, and Turkmenistan, total international tourist arrivals in the CAREC region in 2018 are estimated by the World Tourism and Travel Council (WTTC) at just under 20 million, with growth forecast ten years to 2028 by almost 5%. Despite this, viewed in a global context, the combined share of CAREC countries (excluding the People's Republic of China) is less than 2% of global tourism.

Ecotourism is one of the emerging areas of tourism today. First of all, ecotourism is traveling and visiting well-preserved natural areas represented all over the world. In order to develop and expand the tourism sector in the republic, the Concept for the Development of the

Tourism Sector in the Republic of Uzbekistan in 2019-2025 (Appendix N 1) to the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan was developed and approved. dated 05.01.2019 NUP-5611. The purpose of which is to transform tourism into a strategic branch of the national economy.

References

1. Egamberdieva L.Sh., Alimova G.A., Kim T.V. Fundamentals of ecotourism. Tutorial, 2021.
2. Khrabovchenko V.V. Ecological tourism. Moscow, 2003.
3. Hayitboev R., Matekubov U. Ecological tourism. Sam ISI, 2010.
4. Dr. Martha Honey. Ecotourism and Sustainable Development, Second Edition: Who Owns Paradise. 2nd Edition. Island Press; 2 edition (August 4, 2008). USA, 2008.
5. Akhrorova, N. U. (2022). Swot Analysis in Youth Tourism Development Strategies for Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 5(12), 26-33.
6. Axrorova, N. (2021). The Conceptual Clarifications Of Youth Travel And Tourism In The Case Of Uzbekistan. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
7. Рузиева М. Т. МЕТОДОЛОГИЯ ГАСТРОНОМИЧЕСКОГО КАРТОГРАФИРОВАНИЯ СТРАН //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 28. – №. 1. – С. 121-125.
8. Omonova, N. R. K., & Djurayeva, N. B. (2021). AN OVERVIEW OF HEALTH TOURISM WITHIN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S TOURISM STRATEGY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 754-759.

Mammetova Barno Iriskulovna

Jobborova Madina Abdugofurovna

Mustaqil tadqiqodchilar, O'zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Madaniy meros obyektlari muammolarini o'rganish va turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqod instituti

ZIYORAT TURIZMI GIDI (GID-TARJIMON), EKSKURSIYA YETAKCHILARIGA QO'YILADIGAN ASOSIY KASBIY TALABLAR: BILIM VA KO'NIKMALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada respublikamizda ziyorat turizmi sohasida faoliyat yuritayotgan gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchilari kasbiga qo'yilgan talablar, xususan, ularning ekskursiya tashkil etish va o'tkazish jarayonida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar keng yoritilgan. Ushbu maqola oliy ta'lim muassasalari va professional ta'lim tizimining "Gid, ekskursiya yetakchisi va gid-tarjimonlik faoliyati" yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, ziyorat turizmi yo'nalishida xizmat ko'rsatuvchi gid, ekskursiya yetakchilari va soha mutaxassislari, sayyohlar, ziyoratchilar uchun zaruriy axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ziyorat turizm, halol turizm, kasbiy talablar, gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchisi.

O'zbekiston Respublikasi betakror tabiati, tarixiy obidalari, o'ziga xos madaniyati va boy qadriyatlari bilan bir qatorda tabarruk qadamjo va ziyoratgohlari bilan dunyoga ma'lum va mashhurdir. Islom olamining buyuk muhaddislari – Imom Buxoriy va Imom Termiziy, ilohiyotchi-mutakallimlar Imom Abu Mansur Moturidiy va Abu Hafs Nasafiy, fiqhshunos olimlar Burhoniddin Marg'inoniy va Shoshiy, tasavvuf tariqati namoyandalari Abduxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi ko'plab ulamo va avliyolarning xoki poklari yotgan O'zbekiston ziyoratgohlari mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, so'nggi yillarda mashhur tasavvuf ta'limoti namoyandalari dafn etilgan muqaddas maskanlarni ziyorat qilishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga oshmoqda. Jumladan, Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston va Turkiya kabi mamlakatlarda naqshbandiya tariqatiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Shuningdek, yurtimizda IX-XII va XIV-XV asrlarda yuksak darajada rivojlangan islomiy ilmlar, shu jumladan, kalom, hadis, falsafa va mantiq kabilarga butun islom olamida bugungi kunda ham katta e'tibor beriladi.

O'zbekistonning ko'p asrlik tarixi hamda islom, xristian va budda dinlari bilan bog'liq madaniy meros obyektlari ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Vatanimiz hududida dunyoga mashhur qadamjo va ziyoratgohlar borki, ularni ziyorat qilish islom dinida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, ziyorat turizmini yanada rivojlantirish orqali yurtimizning turizm salohiyatini yuksaltirish imkonini beradi. Ziyorat turizmi yo'nalishini targ'ib qilish, dunyoga tanitish va yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatishda gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchilarning roli juda beqiyosdir.

Halol turizm bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi barcha turizm sohasi subyektlari maxsus sertifikat va standart yorliqlariga ega bo'lishi shart. Sayyohlarning yuqori darajada hordiq chiqarishi, ovqatlanishi, turli xizmatlardan foydalanishi va a'lo darajadagi taasurotlar bilan sayyohlik maskanlaridan qaytishi tashrif buyurgan mamlakatdagi sayohatni tashkil etuvchi hamda sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining va gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchilarning faoliyatlariga bog'liq. Xususan, quyida musulmon sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchilariga qo'yiladigan asosiy kasbiy talablar keltirildi:

- gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchilari amaldagi diplom va sertifikatga ega bo'lishi;
- kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi, til bilishi, o'z sohasida tur yoki ekskursiya o'tkazish uchun barcha yuridik talablarga javob berishi;
- vakolatli organ tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalariga amal qilishi;
- musulmon mehmondo'stligiga oid munosib kiyim kiyishi;
- turistik marshrut yoki ekskursiya jarayonida sayohatchilarning xavfsizligini ta'minlashi;
- sayyohlar bilan ishlashda islom qadriyatlariga muvofiq xushmuomalalik bilan harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

Gidning kasbiy mahoratining asosi uning bilimi va ko'nikmasidir. Bu borada u qanday xususiyatlarga ega bo'lishi zarur degan savol tug'iladi. Quyida gid, ekskursiya yetakchisining kasbiy bilim va ko'nikmalari, shuningdek, kasbiy xususiyatlari keltirilgan:

- muloqot qilish ko'nikmasi;
- xorijiy tillarni bilish;
- kasbiy ta'lim, tarix, din, madaniyat, geografiya, ma'naviyat, arxitektura sohalariga oid chuqur bilimlarga ega bo'lish;
- ekskursiya o'tkazish uslublarini qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish
- aqliy va ilmiy salohiyat;
- ijodiy izlanish;
- ma'naviy komillik;
- vatanparvarlik;
- mehmondo'stlik;
- diniy bag'rikenglik;
- kiyinish madaniyatiga rioya qilish;
- nutq madaniyatiga ega bo'lish.

Ekskursiya faoliyati mobaynida gid, ekskursiya yetakchisi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Bag'rikenglik. Shuni yodda tutish kerakki, ekskursiya jarayonida gid va ekskursiya ishtirokchilari o'rtasida madaniy o'ziga xoslik va madaniy an'analar, dunyoqarashlar, diniy qarashlarning farqlari asosida qarama-qarshiliklar yoki ziddiyatli vaziyatlar (madaniyatlararo ziddiyatlar) paydo bo'lishi mumkin. Ba'zan bu kelishmovchiliklar haddan oshib, tajovuzkor tusga kirishi mumkin. Shuning uchun ekskursiya (ziyosat) jarayonida guruh ishtirokchilari o'rtasida o'zaro bag'rikenglik va turli din, madaniyat, millat vakillariga hurmat, ochiqlik munosabatlarini shakllantirish, ularning daxlsizliklarini ta'minlashga erishish zarur.

Tashqi ko'rinish. Ekskursiya olib borish jarayonida gid, ekskursiya yetakchisining tashqi ko'rinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Gid, ekskursiya yetakchisi ish joyiga o'z vaqtida va ekskursiya mavzusiga mos keladigan libosda kelishi lozim. Shu bilan birga kiyimlar toza va

chiroyli bo‘lishi, bo‘yanish ko‘zga tashlanmasligi, qo‘l va tirnoqlar parvarish qilingan, sochlar yaxshi turmaklangan, aksessuar-bezaklar cheklangan hamda diqqatni jalb qilmaygan bo‘lishi kerak.

Kiyim tanlashda har qanday yorqin rang, g‘ayrioddiy uslubdan voz kechish tavsiya etiladi. Tana va og‘izdagi yomon/noxush hid ekskursiya ishtirokchilariga hurmatsizlikni anglatadi. Shuni esda tutish kerakki, parfyumeriya mahsulotlarining o‘tkir hidi sayyohlarda allergik reaksiyalar yoki bosh og‘rig‘i va ko‘ngil aynishini yoki gid-ekskursiya yetakchisiga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqarishi mumkin.

Tartibli bo‘lish. Gid, ekskursiya yetakchisining faoliyatidagi muhim omil – xizmat vazifalarini o‘z vaqtida va yuqori mas‘uliyat bilan bajarishidir. Bu esa kasbiy faoliyatda belgilangan tartib-qoidalariga va ichki intizomga qat‘iy rioya qilishni anglatadi. Agar gid-ekskursiya yetakchisining doimo kechikish odati bo‘lsa, u o‘zini intizomsiz, mas‘uliyatsiz va ishonchsiz inson sifatida namoyon qiladi.

Nutq madaniyati. Har qanday gid, ekskursiya yetakchisi uchun eng muhim kasbiy talab – bu yuqori darajadagi nutq madaniyatiga ega bo‘lishdir. Ekskursiya mavzusiga oid barcha atamalarining mazmun-mohiyatlarini to‘liq o‘zlashtirmasdan turib, mazkur jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin emas. Ekskursiya jarayonida til me‘yorlariga rioya qilish, so‘zlardan, grammatik shakllardan va talaffuzdan to‘g‘ri foydalanish lozim.

Ekskursiyani tayyorlash va o‘tkazish jarayonida gid, ekskursiya yetakchisi o‘z fikrini aniq ifodalaydigan so‘zlarni tanlay bilishi, shuningdek, ularning ma‘nosini yaxshi tushunishi, so‘zlarning qo‘shimcha ma‘no hamda talqinlarini hisobga olishi, u yoki bu so‘z qayerda va qachon to‘g‘ri ishlatilishi mumkinligini aniq bilishi kerak. Agar gid, ekskursiya yetakchisi ushbu tavsiyaga amal qilmasa, uning nutqida noaniqliklar paydo bo‘lib, sayyoh va ziyoratchilarning tushunishlarini qiyinlashtiradi, ba’zida esa ekskursiya mazmunini idrok etishdan chalg‘itadi.

Xulosa qilib aytganda, Ziyorat turizmi doirasida musulmon sayyohlarga islom tarixi va buyuk allomalar hayotlari bilan bog‘liq bo‘lgan muqaddas joylarga maxsus ekskursiya xizmatlarini ko‘rsatish dasturlarini taklif etish, islom me‘yorlarini hisobga olgan holda kechki ko‘ngilochar dasturlarni ishlab chiqish hamda ushbu jarayonlarga malakali gid-ekskursiya yetakchilarini jalb qilish orqali xorijiy sayyohlar oqimini oshirish mumkin. Natijada ziyorat turizmi mamlakatimizning barqaror iqtisodiy sohalaridan biriga aylanishi bilan birga butun dunyoga mashhur islom dini allomalarini yetishtirgan O‘zbekiston ziyorat turizmining yetakchi davlatlari darajasiga erishadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz>.
2. 2019–2025-yillar uchun Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi. 05.01.2019.
3. O‘z DSt 3286:2018 Halol oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha umumiy qo‘llanma. O‘z DSt 3334:2019 Turizm xizmatlari. Musulmon mehmondo‘stligi. Talablar.
4. Eshonqulov Z. Ziyorat odoblari (Mas‘ul muharrir: Muhammad Bobur Yo‘ldosh). – Toshkent: Movarounnahr, 2015. – 52 b.
5. Духовное управление мусульман. Святые Узбекистана. – Махачкала, 2007.
6. Христов Т. Т. Религиозный туризм. “Юрайт”. – Москва, 2020.
7. Яминова С. А. Адаб аль-ислам. Мусульманский этикет. – Уфа: РИЦ Баш ГПУ, 2011. – 108 с.
8. Житенев С. Ю. Паломничество как религиозное наследие // Журнал Института наследия, 2015/1 [Электронный ресурс]. –
9. https://t.me/guide_portfolio

DINIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Diniy turizm, muqaddas (sakral) turizm, ma'naviy turizm ikki asosiy sub-turga ega turizm turi bo'lib, bular: diniy yodgorlik va artefaktlarni tomosha qilish; ikkinchisi, diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish va ziyoratning bir tarmog'i, ya'ni, diniy yoki ma'naviy maqsadlarda sayohat qilish deb ta'rif beriladi. Diniy turizm, shuningdek, e'tiqod turizmi sifatida ham tanilgan, bu e'tiqodli odamlar hayotida din yoki ruhiyatga bog'liq mazmun izlashda asnosida alohida yoki guruh bo'lib sayohat qiladigan turizm turidir. Bu missionerlik, ziyorat yoki dam olish maqsadlarida bo'lishi mumkin.

Diniy turizmga asoslangan iqtisodiyotga ega davlatlarda ziyoratgohlarga diniy sayohatlar yiliga kamida 8 milliard dollar[5] daromad olib keladi, minglab odamlarni ish bilan ta'minlaydi.

Turli din vakillari uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ziyoratchilar orasida mashhur bo'lgan ko'plab yo'nalishlar mavjud. Har qanday turizm turi kabi ziyorat turizmi ham katta iqtisodiy samaraga ega. Ba'zi ziyorat destinatsiyalari va hududlar daromad olish uchun butunlay turizmning ushbu turiga tayanadilar. Bu, o'z navbatida, atrofdagi hududlar uchun ham manfaatli bo'ladi. Mehmonxonalar va restoranlarda ko'proq joylar band bo'ladi, mahalliy do'konlar mijozlar bilan to'ladi, gid-tarjimonlar, usta hunarmandlar, fotograf va shu kabi boshqa kasb egalari ham ish bilan band bo'ladilar.

Diniy turizm bozorining hajmi 2020 yilda 1,071 million dollarga baholandi va 2028 yilga kelib 1,704,2 million dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa 2021 yildan 2028 yilgacha yillik o'sish surati 6 foizga oshadi degani [6]. Future Market Insights tahlil kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda diniy turizmdan global daromad 15,1 milliard dollarni tashkil etishi prognoz qilingan va bu ko'rsatkich 2033 yilga kelib 41 milliard dollarga yetishi mumkinligi ta'kidlangan.

Ko'plab rivojlanayotgan bozorlar o'zlarining sayyohlik takliflarini diversifikatsiya qilishlari bilan, e'tiqodga asoslangan turizm butun dunyo bo'ylab bir qator bozorlar uchun asosiy segmentga aylanadi.

Butun Jahon Turizm Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili taxminan 330 million kishi diniy sabablarga ko'ra sayohat qiladi, bu ma'naviy yoki muqaddas qadriyatlarga ega mamlakatlar uchun muhim bozorni tashkil qiladi. Bu sayohatlar ziyoratlarni, shuningdek, yil davomida muhim tarixiy va diniy joylarga sayohatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, 2017 yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, sayohatchilarning qariyb 25 foizi turizmning ushbu turiga qiziqish bildirishgan.

Ish o'rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashdan tashqari, diniy turizm butun dunyo bo'ylab logistika infratuzilmasini yaxshilash, obidalarni himoya qilish, ko'proq rekreatsion takliflarga investitsiya kiritishga yordam beradi.

Diniy sayyohlarning katta oqimini boshdan kechirayotgan hududlarda yangi strategiyalar va infratuzilma loyihalari haddan tashqari turizmning oldini olishga yordam beradi, shu bilan birga o'sish imkoniyatini beradi.

2022-yilda O'zbekistonda xorijiy sayyohlar soni 5,2 million nafar (2021-yilga nisbatan 2,8 barobar o'sish), ichki turistlar 11,4 million nafar (2021-yilga nisbatan 1,9 barobar o'sish)ni, turistik xizmat eksportidan tushgan daromad esa 1,6 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Respublika bo'yicha 1257 ta ziyoratgoh bo'lib, jumladan, 1183 ta islom diniga oid ziyoratgohlar, 57 ta xristian diniga, 8 ta yahudiy, 9 ta buddaviylik diniga oid ziyoratgohlar mavjud. Ziyorat turizmni rivojlantirish maqsadida 2022-yilda respublikada 14 ta ziyorat turizmga oid yarmarkalar o'tkazildi. Viloyatlar kesimida ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish uchun dasturlar tayyorlanib, ziyoratgohlar bo'ylab sayohatni amalga oshirishda info- va infratuzilma yaxshilash ishlari olib borilmoqda.

Bir qator dinlar uchun muhim ziyorat maskanlariga ega bo'lgan Hindistonda diniy turizm oqimi rekord darajaga yetdi, ba'zi sayyohlik kompaniyalari Covid-19 pandemiyasidan oldingi darajadan 15 foizga o'sishni qayd etdi. Ziyoratchilar orasida mahalliy va xorijiy sayyohlar, shuningdek, mamlakatning muhim diaspora aholisidan bo'lganlar ham bor.

Saudiya Arabistoniga xalqaro tashriflar hozirda Haj va Umra ziyoratlarida qatnashayotgan shaxslar tomonidan amalga oshirilmoqda. 2019-yilda Qirollik 17,3 million xalqaro sayyohni qabul qildi. Ulardan taxminan 2,49 million musulmon Makkada yillik Haj ziyoratiga to'plangan va bu tarixda insonlarning eng gavjum yig'ilishi hisoblanadi [7]. Pandemiya davrida tashriflar soni kamaygan bo'lsa-da, 2022-yildan qayta tiklanib, 1 millionga yaqin odam ziyoratda qatnashdi.

Mehmonlar taassurotlarini yaxshilash va turistik oqimni barqarorlashtirish uchun Qirol Abdulaziz xalqaro aeroportini qayta qurish kabi 35 milliard dollarlik qurilish loyihalari, maxsus Haj terminalini tashkil etish loyihalari kiradi. 16 milliard dollarlik loyiha hajmiga ega Makka metrosi esa Makkadagi diniy ahamiyatga ega joylarni bog'lash uchun to'rtta yangi metro liniyasini ochadi.

Qirollik yil davomida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan Umra ziyoratini targ'ib qilish ustida ishlamoqda, bu esa odamlarning haddan tashqari ko'pligi va boshqa muhim muammolarni yumshatish uchun harakat qilmoqda. Saudiya Arabistoni Turizm va tadqiqot markazining hisob-kitoblariga ko'ra, 2005-yildan buyon xorijliklarning Umra tashrifi uch barobar ko'paygan. 2022-yil o'rtalaridan boshlab mamlakatda yangi joriy etilgan elektron viza dasturi orqali turistik vizani olgan mehmonlarga Umra ziyoratini amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Kelayotgan barcha daromadlar ziyorat turizm info- va infra tuzilmasini rivojlantirish evaziga ham bo'layotganligini inobatga olib texnologiya diniy turizm rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi, ham unga ta'sir qiladi, deb aytish mumkin. Global sayohatlarni tarqatish texnologiyasi platformasi TBO.com tomonidan qo'llab-quvvatlanib, Saudiya Arabistoni diniy sayohatlarga asoslangan Zamzam.com onlayn sayohat agentligi platformasini yaratdi. Kompaniya Umra sayohati xizmatlariga ixtisoslashgan, jumladan, vizalar, reyslar va diqqatga sazovor joylarga turistik paketlar kabi takliflari mavjud.

2022-yil sentabr oyida Saudiya Arabistonining Haj va Umra vazirligi Vision 2030 dasturi doirasida "Pilgrim Experience Program" ga muvofiq Makka va Madinaga diniy maqsadlarda ziyoratlarni rejalashtirishni osonlashtirish uchun rasmiy raqamli platforma - Nusukni ishga tushirdi. Shahardagi raqamli infratuzilmani rivojlantirish va ziyoratchilar bilan hamjihatlikni ta'minlash maqsadida 2023-yil boshida Saudiya Arabistoni milliy telekom provayderi Makkadagi Masjidul Haramda 92 ta radioeshittirish minoralarini, shuningdek, 1,5 m² maydonda yettita aloqa minoralarini o'rnatdi.

Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi boshqa davlatlar uchta Ibrohim dini uchun tarixiy va ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan joylarni tiklash va saqlash bilan shug'ullanadi, bu esa xalqaro sayyohlar kelishini ko'paytirishga yordam beradi. Misrning Turizm va qadimiy ashyolar vazirligi o'tgan yozda Sinay yarim orolidagi VI asrga oid mustahkam Dayr-el-Vadi monastiri joylashgan Al-Vadi shahrini ta'mirlashini e'lon qildi. Ushbu ishlanmalar Sinay yarim orolida ma'naviy va rekreatsion turizmni jalb qilish uchun hududlarni rivojlantirishga qaratilgan "Buyuk Transfiguratsiya loyihasi" deb nomlanuvchi kengroq turizm tashabbusining bir qismidir. Birinchi marta 2020-yilda e'lon qilingan rejalar turistik takliflarni yaxshilash uchun Avliyo Yekaterina monastiri atrofidagi hududni yanada rivojlantirish, shuningdek, Qohira va Afinaga parvozlar bilan xalqaro aeroportning ishlashini o'z ichiga oladi.

Ayni paytda, Iordaniya Turizm va qadimiy ashyolar vazirligi Nebo tog'idan Iordan vodiysigacha bo'lgan sayyohlik yo'lining birinchi bosqichi ustida ish boshladi, bu birinchi marta 2021-yilda e'lon qilingan. So'qmoq xristianlar uchun ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan joylar, shuningdek, sarguzasht, madaniy va tibbiy takliflarni qamrab oladi.

Muayyan bozorlarda, ayniqsa, ziyorat va festivallarda, katta hajmdagi turistik oqimni ta'minlovchi diniy atraksionlar e'tiqodga asoslangan turizmدا mintaqaviy o'sishning asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Hindistonning Gujarat shtatida 2017-yilda sayyohlar oqimi 44,8 millionga yetdi, ularning 36 foizi ruhiy barkamollikka erishish maqsadida tashrif buyurganlar edi. Hindiston, shuningdek, dunyodagi eng yirik diniy yig'inlardan biri hisoblangan, hinduizmdagi muhim diniy festival bo'lgan Kumbh Melaga mezbonlik qiladi. 2019-yilda festival Uttar-Pradesh shtatiga 200 million mehmonni jalb qildi, bayramning eng qulay kunida 50 millionga yaqin kishi qatnashdi.

Turizmda ba'zi bir ko'rsatkichlarda eng yuqori o'rinda turuvchi Meksikaning shtatlari, diniy turizmga strategik o'sish tarmog'i sifatida qaramoqda. San-Xuan-de-los-Lagos sobori kabi diqqatga sazovor joylarga ega bo'lgan Xalisko shtati diniy sayyohlar uchun afzal yo'nalishlar bo'yicha Mexikodan keyin ikkinchi o'rinda turib, har yili 11 million kishini jalb qiladi va sayyohlikdan 330 million dollarga yaqin daromad oladi. Har yili 12 oktyabrda bo'lib o'tadigan Zapopan diniy festivali mintaqaga 1 milliondan 2 milliongacha sayyohni jalb qiladi. Meksika Turizm vazirligining hisob-kitoblariga ko'ra, milliy miqyosda yiliga 40 million kishi ziyoratgohlarni ziyorat qiladi va 1,12 milliard dollarga yaqin daromad keltiradi.

Diniy bayramlarning yana bir global markazi bo'lgan Braziliya har yili 200 dan ortiq diniy tadbirlarga mezbonlik qiladi, jumladan, Para shtatining Belem shahridagi Sirio de Nazare tantanali yurish marosimida 2022-yilda 2,5 million kishi qatnashgan. 2019-yilda diniy turizm Braziliya iqtisodiyotiga taxminan 15 milliard dollar daromad keltirgan.

Quyida O'zbekiston Respublikasi hududida ziyorat turizmini rivojlantirish, undan tushadigan iqtisodiy daromadni oshirish maqsadida qilinishi mumkin bo'lgan tadbirlarning taklif va tavsiyasini keltiramiz:

respublika hududlari bo'ylab strategik diniy dasturlarni ishlab chiqish;

ziyoratgohlarga borish va ziyorat qilish uchun xalqaro andozadagi shart-sharoitlarni yaratish;

oliy ta'lim dargohlari huzurida O'zbekiston hududida yashab ijod qilgan avliyo, alloma, olim va shayxlar hayotini o'rganishga yo'naltirilgan Ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil qilish;

Ziyorat turizmini boshqarish tashkiloti (Pilgrimage tourism management organization) ga asos solish;

ziyoratgohlarda jahon hamjamiyati olimlari ishtirokida o'tkaziladigan xalqaro darajadagi forum va konferensiyalarni uyushtirish;

O'zbekiston Respublikasi hududidagi ziyoratgohlar bo'ylab ma'lum bir yo'nalishga ixtisoslashtirilgan maxsus turlarni yo'lga qo'yish, masalan, xalq tabobatiga asoslangan ziyorat turizmi;

ziyoratchilar ziyoratgohga tashrifigacha, tashrif davomida va ziyoratdan so'ng qiladigan barcha amallarini (yuvinish qoidalari, o'qiladigan duolar, boriladigan joylar, "Halol" standarti asosida xizmat ko'rsatadigan umumiy ovqatlanish tashkilotlari va joylashtirish vositalari kiritilgan) bosqichma-bosqich o'rgatadigan mobil platforma yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmad ibn Mahmud Buxoriy "Mu'in Al-Fuqaro". (2009) Tarixi Mullozoda (Buxoro mozorlari zikri). (History of Mullozoda (mention of Bukhara cemeteries)). Tashkent.
2. Timothy, D. J., & Olsen, D. H. (Eds.). (2006). *Tourism, religion and spiritual journeys* (Vol. 2). London: Routledge.
3. Collins-Kreiner, N. (2010). Researching pilgrimage: Continuity and transformations. *Annals of tourism research*, 37(2), 440-456.
4. Raj, R., & Griffin, K. A. (Eds.). (2015). *Religious tourism and pilgrimage management: An international perspective*. Cabi.
5. <https://tourismteacher.com/pilgrimage-tourism/>
6. <https://www.verifiedmarketresearch.com/product/religious-tourism-market/>
7. <https://oxfordbusinessgroup.com/articles-interviews/the-growth-trajectory-of-religious-tourism-in-key-markets/>

ICHKI TURIZM VA UNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada, ichki turizmning iqtisodiyotni rivojlantirishda tutgan o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilgan bo'lib, uning rivoji uchun takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ichki turizm, tashqi turizm, turist, iqtisodiyot, ziyorat turizmi, tur firmalar.

Barchamizga ma'lumki, turizm sohasi bugungi kunda ko'pgina davlatlar iqtisodiyotining asosini tashkil etadi va eng ko'p foyda keltiruvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Chunki, har bir inson tug'ilibdiki, umri davomida hech bo'lmasa bitta davlatga sayohat qilishni xohlaydi. Bugungi kunda dunyoda har o'nta mehnatga layoqatli insonlarning bittasi bu sohada faoliyat yuritadi. 2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, jahonda turizm sohasida 8 076 719 ishchi xizmat qilmoqda.

Bundan ko'rinadiki, iqtisodiyotni rivojlantirishda turizmning o'rni juda muhim. Jahon bo'ylab tashqi va ichki turizmni hisobga olsak, har yili dunyo aholisining deyarli yarmi sayyohga aylanadi. Jahonda yiliga 7,9 milliard kishidan 1 milliarddan ziyod inson sayyohga aylanadi. Bu esa jahon sayyohlik bozori va sayyohlarni qabul qilish, xizmat ko'rsatish orqali har qanday davlatning iqtisodiyotida qo'shimcha daromad, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi.

O'zbekistonda turistik baza yetarli. Turizmning yangi imkoniyatlarini ochish, sohani iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biriga aylantirish, turistik salohiyatni rivojlantirish joriy yilda yangi bosqichga ko'tarildi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Joriy yilning 22 dekabr kuni yurtboshimiz parlamentga murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdi:

«Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan.

Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim».

Prezidentimiz dunyoning 33 ta mamlakatida O'zbekiston elchixonalari faoliyat ko'rsatayotgan elchilarga qarata qilgan onlayn murojaatida O'zbekistonga xorijiy investitsiya hamda turistlarni jalb qilishni, ayniqsa, har bir elchiga har kuni 10 nafar sayyoh jo'natishga e'tibor berishni ta'kidladi. Ya'ni, turist ham investitsiya degani, degan g'oyani ilgari surdi.

Davlat rahbarining yurtimizda barcha sohalar qatorida turizmga ham katta e'tibor qaratishi bu sohada ko'zga tashlanib kelinayotgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralarini jadallik bilan amalga oshirilishida dasturulamal bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. O'zbekiston yirik turizm salohiyatiga ega mamlakatlar qatorida o'z o'rni va ahamiyatiga ega ekan, demak biz mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishimiz kerak.

Hozirgacha xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston haqida ko'proq ma'lumotlarni targ'ibot qilishda oqsoqlikka yo'l qo'yilmoqda. Xususan, bugungi kunda yurtimizga tashrif buyurayotgan aksariyat sayyohlar turizm firmalari tomonidan jalb etilmoqda. Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida O'zbekiston haqida aholida yetarlicha ma'lumot yo'q. Ular aynan turfirmalar orqali eshitib, qiziqish bildirib kelishmoqda.

2020-yilda Fransiyadagi turizm yalpi ichki mahsulotga (YaIM) bevosita 107,9 milliard yevro hissa qo'shdi. Uning 30 foizi xalqaro tashrif buyuruvchilar hisobidan, 70 foizi esa ichki turizm xarajatlaridan to'g'ri keladi. Bundan ko'rinib turibdiki, davlat iqtisodiyotida ichki turizmning hissasi tashqi turizmnikidan yuqori. Shuning uchun ham jahon turizm bozorida o'z

o'rnimizni egallashga harakat qilar ekanmiz, avvalo ichki turizmni rivojlantirishga e'tibor qaratishimiz zarur.

Afsuski ichki turizmni rivojlantirishga bir qancha to'siqlar ham mavjud. Ichki turizmni rivojlantirish uchun tur marshrutlarning yo'lga qoyilmaganligi asosiy sabab bo'lsa, ikkinchi sabab aholida ziyorat manzillari haqida yetarli ma'lumotlarning yo'qligidir. Viloyatlar miqyosida emas, hattoki tumanlar miqyosida ham ziyorat maskanlari haqida qo'shni tumandagilarning bexabarligi achinarli holat albatta. Qolaversa, bizda mehmonxonalar yetarli emas, bori ham Yevropa mamlakatlarining mehmonxonalari narxi bilan deyarli teng va har yili narx sezilarli darajada o'sib bormoqda.

2021-yil 9-fevralda O'zbekiston respublikasida "Ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 6165-sonli Prezident farmoni imzolandi. Mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish haqida so'z borar ekan avvalo, ziyorat turizmi ko'z oldimizga keladi. Bu albatta, mentalitet bilan bog'liq holat. Sababi bizda har qanday yosh doirasidagi sayyohlarda muqaddas tarixiy qadamjolariga qiziqish ustun. Sababi bunday joylarga tashrif chog'ida sayyohlar nafaqat tarixiy obyektlar go'zalligidan bahramand bo'ladilar, balki ruhiy ozuqa olib, ruhiyatlarida yengillik sezadilar. Ichki turizmning ushbu tarmog'ini rivojlantirishning imkoniyatlari juda keng. Mamlakatimizda 7 mingdan ziyod tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjud. Xususan, birgina Xiva shahrining o'zida 60 dan ziyod avliyolarning muqaddas qadamjolari mavjud.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlangani sayin aholi daromadlari va farovonligi ortib boradi. Bu o'z navbatida ichki turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu borada quyidagi takliflarimiz o'rinli nazarimizda:

- Ijtimoiy tarmoqlarda mamlakatimizning turistik salohiyatini keng targ'ib qilish;
- Televideniye va radio orqali "O'zbekiston bo'ylab sayohat" yo'nalishida ko'rsatuv va eshittirishlar sonini oshirish;
- Hududlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, bu borada mahallalar faolligini oshirib, sayyohlar almashinuvini yo'lga qo'yish. Xususan, mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari uchun "sayohat haftalik" larini tashkil etish;
- Katta yoshli aholi uchun mahallalar tomonidan Navro'z bayramlarida yoki Hayit bayramlarida "ziyosat kunlari" ni uyushtirish;
- Universitetlarda faol talabalar uchun, xususan, turizm yo'nalishida tahsil oladigan talabalar uchun "O'zbekiston bo'ylab sayohat" haftaliklari tashkil etilsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi. Sababi bu sayohat nafaqat yangi joylar haqida yangi taassurotlar balki, kelajakda ushbu sohada xizmat ko'rsatadigan talabalar uchun ulkan tajriba maktabi vazifasini o'tardi.

REFERENCES

1. TURIZM ASOSLARI M.A.Mirzayev, M.T.Aliyeva T.: 2011
2. Kun.uz
3. LEX.UZ
4. Ziyonet.uz

Dilmonov Kudrat Bakhtiyorovich.
Bukhara State University, Tourism and hotel industry
senior teacher of the department.
Rajabboyev is the son of Rashid Rafik
3-2MX-21.

POSSIBILITIES OF USING INNOVATIONS IN EDUCATION IN THE DIGITAL ECONOMY

It is important to organize distance education programs based on modern information and communication technologies. In the educational process, it is necessary to introduce the "E-MINBAR" platform, which allows you to view and study lectures and practical exercises, seminars online, as well as download them to electronic media using "cloud technologies".[1]

Opinions of participants of the site "I am a teacher - a teacher development program" about the idea "Flipped class: advantages and disadvantages".[2]

Table-1

Advantages	
1. Students learn new knowledge at their own pace.	Flipped class allows children to work at their own pace. The student can watch the video at a convenient time, stop watching, listen to unclear moments several times, write down questions and give them to the teacher during the lesson.
2. Children become creators of knowledge.	In the flipped class system, children are no longer passive listeners. To acquire new knowledge, they should work independently: watch videos, read articles, listen to interviews, find additional information on the Internet. The task of the teacher is to give the student the necessary materials and show the mistakes.
3. Materials can be studied at any time.	This is useful if students get sick, compete or drop out. It is enough to send them materials via e-mail or social networks. Students will have the opportunity to study equally with everyone else and will not miss an important topic.
4. Parents have the right to access classes.	In the traditional system, parents cannot just come to class. And "Flipped class" gives them the opportunity to see material that children study theory at any time. Parents can prepare lessons with their children and help with difficult issues.

In the traditional system, parents cannot just come to class. And "Flipped class" gives them the opportunity to see material that children study theory at any time. Parents can prepare lessons with their children and help with difficult issues.

It is necessary to accelerate the creation of national electronic educational resources, organize the translation of foreign electronic educational resources, gradually increase the share of electronic resources in the educational process, create electronic textbooks, place information on electronic carriers, and create resources in libraries using QR codes.

The share of the digital economy is higher in both gross domestic product (GDP) and GDP per capita in developed countries. From this point of view, the state-level opinions of the head of our country in this regard are aimed, firstly, at increasing the well-being of the population, and secondly, at increasing the real income of the population. The question arises as to how communication services, in particular, Internet services are organized in the country. In this regard, below I have analyzed the activities of telecommunication enterprises in our country in a narrow and broad sense. The basis of the digital economy is high-quality communication services.

Digital economy is an implementation system based on the use of digital technologies in economic, social and cultural relations.[6] Sometimes it is also referred to as the internet economy, the new economy, or the internet economy. The digital economy is changing the face of modern national economies, increasing their efficiency and transparency. Today it is the engine of the world economy, one of the signs of development. The digital economy is not another economy that needs to be created from scratch. This means transforming the existing economy into a new system by creating new technologies, platforms and business models and applying them to everyday life.

In 1995, the American programmer Nicholas Negroponte introduced the term "digital economy". Today, this term is used by politicians, economists, journalists and businessmen all over the world. In 2016, the World Bank published its first report on the state of the global digital economy ("Digital Dividends").

The digital economy is a key ally of corruption and the black economy. Because numbers seal everything, store it in memory and quickly provide information when needed. In such

conditions, it is impossible not to hide any information, to carry out secret operations, not to provide complete information about certain activities. The computer shows everything. The abundance and structure of information prevents deception and lies. Because the system cannot be cheated. In particular, if the digital economy is widely introduced into the education system, the exchange of information will accelerate, the forms of education will increase, and anyone will have the opportunity to receive distance education.

List of used literature

1. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/olii-talim/3856.htm>
2. <https://teacher.yandex.ru/posts/perevernuty-klass-preimuschestva-i-nedostatki>
3. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/31756-aloqa-va-axborotlashtirish-xizmatlarining-tarkibi-5>
4. <https://www.andstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/7676-aloqa-va-axborotlashtirish-xizmatlarining-tarkibi-5>
5. <https://yuz.uz/uz/news/-mobil-aloqadan-qancha-aholi-foydalanadi>
6. <https://cemc.uz/uz/page/2437/raqamli-texnologiyalar-iqtisodiy-yuksalishning-muhim-omili>
7. Dilmonov K. B. The opportunities of using information technologies in agrarian industrial complex //современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. – 2017. – С. 219-221.
8. Dilmonov K. B. Specifics of innovation processes in agrarian industrial complex //современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. – 2016. – С. 3561-3565.
9. Dilmonov Q. B. Cooperation between higher education institutions, economy and society //Мировая наука. – 2019. – №. 4 (25). – С. 30-33.
10. Dilmonov K. B. Specifics of innovation processes in agrarian industrial complex //современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. – 2016. – С. 3561-3565.

Dilmonov Kudrat Bakhtiyorovich.
Bukhara State University, Tourism and hotel industry
senior teacher of the department.
Jorayeva Sabina Obid's daughter
3-2MX-21.

THE STORE OF ELECTRONIC CERTIFICATES IS A UNIQUE WAY TO OPTIMIZE THE EDUCATIONAL SYSTEM.

How can we facilitate e-certification of learning outcomes? To compare its advantages, it is enough to refer to foreign experience. In particular, in many countries such as Germany, Italy, and Denmark, the procedure for transmitting and receiving information and documents in electronic form is already showing positive results. In the educational system, distance learners prefer to receive a certificate or diploma in electronic form after final exams. It is good to use such electronic methods in Uzbekistan.

According to the results of the training, in order to introduce the practice of issuing electronic certificates to graduates, special attention is being paid to the creation of the system and software of the electronic certificate warehouse that provides a unique identification number and QR code and security. An electronic certificate store is a database that stores electronic certificates, that is, a store that stores files and information about certificates. Issuing an electronic certificate allows you to save distance, save various expenses, save time when issuing a certificate in electronic form, and avoid the paper form of the document. A special program will be developed for the preparation of electronic certificates, according to which certificates will be assigned automatic, consecutive numbers and separate sections will be created for groups.

After completing any course, students enter the e-certificate store with their full name or the login provided by the educational institution, enter the database where the e-certificates are stored, enter the serial numbers of personal passports to download the certificate and certificate will be downloaded soon. Certificates are distributed in each field and stored in an electronic database.

In order to create an electronic database of scientific and technical information of master's and doctoral theses of higher educational institutions, to ensure the freshness of future scientific and technical information, it is necessary to widely use the anti-plagiarism system.

Based on the uniqueness of the educational direction and specialization, it is appropriate to develop the use of modern software products that are widely used in the international education process. It is necessary to sharply reduce the number of various reports and information coming from higher education institutions, to abandon the paper form of their preparation, and to gradually switch to the "Electronic University" platform, which provides electronic management systems and educational processes, libraries and workflow.

It is necessary to create a national system of higher education institutions based on the creation of an electronic database (Student Registration System) containing information about teachers, students, graduate students and doctoral students.

A single information platform of higher education - "Higher Education Management Information System" has been launched, which includes educational and methodological, regulatory documents, statistical data, as well as information on the provision of state interactive services in the field of higher education with the support of international organizations.

Based on the presented data and analysis, it is desirable to implement the following measures to increase the efficiency of scientific and research work in higher education institutions, to widely involve young people in scientific activities, and to create an innovative science infrastructure:

1. Step-by-step introduction of the "University 3.0" concept, which provides an integral connection between education, science, innovation and commercialization of research results in higher education institutions.

2. It is necessary to organize technoparks, foresight, technology transfer, start-ups, accelerator centers in higher education institutions by attracting foreign investments, expanding the types of paid services and other non-budget funds and studying the socio-economic development of their respective sectors.

3. It is necessary to achieve the scientific and innovative activity of professors, teachers, scientific staff, doctoral students, master's students and bachelors in the established technology parks.

4. Creation of new products and technologies with high commercial potential based on start-up projects at the expense of additional budget funds. Establishment of subsidiaries and affiliates engaged in implementation of research results in higher education institutions and development of entrepreneurship.

5. Establishing "spin-off" and "spin-out" enterprises participating in the implementation of scientific research results in higher education institutions by creating new products and technologies with high commercial potential on the basis of non-budget start-up projects, conducting academic entrepreneurship.

6. To ensure the development of science in accordance with the latest achievements based on the analysis of the results of research conducted worldwide with the help of the SsiVal international information and analysis system.

7. Development of innovative scientific research, preservation of existing scientific schools and creation of new ones, strengthening of their personnel potential, while ensuring broad involvement of talented young people in science.

List of used literature

1. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/olii-talim/3856.htm>

2. <https://teacher.yandex.ru/posts/perevernuty-klass-preimushchestva-i-nedostatki>
3. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/31756-aloqa-va-axborotlashtirish-xizmatlarining-tarkibi-5>
4. <https://www.andstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/7676-aloqa-va-axborotlashtirish-xizmatlarining-tarkibi-5>
5. <https://yuz.uz/uz/news/-mobil-alqadan-qancha-aholi-foydalanadi>
6. <https://cemc.uz/uz/page/2437/raqamli-texnologiyalar-iqtisodiy-yuksalishning-muhim-omili>
7. Dilmonov K. B. The opportunities of using information technologies in agrarian industrial complex //современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. – 2017. – С. 219-221.
8. Dilmonov K. B. Specifics of innovation processes in agrarian industrial complex //современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. – 2016. – С. 3561-3565.
9. Dilmonov Q. B. Cooperation between higher education institutions, economy and society //Мировая наука. – 2019. – №. 4 (25). – С. 30-33.
10. Dilmonov K. B. Specifics of innovation processes in agrarian industrial complex //современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. – 2016. – С. 3561-3565.